



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021, № 5

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **R.X.Djurayev, M.E.Inoyatova**
Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarda ma'naviyatni tarbiyalash haqida
- 9 **D.M.Maxmudova, N.A.Mirxalilova**
Uzluksiz ta'limda kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida
- 12 **I.E.Shernazarov**
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini xalqaro baholash tizimiga tayyorlashdagi vazifalar va ularning yechimlari
- 18 **J.D.Saidov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining ma'lumotlar omborini yaratish bo'yicha kasbiy kompetentligini baholash mezonlari
- 22 **Z.Sangirova**
Ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim muhitini yaratishda o'quv – loyiha ishlarning o'rni
- 26 **L.Q.Samandarov**
Uzluksiz ta'lim tizimida umumiy fizikaning «Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi» bo'limini o'qitishning hozirgi halati va muammolari
- 31 **Sh.M.Kamolko'jayev**
Sinergetikani ta'limdagi o'rni
- 34 **R.M.Madatov**
Uzluksiz ta'limda zamonaviy dars va uning samaradorligi
- 39 **B.Nazarova**
Iste'dodli va iqtidorli talaba-yoshlarni tadqiqot ishlarga yo'naltirilish fan va ishlab chiqish rivojining muhim omilidir
- 44 **X.H.Xaydarova, T.P.Kamalova, K.B.Ergasheva, J.M.Karaxanova**
Экологическое образование молодежи Республики Узбекистан
- 48 **I.I.Ta'yuzhenko**
Методологические подходы к организации самостоятельной работы студента по изучению мировой музыкальной культуры в системе непрерывного образования

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 51 **N.N.Xudoyberdiyev**
Hududiy malaka oshirish tizimida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining axborot kompetentligini oshirish
- 55 **I.Yu.Abduraxmanova**
Elektron ta'lim vositalari – o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish omili sifatida
- 59 **Z.N.Yulchiyeva**
Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy psixologik aspektlari
- 63 **S.I.Xusanova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida hayot xavfsizligi asoslarini o'qitishda axborot texnologiyalarining roli
- 69 **I.A.Oxunov**
Multimedia ta'lim texnologiyalarida virtual borliq tshunchasi va uni o'rganish

MA'NAViy TARBIYA

- 73 **A.I.Saidov**
Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarda sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik va ma'naviy-ma'rifiy omillari
- 77 **B.U.Mingbayeva**
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalarga qiziqishni shakllantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari
- 82 **G.K.Johborova**
Pedagogik jamoaning innovatsion imkoniyatlarini oshirishning pedagogik-psixologik omillari
- 85 **D.I.Xodjakulova, J.Xolmuratova, D.B.Mirxodjayeva**
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarning shaxs shakllanishidagi yosh xususiyatlari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 90 **Z.Sh.Qarshiyeva**
Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik jarayonida yondashuvlardan foydalanish
- 95 **T.X.Avliyayulov**
10-11 sinf o'quvchilarini kasb-hunarga qiziqtirishni aniqlashda didaktik-ta'minotini tamoyillari va omillari
- 99 **M.Raximova**
O'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichlari va mazmuni
- 104 **N.K.Ermetova**
O'quvchi-yoshlarning kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili
- 108 **M.B.Yuldasheva**
Biologiya darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishning tashkiliy asoslari



PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV YOSHLARDA MA'NAVIYATNI TARBIYALASH HAQIDA

R.X.DJURAYEV,

O'zPFITI, akademik, p.f.d.,

M.E.INOYATOVA, *p.f.n.*

Maqolada zamonaviy ta'limning dolzarb muammolari haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning qimmatli fikrlari yoritilib, ushbu muammolar yechimiga oid yondashuvlar yoritilgan.

Tayanch soz va iboralar: *Zamonaviy ta'lim-tarbiya, dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy soha, barkamollik, pedagogik faoliyat.*

В статье освещены ценные идеи Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева об актуальных проблемах обучения и воспитания, а также раскрыты подходы для решения этих проблем.

Ключевые слова: *современное обучение и воспитание, мировоззрение, духовно-нравственная отрасль, совершенство, педагогическая деятельность.*

The article highlights the valuable ideas of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on topical problems of education and upbringing, as well as discloses approaches to solving these problems.

Key words: *modern education and upbringing, worldview, spiritual and moral industry, excellence, pedagogical activity.*

Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

Sh.M.Mirziyoyev

“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida (2019 yil, 3 may) Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda **Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi** loyihasini tayyorlash, **“Jaholatga qarshi ma'rifat” g'oyasi** asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish, **“Ma'naviyat fidoyisi” ko'krak nishonini** ta'sis etish kabi dolzarb vazifalar belgilab qo'yilgani bejiz emas. Chunki ma'naviyat tarbiyasini talab darajasida amalga oshirsakgina, barkamol avlod tarbiyasida sezilarli yutuqlarga erishishimiz mumkin.



Ma'lumki, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida: ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni tizimli amalga oshirish asosida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ushbu 5 ta muhim tashabbus tarkibida aynan Is'hoqxon Ibrat va boshqa jadid ma'rifatparvarlari ko'zlagan katta maqsadlar amalga oshmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2016 yil 2 noyabr kuni Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda buyuk taraqqiyparvar va ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibratning xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi yo'lidagi beqiyos xizmatlariga ehtirom ramzi sifatida uning nomini abadiylashtirish, u kishiga atab zamonaviy bog' yaratish, yodgorlik majmuasi va "Ibrat maktabi"ni tashkil qilish tashabbusi bilan chiqqan edilar. Shundan so'ng Prezidentimiz rahbarligida Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida Is'hoqxon To'ra Ibrat memorial majmuasida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda mazkur joyda bog'-xiyobon, uning o'rtasida Is'hoqxon to'ra Ibrat haykali, milliy me'morchilik uslubidagi ayvon, bosmaxona, ilg'or texnologiyalar asosida qurilgan musiqali favvara, chet tillarga ixtisoslashtirilgan 400 o'rinli maktab-internat va tarixiy me'morchilik obidasi bo'lmish muzey ishlab turibdi.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida (2017 yil, 19 sentyabr) Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish taklifi bilan chiqishlari, koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn muloqot rejimida bo'lib o'tgan 75-sessiyasida (2020 yil, 23 sentyabr) esa tarixda ilk bor davlat tilida - o'zbek tilida ma'ruza qilib, ko'pgina muhim masalalar qatorida Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyani qabul qilishga oid tashabbusni ilgari surishlari jahon hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Endilikda davlat boshlig'imiz olg'a surayotgan g'oyalarga ko'ra maktablarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlari, maktab joylashgan hudud shart-sharoitlarini hisobga olish;

- ijodiy uyushmalar, ilmiy markazlar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etishning real imkoniyatlarini nazarda tutish zarur.

- sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, bolalar yetakchilari, maktab psixologi, mahalla fuqarolar yig'ini, oila, ota-onalar qo'mitalari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, huquq-tartibot idoralarining barchasi maktab o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy qiyofasi talab darajasida shakllanishiga mas'ul hisoblanadi.



Davlat rahbarimiz yuksak ma'naviyatli, barkamol avlodga xos xususiyatlar doirasida quyidagi to'rt jihatga asosiy e'tiborni qaratmoqdalar:

– yangicha va mustaqil fikrlash, o'z haq-huquqini tanish va buning uchun kurashish;

– mas'uliyatlilik, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanish, imkoniyatlarini ishga sola bilish;

– tashabbuskorlik, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olish;

– vatanparvarlik, shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'unlik ko'rish va shu asosda faoliyat yuritish.

Demak, bular zamondosh yoshlarimizning barkamolligini belgilovchi fazilatlaridir.

Shuningdek, ushbu yo'nalishda yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda axborot hurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash maqsadida "Bu yil o'qish zarur bo'lgan 100 ta kitob" turkumidan boshlang'ich, o'rta va yuqori sinf o'quvchilari uchun kitoblarning aniq ro'yxatini shakllantirish va uning natijalarini tanlov, davra suhbatlari, seminar, munozara kabi shakllarda nazorat qilib borish zarur.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, milliy ongi va tafakkurini rivojlantirish hamisha har qanday demokratik jamiyatning eng asosiy maqsadi va matlabi bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev «*Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi*» mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasiga alohida to'xtalib: «*Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan*»- deya ta'kidlagan edi[3].

Tarbiyadan murod – barkamol, komil insonni voyaga yetkazishdir. Komillikning belgisi haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdan iborat. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga foyda keltirsa, u shunchalik komil bo'ladi. Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida



musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Jumladan, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" kabi asarlari shular jumlasidandir[2].

Komil inson tarbiyasiga bag'ishlangan ushbu kitoblar chin ma'noda ma'naviyat sarchashmasini asrlardan asrlarga uzatgan ko'prik vazifasini o'tagan. Zero, tarbiya va ma'naviyat egiz tushunchalardir. Ma'naviyat xalqimiz tarixiga hurmat va e'tibor bilan yondashish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlarga doir hayotiy ideallar, Vatan ravnaqi, el-yurt osoyishtaligi, farovon hayot kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarida ma'naviyatga yuksak baho berib, bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz, havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz borligini, xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo'lishini, ana shunday yorug' kelajakni avvalambor azmu shijoatli, jo'shqin orzu-intilishlar bilan hayotga kirib kelayotgan, hech kimdan kam bo'lmaydigan navqiron avlodimiz, butun O'zbekiston yoshlari barpo etish zarurligini ta'kidladi. Davlat rahbarimizning uqtirishicha, **"... yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega"**[1].

Inson qalbida Vatan tuyg'usiga yo'g'rilgan ma'naviyatning kamol topishi uchun qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak. Ma'naviyat va halol mehnat yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi.

Ma'naviyat tarbiyasida chinakam o'qituvchi bu tarbiyaning tarkibi milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, umumbashariy qadriyatlar, ezgulik, tinchlik istagi, milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzi, oila tuyg'usi – ota-onani e'zozlash, oila va bo'lajak nasl to'g'risida qayg'urish (biz avlodlarga nimalarni meros qilib qoldiryapmiz?), saxovat va ochiq ko'ngillik, ustozlarga hurmat-ehtirom, ezgulik, ahil qo'shnichilik, irodalilik, diyonat, diniy ma'rifatga e'tiqod, kechirimlilik ekanligiga o'quvchilar e'tiborini tortgan holda, ularning ushbu qadriyatlarni anglab olishlariga, bu qadriyatlar yoshlarning vijdon va iymoniga singishiga alohida ahamiyat beradi va hayotlarida ularning namoyon bo'lishini kuzatib boradi.

Ma'naviy qadriyatlar inson talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratiladi, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelajak orzu-istagi, e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etadi, hayotda sayqal topgan moddiy va axloqiy-



estetik qadriyatlar, jamiyat a'zolarining barkamol madaniyatini shakllantirishning tayanch vositasi bo'ladi.

Ma'naviy kamolot nima? Ma'naviy kamolot insonning borliq va kishilik tarixi haqidagi bilimlarni o'zlashtirishi, bunda axloqiy-estetik qadriyatlarning tutgan o'mini anglashi, odamiylik mezonlari, axloq-odob me'yorlari haqida izchil va nekbini nuqtai nazarga ega bo'lishi, odamiylik va savob ishlar qilishni hayot matlabi deb bilishi va ularni o'z shaxsiga singdirishidir. Inson odamiylik ilmini o'zlashtirishi kerak. Chunki komil inson vijdon va imon talablariga ko'ra mulohaza yuritishga qodirligi bilan dunyodagi barcha tirik mavjudotlardan ajralib turadi, u yer yuzidagi eng mukammal va mukarram zot, olloh yaratgan mo'jizalarning gultojidir.

Ma'naviy poklik, insonparvarlik va vatanparvarlik hamma davrda, har qanday jamiyatda insonning eng go'zal fazilati sifatida e'zozlangan, ma'naviy poklikni tarbiyalash orqali insonni insonparvar qilib tarbiyalash g'oyasi olg'a surilgan. Zotan, ma'naviyat – tarbiyaning asosi, o'q ildizidir.

Sh.M.Mirziyoyev “O'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va do'stlikni yanada mustahkamlash – eng muhim vazifa” ma'ruzasida ma'naviyat va ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishi ekani, ma'rifatchi fidoyi bo'lmog'i kerakligini ta'kidlaydi: “Yoshlarni o'qitish, ularni ma'naviy va axloqiy tarbiyalash, ularning bilim olishi va o'zini o'zi kamolga yetkazishga intilishini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim”[1], - deb uqtiradi.

Shuningdek, davlat rahbarimiz o'zining “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz” asarida tarixiy xotira, ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l ekanini uqtirib, bunday deydi: “Buyuk tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir”[1].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. - Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018 й., 501 б. -162-б.

2. Х.Ж.Худойқулов. Ўзбек ғурури – унинг одобида. – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, “Фан” нашриёти. – Тошкент, 2008. – 215 б. – 16-б.

3. <http://uza.uz/oz/politics/shavkat-mirziyeev-yeshlar-tarbiyasi-eng-mu-im-masalalardan-16-06-2017>



UZLUKSIZ TA'LIMDA KREATIVLIK IQTIDORNING MUHIM OMILI SIFATIDA

D.M.MAXMUDOVA,

p.f.f.d. (PhD), dosenti v.b. TVChDPI

N.A.MIRXALILOVA,

TVChDPI magistranti

Maqolada shaxsning kreativ potentsiali bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liqligi bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda fikrlashning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etishi asoslangan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ kompetentlik, kreativ potentsial, kreativ tafakkur.

В статье обосновывается тесная связь творческого потенциала личности с творчеством, направленным на процесс познания, что в отличие от традиционного мышления отражается в скорости и гибкости мышления, в способности генерировать новые идеи, а также в особенностях характера личности – не мыслить в одной форме, быть оригинальным, инициативным, терпимым к неопределенности, интеллигентным.

Ключевые слова: креативность, креативная компетентность, креативный потенциал, креативное мышление.

In the article, the creative potential of the individual is closely linked with the creative process focused on the process of cognition based on initiative, tolerance of uncertainty, reflection in being intelligent.

Key words: creativeness, creative competence, creative potential, creative thinking.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlariga to'liq moslashtirishga ko'maklashuvchi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, kreativlik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirishdan iborat etib belgilangan. Shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri – ularda kasbiy faoliyatga nisbatan kreativ yondashuvini rivojlantirishdan iborat.

Darhaqiqat, jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sirini tahlil etganda, bo'lajak mutaxassislarda kreativ faoliyatga bo'lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini ko'rsatadi:

birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'lim tizimi, metodologiyasi va



o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda bo'lajak matematika o'qituvchisining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini egallashdan iborat. Bu esa, o'z-o'zidan bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi;

ikkinchidan, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya'ni ta'limga innovasiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta'lim jarayoniga innovasiyalar kirishining muhim shartlaridan biri esa, o'qituvchining innovation tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi;

uchinchidan, pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan bo'lajak o'qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.

Ko'rinib turibdiki, talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi.

Kreativlik (lotincha "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlik shaxsning an'anaviy fikrlashdan farqli ravishda ma'lum hatti-harakat, faoliyat yoki jarayonni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati sanaladi.

Shaxsning kreativlik potensiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir ta'lim oluvchining shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.



Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda fikrlashning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlari – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi.

Odatda, talabani kreativlik layoqatiga ega bo'lishi muayyan muammolarni hal qilishga intilishi, kichik ilmiy-tadqiqotlarini amalga oshirishi va bu jarayonga qiziqish doirasi bir xil bo'lgan tengdoshlar bilan o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishi muhim ahamiyatga ega.

Shaxs ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilgan ekan, talabani masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Talaba o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

M.Csikszentmihalyi (1996) kreativ insonlar ikki toifaga bo'linadi, degan fikrni olg'a suradi, ya'ni "katta K" – bular faoliyat olib borayotgan sohaning yetakchilardan bo'lib, doimo o'zgarishlar sodir etishga intiladi, "kichik K" – bular o'z kreativlik ko'nikmalaridan faqat kundalik hayotda va foyda keltirishi uchun foydalanadi[1]. Ko'pchilik talabalar o'zlarini kreativ emasmi, deb biladi; kreativlik ular yetisha olmaydigan orzuday va faqatgina iqtidorli insonlar kreativ bo'lishi mumkin, degan fikrga ega. Ular kreativlik bu faqat "katta K" toifasiga kiruvchi insonlar yoki san'at sohasida tahsil olayotgan yoki o'quv-bilish faoliyatini tashkil etayotgan talabalarda bo'lishiga ishonadi. Talabalar, qachonki, kreativ bo'lish uchun "katta K" toifasiga kiruvchi shaxs bo'lish shart emasligini tushunsalar, kreativlik ular uchun ega bo'lish mumkin bo'lgan ko'nikmaga aylanadi. Bunday fikr natijasida talabalar o'zlarini kamroq "ezilgan" sezib, yangidan yangi g'oyalar bilan o'zlarini namoyon etishlari mumkin va mashg'ulotlar jarayonida interfaol vazifalarni bajarishda faol qatnashishga bo'lgan qiziqishlari ortib, ko'rsatkichlari ham yuqoriga ko'tariladi. Ular o'zlariga baland baho berishni boshlaydi va kreativlik sohasida bundan ham yuqori ko'rsatkichlarga erishishga intiladi. Talabalar kreativ tafakkur imkoniyatlaridan qancha ko'p foydalansalar, shuncha ko'p faol bo'ladi.

Kreativ mashg'ulotlar talabalarga hayajon va qiziqishni singdirad exi, ya'ni,



talabalarda qiziqish ortgani sari, ular yanada ko'proq harakat qiladi. S.Dweck (Duek)ning (2006) fikriga ko'ra, talabalar harakat va faollik katta o'zgarishlarga olib kelmasligiga ishonish odatiga egadir; ular ma'lum bir potensialga egaliklarini biladir, ammo bu hech narsani o'zgartirmasligiga ishonadi; shuning uchun ham ularni hamisha yutuqlari uchun emas, balki muvaffaqiyatsizliklari uchun baholash xavfli sanaladi [2]. Aksincha, o'zlari haqida yuqori bahoga ega bo'lgan talabalar o'zlarida ko'nikma va iqtidorning rivojlanishiga ishonadi. Bunday talabalar odatda murakkab ishlarda faol qatnashadi va o'zlarini namoyon eta oladi ham. Bordi-yu, xato qilsalar, undan xulosa chiqarib, o'sishda davom etadi. Bunday fikrlash odatiga ega talabalar kirishimliroq va kreativlik ko'nikmasidan foydalanishga moyil bo'ladi.

Kreativlik o'quv-bilish yoki afzal ko'rish sifatida tahlil etilishi ham mumkin: ba'zi talabalar tanqidiy, tahliliy yoki baholovchi fikrlashni, boshqalar esa faktlarga asoslangan biri

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 .Csikszentmihalyi M. (2014). The systems model of creativity. – Dordecht, Netherlands: Springer. – 882 p.

2 .Dweck C. (2006). Mindset: The new psychology of success. New York, NY: Random House. – 492 p.

3. Starko A.J. Creativity in the Classroom: Schools of Curious Delight [Text] / A.J. Starko. – London: Lawrence Erlbaum Associates, 2005. – Third Edition. – 499 pp. – ISBN 0-8058-4791-X



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH TIZIMIGA TAYYORLASHDAGI VAZIFALAR VA ULARNING YECHIMLARI

I.E. SHERNAZAROV,

Nizomiy nomidagi TDPU

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarni Xalqaro baholash dasturlaridan PISA, PIRLS, TIMSS ishtirok etishini ta'minlash, 2030 yilga qadar o'quvchilarni tayyorgalik darajasini oshirish va ulardagi kreativ fikrlash, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik hamda kompyuter savodxonliklarini shakllantirish kerakligi hamda bu xalqaro baholashda kuchli 30 talik davlatlar qatorida bo'lish kerakligi hisobga olgan holda bir iancha vazifalar va ularning yechimlari maqolada yoritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: *The Programme for International Student Assessment-PISA, Trends in International Mathematics and Science Study -TIMSS, Progress in International Reading and Literacy Study - PIRLS, (IHTT (OECD)– Organisation for Economic Cooperation and Development), ICILS, OECD.*

В статье освещены задачи и решения по обеспечению необходимости участия учеников общеобразовательных школ в Международных программах оценивания PISA, PIRLS, TIMSS, повышения уровня подготовки учащихся к 2030 году и необходимости формирования у них креативного мышления, математической грамотности, естественно-научной грамотности и компьютерной грамотности, а также стремления быть в числе 30 сильнейших государств в программах международного оценивания.

Ключевые слова: *The Programme for International Student Assessment-PISA, Trends in International Mathematics and Science Study -TIMSS, Progress in International Reading and Literacy Study - PIRLS, (IHTT (OECD)*

The article highlights the tasks and solutions to ensure the need for the participation of pupils of general education schools in the International Evaluation Programs PISA, PIRLS, TIMSS, increasing the level of preparation of students by 2030 and the need for them to form creative thinking, mathematical literacy, natural science literacy and computer literacy, as well as the desire to be among the 30 strongest states in international assessment programs.

Key words: *The Programme for International Student Assessment-PISA, Trends in International Mathematics and Science Study -TIMSS, Progress in International Reading and Literacy Study - PIRLS, (IHTT (OECD)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jahon ta'lim



reytenglarida mamlakatimizni yuqori pog'onalarga olib chiqish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur. PISA (*inglizcha - Programme for International Student Assessment*) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan.

PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi qo'yidagi yo'nalish bo'yicha aniqlanadi: o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, moliyaviy savodxonlik, kompyuter savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik.

Izoh: O'zbekiston 2021-yilda 3 ta (*o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik*) yo'nalish bo'yicha ishtiroki etishi ko'zda tutilmoqda.

Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) tomonidan butun dunyo bo'ylab o'tkazilgan tadqiqotdir.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) a'zo va a'zo bo'lmagan mamlakatlarda, 15 yoshli maktab o'quvchilarining matematika, tabiatshunoslik va o'qish bo'yicha o'quv natijalarini o'lchash orqali ta'lim tizimini baholashni maqsad qilgan. Dastlab 2000 yilda ijro etilgan va keyin har uch yilda takrorlangan. Maqsad mamlakatlarga ta'lim siyosati va natijalarini yaxshilashga imkon berish uchun taqqoslanadigan ma'lumotlarni taqdim etishdir. Bu muammolarni hal qilish va idrokini o'lchaydi.

Shunday ekan o'quvchilarni, ayniqsa 11 yoshdan 15 yoshgacha shu Xalqaro baholash tizimida yaxshi natijalarga erishi uchun o'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini yaxshi rivojlantirish kerak. Buning uchun bu tabiiy fanlar bo'yicha dars beruvchi o'qituvchi mavzuni tushuntirishda tabiiy fanlar integratsiyasidan foydalangan holda dars o'tishlari kerak. Masalan: Germaniya, Angliya va Xitoy va boshqa davlatlarda o'quvchilarga dars o'tishda fanlar integratsiyasidan juda mukammal foydalanishadi. Faraz qiling o'quvchilarga suv haqida ma'lumot berishda birgina o'qituvchini o'zi suvni tabiatda uchrashi, biologik ahamiyati, formulalari, kimyoviy xossalari, geografik muhitdagi (atmosfera, gidrosfera, litosfera, stratosfera) tarqalishi va ahamiyati, fizik xossalari, suv bo'yicha matematik hisoblar, ular tarkibidagi (agregat holati -suyuq, qattiq, gaz) molekulalarni fazoviy shakllarini ifodalashda hattoki chizmachilik, tasviriy sanat fanlaridan ham



foydalanishadi. Bu yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarni birgina o'qituvchi kun davomida (misol uchun 5 soat davomida) tushuntirida va o'quvchilar foydalanishi uchun innovatsion texnologiya va AKT asosida tayyorlangan avdiovizual ma'lumotlardan keng foydalanishadi.

O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda qatnashishga kirishganiga bir yildan ko'proq vaqt o'tdi va "o'tgan davr mobaynida qanday ishlar amalga oshirildi?" degan savol to'g'rilishi tabiiy.

Umumta'lim muassasalarining xalqaro baholash dasturida ishtirok etishini ta'minlashga mas'ul bo'lgan tashkilot-Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Milliy markaz zimmasiga umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, xalqaro baholash dasturlariga qayd etilgan natijalarni boshqa davlatlar bilan taqqoslash va boshqa ma'suliyatli vazifalar yuklatildi.

PIRLS dasturida esa, 4-sinf o'quvchilarning an'anaviy matnlarni tez, ravon, ifodali o'qiy olishi emas, balki darsliklardan tashqari berilgan matnlarni o'qib, uni qanchalik tushunishi va talqin qila olishi hamda fikrlarini ravon tilda yozma bayon eta olish ko'nikmalari baholanadi.

4-sinf o'quvchilari keyingi sinfda o'tishdan oldin ularni oldiga quygan maqsad va vazifalari bo'lishi kerak. Aynan buni shakllantirish (qay usulda amalga oshirishi) o'qituvchi zimmasidadir. O'quvchilar 1-4 sinflarda o'quvchilarni faqatgina darsliklar asosida o'qitish bilan cheklanib qolish kerak emas. O'quvchilarga bir qancha tabiiy xodisalarni, ijtimoiy hayotimizda uchraydigan voqealarni fanlararo integratsiyalar orqali tushuntirish kerak.

7-sinf kimyo fanida darslari suvning tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan. Suv uch turga bo'linadi: og'ir suv, yengil suv va o'ta og'ir suv. Biz istemol qiladigan suvimiz ya'ni ichimlik suvi yengil suv hisoblandi. Suvning og'ir, yengil va o'ta og'ir deb atalishiga sabab suv tarkibidagi kislorodni massasiga bog'liq. Yengil suv tarkibida vodorodning atom massasi 1, og'ir suv tarkibida vodorodning atom massasi esa 2, o'ta og'ir suv tarkibida vodorodning massasi 2 bo'ladi. Demak suv tarkibida vodorodning izotoplari (protiy- ^1H , deyeriy - ^2D , tritiy - ^3T) mavjud ekan. Barcha suvlarning tarkibida 1 tadan kislorod bo'lib, ular: yengil suv ($\text{H}_2\text{O} = 16 \text{ g/mol}$), og'ir suv ($\text{D}_2\text{O} = 20 \text{ g/mol}$), o'ta og'ir suv ($\text{T}_2\text{O} = 22 \text{ g/mol}$) formulalariga ega. Formulalardan ko'rinib turibdiki yengil suv massasi 16 ga teng.



Ichimlik suvi tarkibi ham shu formulaga mos keladi.

Geografiya va tabiatshunoslik darslarida suv haqida qo'yidagi ma'lumotlar keltirilgan. Yer yuzini $\frac{3}{4}$ qimini suv tashkil etadi. Shu suvlarning atigi 0,02% ichimlik suvi. Demak ichimlik (yengil, yumshoq) suvning miqdori juda ham kam ekan. Ichimlik suvini avaylab asrash kerak. Yuz qo'lni yuvayotganda suvni tejamkorlik bilan ishlatish zarur.

8-sinf fizika va kimyo darslarida suvning tarkibidagi tuzlar va ularni xossalari haqida tushunchalar bor. Masalan: suvning qattiqligi tarkibidagi tuzlarga ko'ra 2 turga bo'linadi, vaqtinchalik qattiqlik va doimiy qattiqlik. Vaqtinchalik qattiqlik tarkibida kalsiy va magniy ionlari va karbonat, sulfat, xlorid ionlari borligi haqida tushuntiriladi. Fizika darslarida suvning qattiqligini keltirib chiqaruvchi ionlarni suv tarkibidagi miqdori milligramm hisobida keltirilgan.

11-kimyo darslarida aynan suvning qattiqligini yo'qotish usullari haqida tushunchalar keltirilgan. Masalan: suvning vaqtinchalik qattiqligini kimyoviy moddalar qo'shish va qizdirish orqali doimiy qattiqlikkacha keltirish va suvni yumshoqligini oshirish usullari keltirilgan.

Tish yuvayotganingizda tish pastasini tarkibida odatda kalsiy florid (CaF_2) miqdori ko'p bo'ladi. Kalsiy florid oq rangli yumshoq surtna kurinishdagi modda. Bu modda suvda eritilganda oq rangli eritma hosil bo'ladi. Tish pastasi tarkibidagi kalsiy florid tishning emal qismini tozalash, emal qismini zararlanishini oldini olish vazifasini bajaradi. Kalsiy florid va uning xossalari ham 11-sinf kimyo darslarida tushuntirilgan.

Nonushta vaqtida tayyorlangan choy aslida qattiq yoki g'ovak ko'rinishdagi modda. Choy suvga solinganda erib eritma rangini o'zgartiradi. Bu ham kimyoviy hodisalar alomatidan biri hisoblanadi. Nonushta uchun olingan pishloq va saryog'lar ham organik moddalardan iborat. Ular tarkibida glitserin va yuqori molekulyar karbon kislotalar mavjud bo'ladi. Bu moddalar organizmga kirganda bir qancha kimyoviy jarayonlar yuzaga keladi va natijada bizga bu organik moddalar energiya vazifasini bajaruvchi moddalarga aylanadi. Shu moddalarni tarkibi haqidagi ma'lumotlar 10-sinf organik kimyo darslarida qisqacha keltirilgan.

11-sinf kimyo darslarida choy tarkibida hosil bo'lgan eritma to'yingan, to'yinmagan va o'ta to'yingan holatlarda bo'lishi mumkinligi hamda hosil bo'lgan eritma tarkibi haqida ma'lumotlar tushuntiriladi. Bu choyni rangiga qarab ham ajratish mumkin deb o'quvchilarga ranglar orqali ham tushuntirish mumkin.

Nafas olish jarayonida organizmga kirgan havo tarkibini o'quvchilarga to'g'ri tushuntirish lozim. Masalar chuqur nafas olganda 1 litr havo organizmga kiradi deb



hisoblasak, shundan 20-21% kislorod, 78% azot va 1% qolgan gazlar aralashmasidan iborat. Havo tarkibida gaz molekullari to'xtovsiz va tartibsiz harakatda bo'ladi. Shuning uchun chang zarrachalarini havoda uchib yurishini ko'rishimiz mumkin. Havo tarkibidagi zarrachalar o'lchamiga ko'ra dag'al, chin va kolloid dispers sistemalarga ajratiladi. U ham bo'lsa bu zarrachalarning o'lchamlaridan kelib chiqadi. Dag'al dispers sistema tarkibidagi zarrachalar o'lchami 100 nm dan katta bo'lgani uchun ko'z bilan ko'rish mumkin. Chin dispers sistemada 1 nm dan kichik bo'lgani uchun oddiy ko'z bilan ham mikroskop yordamida ham ko'rib bo'lmazligi mumkin. Kolloid dispers sistema 1-100 nm gacha bo'ladi. Bu zarrachalarni mikroskop va oddiy ko'z bilan ham (ayrimlarini) ko'rish mumkin. Aynan shu kabi ma'lumotlarni 11-sinf kimyo, fizika darslaridan olish mumkin.

Hozirgi kunda xalqaro baholash dasturlariga o'quvchilarimizni tayyorlash uchun ta'lim tizimiga o'zgartirishlar kiritish lozimdir. Masalan: 5-sinfga o'tgan o'quvchilarni bilim salohiyatiga ko'ra ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish lozim. Masalan: sinflar 3 guruhga bo'lib o'qitilishi kerak.

1-guruh aniq fanlar o'qiydigan sinflar

2-guruh ijtimoiy va gumanitar fanlar o'qiydigan sinflar

3-guruh tabiiy fanlar o'qiydigan sinflar.

Bu uch guruh uchun dars jadvalida ham o'zgarishlar bo'lishi va bu dars jadvalda mavjud fanlarni, o'qitadigan o'qituvchilar ham fan ustalari bo'lishlari kerak.

1-guruh aniq fanlarga matematika, algebra, geometriya, fizika, chizmachilik, tasviriy san'at va shunga yaqin fanlar soat miqdori ham ko'proq o'tilishi kerak.

2-guruh ijtimoiy va gumanitar fanlarga ona tili, adabiyot, tarix, nutq madaniyati, ma'naviyat, odobnoma va shunga yaqin fanlar ko'proq o'tilishi kerak.

3-guruh tabiiy fanlarga fizika, kimyo, biologiya, zoologiya, odam anatomiyasi, sitologiya, tabiatshunoslik, ekalogiya, geografiya, astronomiya fanlari ko'proq o'tilishi kerak.

Agarda umumta'lim maktablarida shu guruhlar tashkil etilsa, o'quvchilar o'z layoqatlariga ko'ra fanlarni ko'proq o'qib, o'z mutaxassisligi bo'yicha OTM ga imtixon topshirib yaxshi natijalarga erishishi mumkin.

2030 yilga qadar umumta'lim maktab o'quvchilarini Xalqaro baholash tizimi TIMSS, PIRLS, PISA baholash tizimlarida O'zbekiston yoshlari qatnashib nufuzli o'rinni egallashlari O'zbekiston Respublikasi prezidenti qaror va farmonlari va Xalq ta'limi vazirlik farmonlarida keltirib o'tilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: avvalom bor umumta'lim maktab o'qituvchilari (pedagogik xodimlarni) shu tarzda dars o'tish moxoratlarini, bilim



va kunikmalarini hamda moddiy texnika bazasini oshirish kerak. Agarda shu yuqorida ko'rsatilgan ishlar amalga oshirilganda umumta'lim maktab o'quvchilari xalqaro baholash dasturlari va fanlar buyicha o'tkaziladigan olimpiadalarga bimalol qatnashib, nufuzli o'rinlarni egallashlarini mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The role of ICT in realizing education for all by 2030 Achieving Sustainable Development Goal 4. – p. 1-46. <http://www.csr-asia.com/download/ICT4SDG4Final-Version.pdf>.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 yildagi 997-son «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» farmoni

4. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash (Tabiiy yo'nalishdagi fan o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2019

5. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi «O'quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy fanlar hamda o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan topshiriqlar to'plami. 2019 yil.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O'QITUVCHILARINING MA'LUMOTLAR OMBORINI YARATISH BO'YICHA KASBIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

J.D.SAIDOV,
GulDU o'qituvchisi

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining ma'lumotlar omborini yaratish bo'yicha kasbiy kompetentligini baholash, ularga qo'yiladigan talablar, nazorat turlari va ularni tashkil etish masalalari yoritilgan. Bilimlarni mustahkamlashning innovatsion usullari va vositalari, kasbiy kompetentlikni baholash mezonlari tahlil qilingan va ularning samarasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ma'lumotlar bazasi, kasbiy kompetentlik, baholash mezonlari, nazorat turlari, bilimlarni mustahkamlash, innovatsion yondashuv, sinov shakllari, nazoratning tarbiyaviylik xususiyati.

In this article, the subject of continuing education is the assessment of the professional completeness of the data of disruption and information technology science cadet production data warehouse, their requirements, types of control and coverage of large organizational issues. Innovative methods and tools for strengthening knowledge, criteria for assessing professional competence are analyzed and the effectiveness of the link is studied.

Key words: Database, professional competence, evaluation criteria, types of control, knowledge consolidation, innovative approach, test forms, educational feature of control.

В данной статье предметом непрерывного образования является оценка профессиональной полноты данных о сбоях и информационных технологиях кадетского производственного хранилища данных, их требований, видов контроля и охвата крупных организационных вопросов. Анализируются инновационные методы и инструменты закрепления знаний, критерии оценки профессиональной компетентности, изучается эффективность связи.

Ключевые слова: база данных, профессиональная компетентность, критерии оценки, виды контроля, закрепление знаний, инновационный подход, тестовые формы, образовательная особенность контроля.

Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining ma'lumotlar omborini yaratish bo'yicha kasbiy kompetentligini shakllantirishda mutaxassislik fanlarini o'qitish va talabalarning bu fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini baholash muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni to'g'ri tashkil qilish va talabalarning fanga qiziqishlarini yanada oshirishda ba'zida to'g'ri vosita va metodlarni tanlash muammosini vujudga keltiradi.

Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari xammavaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha



yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, guruhdagi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllanganligini baholash quyidagi ko'rsatgichlar asosida amalga oshiriladi:

- Fan yuzasidan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish;
 - Ma'lumotlar omborini yaratish bo'yicha muammolarni hal qilish yo'llarini mustaqil tanlay olishi, yechimga olib keluvchi masalalarni to'g'ri qo'ya olishi, muammolarni hal qilishning samarali vositalarini tanlashi va qo'llay olishi;
 - Ma'lumotning turiga, ahamiyatiga, doldzarbligiga qarab yaratiladigan ma'lumotlar omborining turini, tuzilmasini to'g'ri tanlay olishi, uni tayyorlash bosqichlarini to'g'ri algoritmini tuza olishi;
 - Ma'lumotlarni to'g'ri saralab ularni turli qismlarga ajrata olishi;
 - Ma'lumotlar bazasi modelini mustaqil tuza olishi;
 - Mashg'ulotlarda ma'lumotlarning turi, doldzarbligi, samaradorligi va ahamiyatini hamda asosiy xossalarini e'tiborga olib ma'lumotlar omborining yangi modellarni yaratish hamda bu jarayonda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan muhokamalarda ishtirok etishga intilishi;
 - Ma'lumotlar omborini yaratish jarayonlarni loyihalashning asosiy qoidalarini, texnik va dasturiy vositalaridan to'g'ri foydalanish metodikasini amalda qullay olishi;
 - Berilgan vazifalarga ijodiy yondashib hal etishi va o'z fantaziyasiga ega bo'lishi, muammolarni hal qilishda zamonaviy dasturiy, texnik va texnologik vositalarni samarali qo'llay olishi;
 - Yangi ma'lumotlarni hal qilish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini samarali qo'llash bilan bir qatorda, mustaqil yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallay olishi;
 - O'qituvchi bergan savollarning mazmundorligi hamda kasbiy etika va etiket qoidalariga amal qilishi;
 - Mashg'ulot jarayonida o'z ishi va o'rtoqlari bajargan ishlariga baho bera olishi.
- O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun O'qituvchi talabani o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim. Nazorat - ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. aniqlash va o'lchash tekshirish deb ham ataladi. Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi O'qituvchi va talabalar o'rtasida



teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish xaqida obyektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat talabaning bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat [3].

Ma'lumotlar omborini o'qitishda bilimlarni sinashning elektron vositalaridan foydalanish talabalarning ijodiy fikrlashi va bilimlarni egallash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunday elektron vositalarni yaratuvchi zamonaviy dasturlar mavjud bo'lib, ularga Ispring, MyTest dasturlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Aralash topshiriqlarning bir turdagi topshiriqlardan afzalligi shundaki, bir turdagi topshiriqlar ko'p sonli bajarilsa zerikish yoki charchash hollari yuzaga kelishi mumkin. Aralash turdagi topshiriqlar har safar turli topshiriqlarga tayyor turish, ijodiy fikrlash va turli vaziyatlarga tayyor bo'lish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi.[4]

Og'zaki nazorat qilish va baholashning yaxshi jihatlari:

- professor-o'qituvchi talaba bilan bevosita, jonli aloqada, muloqotda bo'ladi;

- talaba bilimini chuqurroq aniqlash uchun qo'shimcha savollar berish imkoniyati tug'iladi;

- og'zaki javob talabani og'zaki nutqni mashq qilish va faol fikrlashga undaydi;

- og'zaki fikrlashda yaxshi tayyorlangan talaba o'z bilimdonligini, qo'shimcha o'rganganlarini namoyon eta oladi;

- bevosita so'rash paytida talabaning bilim o'zlashtirishi masalasida o'qituvchida ilgari tug'ilgan ayrim shubhalar bartaraf yetiladi.

Yozma baholashning yaxshi tomonlari:

- yozma tarzda berilgan javob-talaba o'quv materialini o'zlashtirib olganiga hujjatli dalil bo'ladi;

- talaba o'z fikrlarini qog'ozda ifodalashi uchun amaliyotdir. Og'zaki va yozma baholash tizimining yeng katta kamchiliklaridan biri bu talabaning bilimiga qo'yiladigan baholash subyektiv alomatlar ko'proqdir. Baho ko'pincha boshqa talabalarga nisbatan qo'yiladi, bunda baho kamaytirib yoki oshirib qo'yilishi mumkin.

Test vositalarining yaxshi tomonlari:

- yaxshi ishlab chiqilgan va tuzilgan test talabaning bilim o'zlashtirish sifati va darajasini aniq o'lchash, obektiv baholashga xizmat qilishi mumkin;

- test mavzu yuzasidan asosiy mazmunni to'liq qoplab olishi mumkin.

Test vositalarining ham o'ziga xos kamchiliklari mavjud bo'lib, ular quyidagicha: test yordamida bilimlarni sinash va baholash avvalo talabaning og'zaki nutq va yozma fikrini bayon qilishini keskin cheklab rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. Javoblarni tasodifiy belgilash orqali ular savollarga aniq javob



bermasliklari mumkin. Bunday kamchiliklarni oldini olish va bartaraf yetish ta'limni sifatli tashkil qilishning asosiy talablaridan biridir. Talabani qiziqitira biladigan savol va topshiriqlar asosida tayyorlangan nazorat topshiriqlari ularning nafaqat mavzuga, balki fanga bo'lgan qiziqishlarini ham oshirib egallayotgan bilimlari asosida kelgusi kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobat bardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, avvalo, kelgusida salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2. N.A.Muslimov, K.M. Abdullayeva, O.A.Kuysinov, N.S.Gaipova, N.N.Karimova, M.Kodirov. - Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. —T.: «Fan va texnologiya», 2013, 128 bet.

3. Y.Y.Chicherina, D.A.Nurkeldiyeva, D.B.Yakubjanova-Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma Toshkent, 2013

4. Toshtemirov D.E., Mo'minov B.B., Saidov J.D. Fundamentals Of Compilation Of Electronic Tasks For Students To Test And Strengthen Their Knowledge Of Database. International Journal of Scientific & Technology Research. 2020. <http://www.ijstr.org/paper-references.php?ref=IJSTR-0120-29952>

5. Saidov J.D. Organization of testing of knowledge on the basis of interesting and creative tasks in the process of forming professional competence of future specialists. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020. <https://www.psychosocial.com/article/PR280531/24174>



TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY TA'LIM MUHITINI YARATISHDA O'QUV – LOYIHA ISHLARINING O'RNI

Z. SANGIROVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Maqolada, zamonaviy ta'lim berishda o'quvchilarda shaxsiy intellektual – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng maqbul yo'llaridan biri bo'lgan o'quv loyiha ishlarini tashkil etishning metodologiyasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'quv loyiha ishlari, bilim, ko'nikma, kompetensiya, tadqiqotchilik faoliyati, loyiha ishlarini rejalashtirish, metodik ta'minot.

The article, discusses the methodology of organizing educational project work, which is one of the most optimal ways to develop personal intellectual and creative abilities of students in modern education.

Key words: educational project work, knowledge, skills, competence, research activity, planning of project work, methodological support.

В работе рассматривается методология организационной учебной проектной работы, которая является одним из оптимальных способов развития личностных интеллектуальных и творческих способностей учащихся в современном образовании.

Ключевые слова: учебная проектная работа, знания, умения, компетенция, исследовательская деятельность, планирование проектной работы, методическое обеспечение.

Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlarda mutaxassislardan nafaqat bilim, balki ularda izlanuvchanlik, ixtirochilik, tadbirkorlik kabi qobiliyatlarga ega bo'lishni taqozo etmoqda. Shu bois, o'quvchilarni o'quv loyiha faoliyatiga jalb qilish orqali ularda (mantiqiy, kreativ, tanqidiy) fikrlashni va izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralishi lozim.

Ta'lim samaradorligini ta'minlash keng qamrovli didaktik jarayon hisoblanadi. Ta'limni mazmunan yangilash, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya ishlarining yangi shakllarini tashkil etish va amalga oshirish jihatidan ham o'zining mantiqiy asosiga ega bo'lgan psixologik-pedagogik, falsafiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan, uslubiy yechimini topishi lozim bo'lgan muammo sifatida qaraladi.

O'quv tadqiqotchilik faoliyati – ta'lim texnologiyasi bo'lib, u o'quv tadqiqotda vosita sifatida qo'llaniladi. Tadqiqotchilik faoliyati, tadqiqot ishining rahbari – mutaxassis o'qituvchi rahbarligida, atrof – olam hodisalari to'g'risidagi tasavvurlarini yaratishga qaratilgan, shuningdek, oldindan yechimi noma'lum bo'lgan masala o'quvchilar tomonidan yechilishi mumkin deb faraz qiladi. O'quv-tadqiqot ishi – ta'limdagi jarayon bo'lib, u tadqiqotchilik faoliyati asosida amalga oshiriladi [2].

Umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, ilg'or xorijiy tajribalar asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va



intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash kabi masalalarni nazarga tutgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 5-martdagi 67-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "Milliy o'quv dasturi" amaliyotga joriy etish arafasida va uning amaldagi o'quv dasturidan farqli jihatlari:

- fizika fanidan o'quv dasturida o'quvchilarga qo'yiladigan malaka talablari sinflar kesimida belgilangan;

- o'quvchilarning nazariy olgan bilimlarini hayotda qo'llash, xalqaro baholash standartlariga mos keluvchi topshiriqlar bilan ishlash uchun kichik loyiha ishlariga alohida soatlar ajratilgan;

- fanlararo uzviyligi ta'minlanilgan;

- spiralsimon (oddiydan murakkabga) o'qitishga yo'naltirilgan.

Mazkur o'quv dasturi ta'lim samaradorligining metodologik asosi bo'lgan o'quv muassasalarida beriladigan tizimli ta'limni mustaqil bilim olishga yaqinlashtirish, o'quvchilarning izlanuvchanligiga tayangan holda ularda ilm olish qobiliyatini rivojlantirish, ta'limga nisbatan tizimli nazariy va amaliy yondashuvlarni amalga oshirib borishni nazarda tutadi.

Eng avvalo ta'lim sohasiga taqdim qilinayotgan mazkur xujjatning g'oyasida quyidagi talablar aks etgan, *birinchidan*, o'quv dasturida berilayotgan o'quv loyiha, o'quv amaliy mashg'ulot tavsifidagi va o'quv-tadqiqot ishlarining qo'yilishida o'quvchining yoshi va ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olinganligi, *ikkinchidan*, o'quv-loyiha, o'quv amaliy mashg'ulot va o'quv-tadqiqot ishlarining qo'yilishi darsda o'tilayotgan mavzular bilan uzviyligi, *uchinchidan*, o'quvchilar tomonidan loyiha va o'quv-tadqiqot ishlari bajarilishi ta'limga sifatli (intellektual mahsulot, kompetensiyalarni egallash) natijalari bilan kafolatlanishi lozimligi uqtililgan.

O'quv loyiha yoki o'quv-tadqiqot ishlarining bajarilish jarayoni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro bog'liqligi ta'minlangan tartibli va mantiqiy ketma-ketligi, o'qitish jarayonining bosh vazifalaridan bo'lgan – ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalariga amal qilishni ta'minlaydi.

Fanni tadqiqot sifatida o'rgatish o'quvchilar o'quv-tadqiqotdagi ilmiy dalillarni va natijalarni taqdim etish bilan cheklanib qolmasdan, ular kundalik hayotida jamiyat va atrof muhit bilan bog'liq muammolarga o'z fikrini bildirish; kuzatishlar asosida dalillarni to'plash va ulardan foydalanishda faol ishtirok etish; ilmiy bilimlarga asoslanib tushuntira olish kabi ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim.

O'quvchilarga fundamental ilmiy tushunchalar va nazariyalarni o'rgatish, shuningdek, o'quv-tadqiqotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyat va munosabatlarni rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilarda o'quv amaliy va ilmiy xabardorlik kompetensiyalarini shakllantirishda o'quv-loyiha, o'quv-tadqiqot va o'quv amaliy mashg'ulotlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mazkur dastur asosida dastlabki umumta'lim muassasalari uchun "Tabiiy fanlar" (1- sinf o'quvchilari uchun) yaratilgan



darslikning barcha boblarida bolalarning yoshi va ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olinib, masalan, 8-bobda, ya'ni Issiqlik, Yorug'lik va Tovush mavzulariga oid o'quv materiallari tanlanilgan. Shuningdek, har bir mavzuga oid kichik tadqiqot ishi yoki kichik o'quv-loyiha ishi darslikda o'z aksini topgan. Darslik mazmunida o'quv jarayonida o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar hamda kompetensiyalarning shakllanishi nazarda tutilgan. O'quvchi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar hamda kompetensiyalarning tarkibiy qismlari 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

YoRUG'LIK VA ISSIQLIK		
So'rov savollari - Yorug'lik nima? Issiqlik nima? - Tabiatda qanday yorug'lik va issiqlik hodisalarini bilasiz? - Yorug'lik va issiqlik qanday manbalari mavjud?		
Quyidagilar o'rganiladi	Taklif qilingan mashg'ulotlarida	o'quv
O'quvchilar tabiatda yorug'lik va issiqlik hodisalarini haqida bilish uchun kuzatuvlar olib borish mumkinligini bilib oladilar. O'quvchilar yorug'lik va issiqlik manbalarini bilib oladilar va ularga oid misollar keltiradilar. Yorug'lik va issiqlikning tirik organizmlar(inson, o'simlik va hayvonlar) uchun zarur ekanligini o'rganadilar.	Amaliy faoliyat Tabiatda issiqlik va yorug'lik hodisalarini qanday bilishlari haqida gapirib beradi. Atrofdagi va sinf xonasidagi yorug'lik va issiqlik manbalarini ajratib beradi.	
	Loyiha ishi Yorug'lik va issiqlik hodisalariga oid kichik tadqiqot ishlarini o'tkazadi. Kichik tadqiqot ishida yorug'lik ta'sirida jismlarning qizishi o'rganiladi va xulosalar qilinadi.	
O'rganish natijalari		
Bilim	Ko'nikmalar	Munosabat va qadriyatlar
• Tabiatda issiqlik va yorug'lik hodisalarining muhimligini tushuntiring. • Issiqlik va yorug'lik hodisalariga misollar keltiring. • Issiqlik va yorug'lik manbalarini farqini anglaydi.	• Tabiatda issiqlik va yorug'lik hodisalariga oid kuzatishlar o'tkazishni namoyish qiladi. • Issiqlik va yorug'lik hodisalariga bilishini misollarda namoyish qiladi. • Tabiatda issiqlik va yorug'lik hodisalarida atrof muhitga ta'sirini xulosa qiladi.	• Atrofdagi hodisalariga qiziquvchanlikni nomoyon qilish. • Tabiatda issiqlik va yorug'lik hodisalarining ahamiyatini anglash. • Issiqlik va yorug'lik manbalarining zararli ta'sirlardan himoyalash.

Компетенсиалар:**Ilmiy xabardorlik kompetensiylari:**

- yorug'lik va issiqlik manbalarini ajrata oladi;
- tabiatda yorug'lik va issiqlik hodisalarini oid savollarni bera oladi;
- tabiatda yorug'lik va issiqlik tovush hodisalarini o'rganish uchun kuzatish muhim ekanligini biladi;

Amaliy kompetensiylar:

- tabiatda yorug'lik va issiqlik hodisalarini oid kuzatish ishlarini amalga oshira oladi;
- issiqlik hodisalarini oid kuzatish ishlarida o'ltirish ishlarini amalga oshira oladi;
- tabiatda yorug'lik va issiqlik hodisalariga oid savollarga javob berishni rejalashtira oladi;
- o'rtoqlari bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi;

Pedagogning ta'lim jarayonida o'quv loyiha yoki o'quv-tadqiqot ishlarini tashkil etish orqali fan asoslarni o'rganishga alohida urg'u berishi hamda o'quv mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishi, muammoni qo'yish asosida o'quvchilarni muammoni hal etishga dalillarni qidirishga yo'naltirishi va olingan ma'lumotlarni qayta ishlashi uchun zarur bo'lgan elementlarni kiritilishi o'quvchilarda fanga oid bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishga, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllanishiga imkon beradi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlab aytish joizki, zamonaviy ta'lim berishda o'quvchilarda shaxsiy intellektual – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng maqbul yo'llaridan biri, ularni o'quv-loyiha hamda o'quv-tadqiqot faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etishdan iborat. Shuning uchun ham bu faoliyat ta'lim jarayonining muhim ajralmas qismi hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Разумовский В.Г. Ўқувчиларда ижодий қобилиятларни ўстириш. –Тошкент Ўқитувчи, 1978. - 286 б.
2. Савенков А.И. Исследовательское обучение и проектирование в современном образовании // Исследовательская работа школьников. –М., 2004. –№1. – С. 22 –32.
3. Леонтович А.В. Об основных понятиях концепции развития исследовательской и проектной деятельности учащихся // Исследовательская работа школьников. – 2003. – №4. – С.12-17.
4. Chiappetta E.L., Koballa T., Collette A. T. // Handbook of Science Teaching in Secondary Schools. Upper Saddle River, NJ: Merrill. Prentice Hall, – 2002.
5. Нарзиева Н.Н. Умумтаълим мактаб ўқувчиларида таянч компетенциялар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, СамДУ, – 2019. - 21 б.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA UMUMIY FIZIKANING «ATOM, YADRO VA ELEMENTAR ZARRALAR FIZIKASI» BO'LIMINI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI

L. Q. SAMANDAROV,

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida umumiy fizika kursining «Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi» bo'imini o'qitishning hozirgi holati tahlil etilgan. Atom va yadro fizikasi bo'yicha amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq muammolar hamda ularning ilmiy-uslubiy yechimlari bo'yicha mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Umumiy fizika, atom, yadro, elementar zarralar, uzluksiz ta'lim, o'qitish, ta'lim samaradorligi, fan dasturlari, muammolar, yechimlar.

В данной статье проанализировано современное состояние преподавания раздела «физика атома, ядра и элементарных частиц» курса общей физики в системе непрерывного образования. Выявлены проблемы, связанные со специфическими аспектами практических и лабораторных занятий по атомной и ядерной физике. Излагаются некоторые соображения по научно-методическому решению выявленных проблем.

Ключевые слова: Общая физика, атом, ядро, элементарные частицы, непрерывное образование, обучение, эффективность обучения, учебные программы, проблемы, решения.

This article analyzes the current state of teaching the section "physics of the atom, nucleus and elementary particles" of the general physics course in the system of continuing education. Problems related to specific aspects of practical and laboratory classes in atomic and nuclear physics are identified. Some considerations on the scientific and methodological solution of the identified problems are presented.

Key words: General physics, atom, nucleus, elementary particles, continuing education, training, learning efficiency, training programs, problems, solutions.

Fan, texnika va texnologiya jadal rivojlanayotgan davrda ishlab chiqarish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. Kadrlar tayyorlash masalasining asosiy poydevori sifatida esa umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim jarayoni yotadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi"[1]. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga mas'ul bo'lgan pedagogika oliy ta'lim muassasalari zimmasiga ham yuqori mas'uliyat yuklaydi.

Pedagogika institutlarida tayyorlanadigan ixtisosliklar orasida "Fizika va



astronomiya o'qitish metodikasi" yo'nalishi alohida o'rin tutadi, chunki ko'plab texnik yo'nalishlarning, umuman olganda jamiyat taraqqiyotining fundamental asosi bo'lib hisoblangan fizika fani ham jahon miqyosida jadal rivojlanmoqda. Bu fanning fundamental tadqiqotlarida koinot, yulduzlar, gallaktikalardan tortib to mikroolam tuzilishigacha bo'lgan hodisalar va ularning qonuniyatlari o'rganilib, amaliy jihatdan bu qonuniyatlar asosida yangi texnologiyalar, sifat jihatdan odatdagi materiallardan keskin farqlanuvchi nanomateriallar olishning yangi usullari kabi yo'nalishlar jadal rivojlanmoqda. Bu sohada chet el investitsiyalari asosida qurilgan korxonalarning hissasi ham ortib bormoqda. Bu korxonalarning stabil ishlashi esa pirovard natijada uzluksiz elektr ta'minotiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash an'anaviy va noan'anaviy energiya olish usullari orqali amalga oshiriladi. Organik yoqilg'ilar zahirasining yildan-yilga kamayib borayotganligi, hamda noan'anaviy energiya olish usullari hisobiga energiya ehtiyojining 10-15% igina qoplanishini hisobga olgan holda kelajakda elektr energiyasi olishning asosiy usuli sifatida atom energiyasidan foydalanish qaralmoqda. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda butun dunyoda bu soha jadal rivojlanmoqda. Yadro energetikasidan foydalanishning istiqboli ko'p jihatdan shu soha uchun yetuk mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Kadrlar tayyorlash masalasi esa qisqa muddatda amalga oshadigan masala emas va bu sohadagi ishlar uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichlaridan boshlab maqsadli, rejali yondashuvni talab etadi.

Bu rejalarini amalga oshirish uchun ishni albatta quyi bosqichlardan, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablaridan boshlash kerak. Chunki, yuqorida ta'kidlanganidek yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning asosi umumiy o'rta ta'lim maktablarida shakllanadi. Shuning uchun umumiy fizika kursining boshqa bo'limlari bilan bir qatorda "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limini o'rganishga ham jiddiy e'tibor qaratilishi lozim. Atom va yadro fizikasi fanlarini o'qitishning hozirgi kundagi holatini o'rganish maqsadida uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari fizika fan dasturlari, dasturlardagi umumiy fizikaning "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limi uchun ajratilgan soatlar hajmi va mazmuni tahlil etildi. Uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlari bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari (UM)[2], ixtisoslashgan maktablar (IM)[3], kasb-hunar maktablari (KHM)[5], akademik litseylar (AL)[4] va pedagogika oliy ta'lim muassasalari (OTM)[6] da bu bo'limni o'rganish uchun ajratilgan soatlar hajmi hamda ularning umumiy fizikani o'qitishga ajratilgan soatlarga nisbatan foizlardagi ulushi UM-12/408 (3%), IM-18/578 (3,1%), KHM - 26/180 (26%), AL- 56/598 (9%), OTM-300/1020 (29%) ni tashkil etadi.




Ushbu ma'lumotlar 2020/21 o'quv yili uchun tegishli bosqichlardagi umumiy fizika fan dasturi asosida olingan[6]. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limini o'qitish uchun ajratilgan soatlar ulushi juda kam, chunki umumiy fizika kursi 5 ta bo'limdan iborat ekanligini hisobga olsak, har bir bo'lim uchun kamida 20% soat ajratilishi lozim edi. Bundan tashqari ma'lum bir bo'limlarni qisqartirish hisobiga "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limi bo'yicha dolzarb mavzular soatini oshirish ham mumkin.

№	Ajratilgan soatlar	Umumiy fizika	Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi					Foizlardagi ulushi
			Jami	Nazariy mashg'ulotlar	Amaliy mashg'ulotlar	Laboratoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ishlar	
	O'quv yillari							
1	2014/15	1230	160	16+16=32	14+14=28	20+20=40	30+30=60	13%
2	2015/16	1316	376	24+38=62	30+38=68	36+48=84	68+90=158	28,5%
3	2016/17	1316	348	28+38=66	24+40=64	28+48=76	56+90=146	26%
4	2017/18	1346	442	34+46=80	36+44=80	44+58=102	80+100=180	33%
5	2018/19	920	180	32	36	36	76	20%
6	2019/20	920	180	32	36	36	76	20%
7	2020/21	1050	300	30+20=50	32+22=54	24+14=38	92+66=158	~29%

OTM da "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limi uchun ajratilgan soatlarning yillar kesimida o'zgarishi

Atom yadro va elementar zarralar fizikasiga ajratilgan soatlar yillar bo'yicha taqsimlanishi

2-jadval



1-rasm. 2014-2021 yillarda umumiy fizika va "Atom yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limiga ajratilgan soatlarning yillar kesimida taqsimlanishi.

"Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limining pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qitilish holati yillar kesimida 2-jadvalda va 1-rasmdagi grafikda



keltirilgan. Bu ma'lumotlarga ko'ra, yillarda "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limi uchun ajratilgan soatlar ulushi 13% dan 33% gacha ortib borganligini ko'ramiz. Bu o'sishni shu davrda respublikamizda atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish bo'yicha bo'layotgan o'zgarishlar ta'siri deb qarash mumkin. Lekin 2018/19 o'quv yilida umumiy fizika kursi uchun ajratilgan soatlar, shu jumladan, "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limini o'qitish soatlari ham 2017/18 o'quv yilidagiga nisbatan keskin qisqargan. Bunda umumiy fizika kursi soatlari oldingi yillarga nisbatan ~32% ga, shuningdek, "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limi uchun ajratilgan soatlar esa ~60% qisqarganligini ko'ramiz.

Atom energiyasidan foydalanish butun dunyoda jadal rivojlanayotgan va O'zbekiston Respublikasida ham atom elektr stansiyasi qurilishi bilan bog'liq holda yadro fizikasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratilayotgan hozirgi davrda bu holatni qanday izohlash mumkin? Masalan, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasida Rossiyaning "Rosatom" kompaniyasi bilan hamkorlikda har biri quvvatli ikkita atom energobloki qurish bo'yicha bitim imzolandi. Dastlabki baholashlarga ko'ra, 2021-2030-yillarda ishga tushirilishi rejalashtirilayotgan bu muhim strategik obyekt VVER-1200/392M 3+ tipidagi zamonaviy atom elektr stansiyasi respublikada elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojning ~25% ni qoplashi va loyihaning turli yo'nalishlarida 4000 dan ortiq mutaxassis kadrlar ishlashi kerak. Shu maqsadda maxsus kadrlar tayyorlash dasturi ishlab chiqildi va uning asosida 2018-yildan boshlab Milliy yadro tadqiqotlari universitetining Moskva muhandislik fizikasi instituti (MMFI) ga "Yadro fizikasi va texnologiyalari", "Yadro energetikasi va issiqlik texnikasi" va boshqa mutaxassisliklar bo'yicha bakalavuriat va magistratura yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilindi. Shuningdek, bu institutning Toshkent filiali tashkil etildi. O'zMU va SamDU kabi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida "Yadro fizikasi va texnologiyalari", "Yadro fizikasi va tezlatkichlar fizikasi", "Radiatsion ekologiya" kabi mutaxassisliklar bo'yicha magistratura bosqichiga qabul yo'lga qo'yildi.

Bizning fikrimizcha, "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limi bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasi faqatgina O'zMU, SamDU singari markaziy universitetlarga taalluqli deb qarash maqsadga muvofiq emas, chunki iqtidorli, bilim olishga qiziquvchi yoshlar har bir ta'lim dargohida mavjud va fan o'qituvchisining asosiy vazifasi ularni topish va bu yoshlarga to'g'ri yo'nalish berishdan iboratdir. Shu o'rinda 2018-yilda Navoiy davlat pedagogika instituti (NavDPI) va Navoiy davlat konchilik instituti (NDKI) dan 3 nafar talaba MMFI ning magistratura bosqichiga qabul jarayoni uchun o'tkazilgan tanlovda g'olib bo'lishib, 2020-yilda imtiyozli diplom bilan ushbu o'quv yurtini tamomlab, hozirgi kunda UzATOM agentligida, MMFI ning Toshkent filialida, Yadro fizikasi institutida faoliyat yuritayotganligini, shuningdek, 2021-yilda NavDPIning 2 nafar bitiruvchisi MMFI ning magistraturasiga o'qishga kirganligini e'tiborga olsak, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ham "Atom, yadro va elementar



zarralar fizikasi" bo'limi uchun ajratilgan soatlar hajmini o'ttirish masalasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limini o'qitishdagi muammolardan biri bu yo'nalishdagi laboratoriya jihozlarining kamligidir. Hozirgi kunda oliy ta'limning moddiy texnika ta'minoti Germaniyaning "LD didactic GmbH" kompaniyasi laboratoriya jihozlari majmuasi bilan ancha boyitilgan bo'lsada, bu majmuada "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" iga tegishli faqatgina bitta laboratoriya ishi mavjud.

Navoiy davlat pedagogika institutida yadro fizikasi bo'yicha laboratoriya ishlari kamligini kompensatsiyalash maqsadida virtual laboratoriya ishlardan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Ushbu virtual laboratoriya ishlari maksimal darajada real eksperimentga yaqinlashtirilgan bo'lib, talabalarda laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirishgagina xizmat qila oladi[7].

Xulosa qilib aytganda hozirgi kun talablarini hisobga olganda umumiy fizika kursining "Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi" bo'limini o'qitish masalasi, yadro energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish kabi insoniyat oldida turgan global muammolardan biri bo'lgan energiya tanqisligi muammosini hal etishning asosiy bo'g'inlaridan biridir. Atom energiyasidan foydalanish murakkab texnika va texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi va kun tartibiga shu texnik jihozlar bilan ishlashni va texnologiyalarni mukammal o'zlashtirgan muhandis kadrlar tayyorlash masalasini ham qo'yadi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, bu vazifaning mukammal yechimi esa o'z navbatida ko'p jihatdan yetuk pedagogik kadrlar tayyorlash masalasini qanday hal qilinishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: 29.12.2020 y. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun. "Fizika" fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan "O'quv dasturi" 2020-2021-o'quv yili.
3. Ixtisoslashgan maktablar uchun. Fizika" fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan "O'quv dasturi" 2020-2021-o'quv yili.
4. Akademik litsey "Aniq fanlar texnika yo'nalishi" uchun ishchi o'quv fan dasturi 2019-2020-o'quv yili.
5. Kasb-hunar maktablari Fan dasturi 2020 yil.
6. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun Umumiy fizika fanidan Fan dasturi 2019 yil.
7. Т.Б.Петрик и др. Лабораторный практикум по физике. Т -2. УПИ-УГТУ. Екатеринбург. 2009 г.



SINERGETIKANI TA'LIMDAGI O'RNI

**SH.M.KAMOLXO'JAYEV,
TDTU**

Ushbu maqolada sinergetika tarixi va uni ta'limga qo'llash muammolari qarab chiqilgan.

В данной статье рассматривается история возникновения синергетики и ее место в образовании.

This article examines the history of the emergence of synergetic and its place in education.

XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan sinergetika har qanday ilmiy yo'nalish kabi osmondan tushib qolgani yo'q. Unga tabiatshunoslikning ko'pgina bo'limlari vorisi va davomchisi tarzida (maydonga chiqdi) qaramoqlik kerak: bunga birinchi navbatda tebranishlar nazariyasi va differensial tenglamalarni sifat nazariyasi kiradi. Ayni paytda tebranishlar nazariyasi uning "tili" bilan oxir-oqibatda "nochiziqli fikrlash"i bilan birgalikda sinergetika uchun fanni prototipi bo'lgan holda turli tabiat tizimlari modellarini qurib berish bilan shug'ullanuvchi, fanning turli sohalariga xizmat ko'rsatuvchilar, differensial tenglamalarni sifat nazariyasi ixtirochisi Anri Puankare asarlarida boshlangan, keyinchalik undan o'sib chiqqan dinamik tizimlarning zamonaviy umumiy nazariyasi sinergetikaning ko'p qismini matematik apparat bilan qurollantirgan.[2,1]

Qo'yilgan muammolarni yechish zarurati va imkoniyatiga ko'ra, sinergetika zamonaviy fanlar orasida asosiy o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Keyingi paytlarda fanlararo yo'nalishlarga qiziqish keskin va shiddat va shijoat bilan ortib ketdi. Sinergetikaga bag'ishlangan monografiyalar, darsliklar, yuzlab maqolalar, nufuzli jurnallarda nashr etilmoqda. Shu sohaga bag'ishlangan ko'plab xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda.[2,3]

Sinergetikaning ta'limdagi roli ikkiyoqlama. Ta'limga sinergetik yondashishlar haqida gap borganda uni o'qitish va tarbiya jarayonining sinergetik usullarda tashkil etilishda sinergetik bilimlarni uzatish va tarqatish yo'li bilan sinergetika orqali ta'lim metodi tarzida maydonga chiqsa, ikkinchi holda uning mazmuni tarzida maydonga chiqadi.[3,2]

Suqrot ta'limotiga ko'ra, tarbiyaning oliy maqsadi shundan iboratki, eng avvalo, odamlar o'zlarining qalblarini davolashlari zarur. Qalbni ortiqcha axborotdan, yolg'ondaki qadrlashlardan, ommaviy ongni bir xillikdan qutuldirish kerak, shunda o'zini o'zi "ochilish", o'zini o'zi realizatsiya qilishi uchun maydon ochiladi. Shunda shaxs o'zi o'ylagandan ko'proq kreativlik va konstruktivlik sari imkoniyati kengayadi. Shu bois eng oliy maqsad, qalbni uyg'otish, unga ijodda



va hayotda o'z yo'lini topishiga ko'maklashishga yo'l ochiladi.[3,4] Ta'limda eng muhimi, bu metodga, bilish san'atiga va hayotga o'rgatish.[4]

Ta'lim berish bu bilimni estafeta tayoqchasidek bir qo'ldan ikkinchisiga uzatilgan tayoqcha emas, balki bilim olishga sharoit tug'dirilishi tufayli bilim olishga imkon tug'ilishi bilanoq ta'lim oluvchining o'zini faol ishtiroki tufayli uni maxsuldor ijodi boshlanadi. Bu ochiq dialogning nochiqlik vaziyatga to'g'ri va teskari aloqa, ta'limning xamkorlikni yuzaga kelishi muammoviy vaziyatlarni yechish natijasida xuddi o'zaro muvofiqlashishi olamni xuddi o'z-o'zidek sur'at (temp) olarni yuzaga keladi. Buning ma'nosi shuki, shunday sharoit vujudga keladiki, birgalikdagi faollik o'qituvchi va ukuvchi birday tezlikda funksiyalana boshlaydi, bir xil sur'atda yashaydi. O'qituvchi muammoni shunday qo'yadiki, ular izlanishni, tadqiqotni birgalikda boshlaydilar, o'quvchi yashash sirlaridan xayratlansin va olamni bilishni, o'rganishni poyoni yo'qligiga ishonch hosil qiladi.[4,5] Ta'limga sinergetik yondashuvni bu rag'batlantiruvchi yoki uyg'otuvchi ta'lim, o'qituvchi qalbini ochuvchi o'zini o'zi bilan va boshqa bilan hamkorlik qiluvchi ta'lim. Bunday ta'limga konstruktivizm va sinergetika nuqtai nazaridan yangicha yondashishni Ye.N.Knyazova va S.P.Kurdyumovlar uyg'otuvchi ta'lim deb ataganlar.[4] Demak ta'limni olayotgan bilan ta'lim beruvchi, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi aloqa usuli, bu ularni o'zaro siklik determinatsiyasi va ularni o'zaro konstruksiyalanishining tiklanishi va rivojlanishidan iborat. [4]

Sinergetik nuqtai nazardan ta'lim berish tartibi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchini o'qituvchi va o'quvchini bog'lanish usuli – bu fikrni o'zaro siklik determinatsiyasi ularni o'zaro konstruksiyalanishi, tiklanishi va rivojlanishdan iborat. [4]

Suqroti fikricha ta'lim olishni mazmuni shundaki avvalo qalbni davolash kerak. Qalbni kerak bo'lmagan axborotdan tozalash, o'tkinchi shunchaki yolg'on qadriyatlardan qutilib o'z o'zidan ochilib, o'z o'ziga realizatsiya qilish uchun maydon ochilishi kerak. Shundan so'ng qalb potentsiali uni kreativ va konstruktiv imkoniyati biz o'ylaganimizdan ham ko'proq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchini muhim vazifasi shunday jarayonki u o'quvchini qalbini uyg'otish. Qalbni uyg'otish uchun o'qituvchi o'quvchini shaxsiy hayoti va ijodda o'z yo'lini topishiga ko'maklashishi kerak.[4]

Muammoning asosi shundan iboratki, qanday qilib boshqarmasdan boshqarish mumkin, qanday qilib tizimga kichik rezonans ta'sir ko'rsatib tizimni odam uchun xususiy va ma'qul rivojlanish yo'llaridan biriga o'tkazish mumkin, qanday qilib o'z-o'zicha boshqariladigan va o'z-o'zicha madad beradigan rivojlanishni ta'minlash mumkin. Muammo yana shundaki, qanday qilib xaosni yengmay turib, u yengish, uni esa yoqimli, ijodiy, qanday qilib o'zidan innovatsiya uchqunini tarqatuvchi maydonga aylantirish mumkin. Ta'limga sinergetik yondashish shundan iboratki, qiziqtiruvchi yoki uyg'onuvchi ta'lim bo'lib, o'zining bag'rini o'quvchiga ochib beruvchi ta'lim tarzida o'zini o'zi bilan va boshqa

odamlar bilan hamkorlikda ta'lim olishga qaratilgan.[5,4]

Sinergetika ekspansiyasi nafaqat fanning turli sohalarini qamrab oladi, balki u inson faoliyati sohasiga singib alohida tavsifga ega bo'lgan sohalarini juda erkin va kengaygancha tahlil qila boshladi.[2] Shuning uchun sinergetikaning ta'limdagi roli qanday ekanligini ko'rib chiqaylik. Voqealarni (tarqatish) yoyilishi sur'atining almashinishi va sifati o'zgarishi, murakkab tizimlarda fazaviy o'tishlar jamiyat kelajagi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yoshlarning ta'lim tizimi va tarbiyasi bilan belgilanadi. Sinergetik prinsipga asoslangan ta'lim eng samarali va shaxs qobiliyatini har tomonlama ochish ehtiyojiga va uzluksiz ta'lim olish usullari ehtiyojiga javob berdi. Jamiyat kelajagini ko'p jihatdan yosh avlodning ta'lim va tarbiya tizimi belgilaydi. Bunda o'z-o'zicha tashkillanish eng asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. O'z-o'zicha tashkillanish paradigmasi yoki sinergetik paradigma ta'lim aspekti tarzida qaraydigan bo'lsak, u mustaqil ta'limning xuddi o'zi. [3] Sinergetikacha fikrlashga o'rgatish deganda, nochizlik fikrlash, alternativlarda fikrlash degani, voqealarni (tarqatish) yoyilish texnika almashinishi va sifatining o'zgarishi murakkab tizimlarda fazaviy o'tishlar yuz beradi.[3,5] Jamiyatning keyingi muvaffiqiyati ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yoshlarni ta'lim tizimi va tarbiyasi bilan belgilanadi. Sinergetika prinsipiga asoslangan ta'lim eng samarali va shaxs qobiliyatining har tomonlama ochilishi ehtiyojiga va uzluksiz ta'lim olish metod va usullariga ehtiyojiga javob beradi.[2,3] Demak, sinergetika asosida qurilgan ta'lim shaxs qobiliyatining har tomonlama ochilishiga bo'lgan ehtiyojini samarali va uzluksiz mustaqil o'qib, bilim olish usuliga mos keladi.[4]

Foydalangan adabiyotlar:

1. Камолхужаев Ш.М, Рисбоев А.С, Хайдарова Н.Ш, Жураев Ш.Х. “Хозирги замон табиий фанлар концепцияси”- Тошкент Тафаккур нашриёти 2013.288 бет.
2. Боксанский О.Е, Гнатик Е.Н, Кучер Е.Н, М: «Современные когнитивные концепции»издательство ЛКИ 2008, стр 224.
3. Гарбачев В.З «Концепсин современного естествознания» - М: издательство «Мир и Образование» 2008, стр 704.
4. Князева Е.Н, Курдюмов «Основания синергетики». М: издательство Ком Книга 2007 -232 стр.
5. Камолхужаев Ш.М, «Табиатшунослик асослари» Тошкент Молия нашриёти. 2002 - 332 бет.



ISTE'DODLI VA IQTIDORLI TALABA-YOSHLARNI TADQIQOT ISHLARIGA YO'NALTIRISH FAN VA ISHLAB CHIQUARISH RIVOJINING MUHIM OMILIDIR

B. NAZAROVA,

Sirdaryo Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi direktori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Oliy ta'limda ikki bosqichli tizimning joriy etilishi, mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashning yo'lga qo'yilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning amaldagi tatbiqi hisoblanadi. Bunda iqtidorli mutaxassislarni davlat, jamiyat, fan va ishlab chiqarish talablari asosida tayyorlash nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Talabalar orasidan iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish va maqsadli tayyorlash, ularning ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyat, fan va ishlab chiqarishdagi dolzarb masalalarni yechishga undash, O'zbekiston davlati va jamiyatining intellektual hamda ilmiy quvvatini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: *Iste'dodli va iqtidorli talaba-yoshlar; ta'lim tizimi, o'quv jarayoni, fan va ishlab chiqarish, kreativ yondashuv, iste'dod va kreativ salohiyatga ega bo'lgan talaba-yoshlar; iste'dodli va iqtidorli talaba-yoshlarni maqsadli tayyorlash, iqtidorli talabalar tanlovi.*

The introduction of a two-stage system in higher education, the establishment of Personnel Training in specialties is the current implementation of the «national program of Personnel Training». The preparation of qualified specialists on the basis of State, Society, Science and production requirements is of great importance. It is carried out for the purpose of seeking and purposeful training of talented and talented young people among the students, development of their scientific research skills, motivation to solve topical issues in society, science and production, development of scientific and cultural capacity of the state and Society of Uzbekistan.

Key words: *talented and talented students-youth, educational system, educational process, Science and production, creative approach, student-youth with talent and creative potential, purposeful training of talented and talented students-youth, selection of talented students.*

Iste'dodli va iqtidorli talaba-yoshlarni aniqlash, tanlash, ular bilan alohida ishlash va yoshlarning kreativ yondashuvi asosida ilmiy tadqiqot ishlarini samarali olib borishga yo'naltirish jarayoni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yildagi 137-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan **“Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlash to'g'risida Nizom”** hamda ushbu nizomdan kelib chiqib ta'lim muassasasida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etiladi. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

– iste'dodli va iqtidorli talaba-yoshlarni izlash, aniqlash, kashf qilish;



– iste’dodli va iqtidorli talaba-yoshlarni maqsadli tayyorlash orqali ulardagi ichki intellekt va salohiyatni ro’yobga chiqarish;

– alohida ilmiy iste’dod va kreativ salohiyatga ega bo‘lgan talaba-yoshlarni maqsadli tarzda ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish;

– talaba-yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ilmiy va metodik manbalar hajmini kengaytirish;

– iste’dodli va iqtidorli talaba-yoshlarning ilmiy intilishlari, kreativ izlanuvchanlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish.

Iste’dodli va iqtidorli talaba-yoshlarni aniqlash hamda tanlash ishlarini quyidagi tartibda amalga oshirishni tavsiya etish mumkin:

– iqtidorli talabalar tanlovini o‘quv yilining oxirida, asosan 1-2 kurslar talabalari o‘rtasida, qiziqishlari va istaklari bo‘lgan hollarda 3-kurs talabalari ham jalb etilgan tarzda o‘tkazish;

– ilmiy qiziqish va mayllarini nazarda tutib, 2-kursdanoq iqtidorli talabalarni qiziqarli va dolzarb mavzu asosida ilmiy tadqiqot ishlariga va izlanishlarni amalga oshirishga yo‘naltirish;

– ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etiladigan iste’dodli va iqtidorli talaba-yoshlarni aniqlash, tanlash mezonlari hamda me‘yorlarini ishlab chiqish;

– talaba-yoshlarning ijodiy ishlarga layoqatini o‘rganish va baholash, maxsus tayyorlangan test sinovlari, amaliy va nazariy topshiriqlarni bajartirish asosida ularni yosh olimlar kengashi a‘zolariga taklif etishni yo‘lga qo‘yish;

– iqtidorli talabalar tanlovini tashkil etish va o‘tkazish;

– iste’dodli, iqtidorli talaba-yoshlarning salohiyati va intellektual imkoniyatlarini pedagogik va psixologik tadqiqot usullari yordamida aniqlash.

Maxsus tanlovlar asosida aniqlangan va saralab olingan iste’dodli, iqtidorli talaba-yoshlar bilan olib boriladigan ilmiy-ijodiy ishlarni quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

– talabalarni tajribali mutaxassislar ilmiy rahbarligida kafedraning bosh ilmiy tadqiqot muammosi doirasida qiziqarli va dolzarb ilmiy mavzuda tadqiqot ishlari olib borishga jalb etish;

– talabalarga tanlangan ilmiy mavzuga oid tadqiqot ishlarini tashkil etish va rejalashtirishni o‘rgatish, ularda amaliy va tajriba-sinov ishlarining dastlabki xulosalari asosida ilmiy maqola va ma‘ruzalar tayyorlash malakasini shakllantirish;

– ularni yosh olimlar maktablari, ilmiy jamoalar, shuningdek, ilmiy



laboratoriyalar faoliyati orqali bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish;

- talaba-yoshlarga chet tillari, axborot texnologiyalari, O‘zbekiston tarixi va Prezident asarlarini chuqur o‘rgatish bo‘yicha maxsus reja va dastur asosida o‘quv kurslarini tashkil etish;

- ularni oliy o‘quv yurtlaridagi, respublika va xalqaro musobaqalar (olimpiadalar, tanlovlar, anjumanlar va boshqalar)da ishtirok etishga tayyorlash va qatnashishlarini ta’minlash;

- talaba-yoshlarni malaka oshirish uchun rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim muassasalariga o‘qish hamda ilmiy xizmat safarlariga yuborish kabilar.

«Yosh olimlar» kengashi iste’dodli va iqtidorli talaba-yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar natijalari yuzasidan ma’muriyatga bir qator takliflarni kiritishi mumkin. Jumladan:

- tadqiqot ishlari bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida talabalarning ilmiy seminarini tashkil etish, ma’ruzalar tanlovini o‘tkazish;

- talabalarga ilmiy-ijodiy ishlari natijalariga asoslangan kichik ilmiy va ijodiy materiallarini kitob, to‘plam shaklida nashr etishga yaqindan ko‘maklashish;

- yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan iste’dodli va iqtidorli talaba- yoshlar hamda ularning ilmiy rahbarlari mehnatini, erishgan alohida yutuqlarini munosib taqdirlash va rag‘batlantirish, ularning nomzodini davlat mukofotlariga, turli tanlov va musobaqalarda ishtirok etishga, universitetning ilmiy, jamoat tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatishga tavsiya qilish.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlaridagi kafedralar qoshida faoliyat yuritadigan “Yosh olimlar” maktabining asosiy faoliyati iste’dodli va iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratiladi. Shu sababli “Yosh olimlar” maktabi tomonidan tashkil etiladigan to‘garaklar orqali iqtidorli talaba-yoshlarga qo‘shimcha bilim berishni amalga oshirish lozim. Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishda to‘garaklar va ularning rahbarlari faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Oliy o‘quv yurtlari orqali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sifati aksariyat hollarda to‘garak rahbarining talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish ishlarini qay darajada samarali tashkil etishga bog‘liq.

Talabalarni ilmiy hodisalar va yondashuvni mustaqil tahlil qilish, muayyan ilmiy tushuncha ustida sinchkovlik bilan fikrlashga o‘rgatish lozim. Shuning uchun talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishning muhim sharti, ularni mavjud dolzarb



ilmiy muammolar va ularning yechimiga qaratilgan amaliy va nazariy bilimlar, zamonaviy ilmiy axborotlar va ularni hal etishning shart-sharoitlari bilan qurollantirishdan iboratdir. Buning uchun yangi ilmiy yondashuv bilan muntazam tanishtirib borish orqali talabalarda ilmiy dunyoqarash va tafakkurni hosil qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko‘lamini bosqichma-bosqich kengaytirib borish talab etiladi.

Ajdodlarimiz qoldirgan meroslar fan va shaxsning taraqqiyoti, intellektual salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlarga nihoyatda boy. Bu merosdan zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yo‘llarini izlash dolzarb muammo hisoblanadi. Yoshlarga milliy qadriyat va an’analar ruhida ta’lim-tarbiya berish, kasb tanlashga to‘g‘ri yo‘naltirish, yuksak insoniy fazilatlarni qaror toptirish, “Ustoz-shogird” an’analar asosida ilmiy maktablarning o‘rni va ahamiyatini tushuntirish, ajdodlarimizning ilmiy-intellektual salohiyati bilan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Buning uchun oliy o‘quv yurtida har bir talaba alomalarimizning benazir va boy tarixiy meroslaridan xabardor bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, fan to‘garaklarini davr va ijtimoiy buyurtma talablaridan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish, ularda istiqbolga yo‘naltirilgan modulli o‘qitish mazmuni tarkibida muayyan fanning yutuqlarini kengroq ifodalash masalalariga e’tibor qaratish va yosh olimlarning diqqatini ushbu masalaga jalb etish zarur. Masalan, Guliston davlat universiteti pedagogika fakulteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida qoshida tashkil etilgan pedagogik kasb mahorati kichik maktabi tarkibida “Tafakkur gulshani”, “Pedagogik texnologiyalar” to‘garaklari birlashtirilgan bo‘lib (rahbari katta o‘qituvchi O.Suvonov), unga pedagogika faniga oid maxsus savolnoma asosida uzluksiz ta’lim tizimi bo‘yicha maktab o‘quvchilari, akademik litsey va universitet talabalari tanlab olinadi. “Kichik maktab”ning maktabning to‘garaklaridan afzalligi shundaki, unda mashg‘ulotlar noan’anaviy yo‘sinda: bahs-munozara, didaktik va rolli o‘yinlar hamda noan’anaviy tarbiya darslari ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Oliy o‘quv yurtlari kafedralari tarkibida tashkil etilgan fan to‘garaklari odatda kurs va fakultet talabalarini jalb etgan holda, ma’lum bir dastur asosida faoliyat yuritadi. Davr va ijtimoiy buyurtma asosida kafedra qoshida qayta tashkil etilgan fan to‘garaklarining faoliyati esa, asosan, keng qamrovli muammolarni hal etishga qaratilib, bu ishga umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim bossqichlari o‘quvchi va talabalari, hatto, pedagogik xodimlari ham keng jalb



etiladi. Masalan, Guliston davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida tashkil etilgan “Kichik maktab”ning 40 nafar ishtirokchilaridan 17 nafarini Guliston shahri va uning yaqin atrofidagi ta’lim muassasalari o’quvchi va talabalari hamda pedagogik xodimlar tashkil etadi. Kafedraning “Bo’lajak o’qituvchi shaxsi kasb madaniyatini shakllantirish nazariyasi va amaliyoti” nomli bosh ilmiy tadqiqot muammosi asosida 4 ta yo’nalishda ilmiy va ijodiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Har bir yo’nalishga kafedraning yetakchi mutaxassisi rahbarlik qiladi. Tadqiqotlarning dastlabki natijalari to’garak a’zolari ishtirokida atroflicha muhokama qilinadi. Ijobiy fikr bildirilgan natijalar bo’yicha tadqiqotlarni davom ettirish, e’tiroz bildirilgan natijalar bo’yicha tadqiqotlarni qayta olib borish yuzasidan xulosalar chiqariladi.

Respublika ta’lim tizimida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga asosan, o’quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, ta’lim mazmuni uzluksizligini ta’minlash borasida ko’pgina ishlar amalga oshirildi. Uzluksiz ta’lim muammolarini o’rganish va yechish maqsadida, kafedralar qoshida “Kichik akademiya”lar turiga kiruvchi “Kichik maktab”larni tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday “maktab”lar «Ustoz-shogird» an’analarga asoslangan fan to’garaklarini o’z ichiga olib, davr talablari asosida umumiy o’rta, o’rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlari o’rtasidagi ilmiy-metodik hamkorlikni ta’min etuvchi, bu jarayonning dolzarb muammolarini tadqiq etuvchi tuzilma bo’lib, u “Yosh olimlar” maktabi tarkibida ilmiy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo’ladi. Shu boisdan tadqiqot muammosiga oid tarixiy ma’lumotlarni o’rganish, oydinlashtirish, to’ldirish, shuningdek, hali mutlaqo o’rganilmagan muammolarni ham belgilab, muhimlarini ajratib olish zarur. Olingan natijalarni ta’lim jarayonida tatbiq etish respublikamizda pedagogika fanini modernizatsiyalash va uning yangi tarmoqlarini rivojlantirishga asos bo’lib, ta’limning yangi texnologiyalarini yaratishga ko’maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarova B.A. Bo’lajak o’qituvchilarda tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash asoslari. Monografiya. –Toshkent.O’zPFITI, 2015.8 b.t.
2. Nazarova B.A. Bo’lajak o’qituvchilarda tadqiqotchilik layoqatini kreativ yondashuvlar asosida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. –T.: Ta’lim texnologiyalari, 2017. 10,2 b.t.
3. Nazarova B.A. Problems of Training Scientific-Pedagogical personnel in higher Education System.Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 1-2017.r.



UZLUKSIZ TA'LIMDA ZAMONAVIY DARS VA UNUNG SAMARADORLIGI

R.M.MADATOV,
TDPU tayanch doktoranti

Har bir pedagog shuni doimo esda tutishi kerakki, dars o'quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Tarbiyaning barcha jarayonlari har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash, birinchi navbatda dars jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda darsning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va o'qituvchilar oldiga birinchi darajali vazifa qilib qo'yilmoqda.

Таянч сўз ва иборалар: ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlari, o'rta maktab, akademik litsey va professional ta'lim, o'quvchilarning faolligini, erkin fikrlashlarini rivojlantirish masalalari.

Hozirgi zamon darsi uchta maqsadni: ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarini ko'zda tutadi. Ammo, o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlashda o'zaro faollik, texnikani o'rganish va mehnatning roli tobora oshib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda «shaxs manfaat va ta'lim ustivorligi» e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish shakl va usullari, mazmun va prinsiplarini o'rgatadi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchilarning g'oyaviy e'tiqodiga, kasb mahoratiga, iste'dodi va madaniyatiga, hozirgi zamon pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarni o'zaro faollikka olib kelishiga bog'liqdir.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan eng muhim talab innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirib, har bir darsdagi mavzuni ilmiy asoslash, o'quvchilar imkoniyatlarini hisobga olgan holda material hajmini belgilash hamda uning murakkabligini aniqlash; avvalgi o'rganilgan materiallar bilan bog'lash; bir yoki bir necha fanlar bilan aloqasini izohlash, o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar va ularning mustaqil ishlari tizimini aniqlash; darsning moddiy-texnik jihozini belgilash va qo'shimcha ko'rgazmali qurollar bilan boyitish; qo'shimcha axborot (kompyuter) vositalaridan foydalanish va darsda muammoli vaziyatni vujudga keltirib, ta'lim mazmuni va maqsadini amalga oshirishdan iboratdir.

O'rta maktab, akademik litsey va professional ta'lim so'ngra oliy ta'lim bosqichi darslariga qo'yiladigan eng muhim talablardan yana biri ta'lim usullari va innovatsion texnologiyalar hamda fanlararo aloqadorlik, ularning o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borishning samaradorligini oshirishdir.

Barcha didaktik vazifalar (xarita, jadvallar, rasm, ranglar, matnlar, ko'rg'azmali qurollar) darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak. O'tilgan har bir darsning tahlil qilib borilishi ham katta samara beradi. Bunda darsning tahlil qilinishida ko'zlangan maqsadga erishildimi, o'quvchilar qanchalik bilim oldilar, qanday kamchiliklarga yo'l qo'yildi?, kabi



bir qator savollarga javob topiladi. Bunday tahlil darsning kelgusida yanada sermazmun va ta'lim maqsadiga erishuvchan qilib tashkil etishga yordam beradi.

Ta'lim oluvchilarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida so'z borganda o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, farzandlarimizni komil insonlar etib tarbiyalashdek muqaddas burchimizga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi dolzarb vazifamizdir.

Bugungi kunda o'rta maktab, akademik litsey va professional ta'lim hamda oliy ta'lim bosqichida "Biologiya" o'quv fanidan innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqilib, ta'lim texnologiyalarining har biri o'zida o'quv mashg'ulotini o'tkazish shart-sharoiti to'g'risida axborot materiallari, pedagogik maqsad, vazifa va ko'zlangan natijalar, o'quv mashg'ulotining rejasi, o'qitishning usul va vositalari mujassamlashtirilgan. Shuningdek, zamonaviy biologiya fani o'qituvchisi o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasini, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining mazkur o'quv mashg'ulotida erishadigan ta'limiy maqsadi bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatining bosqichma-bosqich ta'rifini ham darsdan oldin tuzishi lozim. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning faolligini, erkin fikrlashlarini yanada rivojlantirish maqsadida o'quv jarayoniga turli innovatsion texnologiyalari joriy etilgan. Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul-vositalari kirib kelmoqda va ulardan samarali foydalanilmoqda. Pedagogik va innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish asosida aynan shu talablar yotadi.

Ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish ayni kundagi pedagogik jarayonning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Albatta ta'lim-tarbiya ong mahsuli. Lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning ravnaqini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi, farzandlarimizning bugun qanday ta'lim-tarbiya olishiga bog'liq.

Ma'lumki, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini asosiy bo'g'inini uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etadi. Uzluksiz ta'limni davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlashda avvalo ularning jahon talablari darajasiga javob berishi yuksak ma'naviyat zamirida qurilganiga asosiy e'tibor berish kerak.



Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, ma'naviyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari, eng mo'tabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Hozirgi zamon mutaxassislari, faoliyat doiralari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, fizika va informatika bo'yicha keng ko'lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi, informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, orgtexnika vositalari va ulardan foydalanish borasida yetarli malakalarga ega bo'lishi, hamda, yangi informatsion texnika va texnologiya asoslarini uning ertangi kuni, rivoji to'g'risidagi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Fanlar doirasida olib borilayotgan tajriba-tadqiqot ishlari, avvalgi tajriba-sinov jarayonlardan farqli ravishda, akademik litsey va profesional ta'lim muassasalarida barcha fan yo'nalishlari bo'yicha, ya'ni tabiiy fanlar (geografiya, kimyo, biologiya), aniq fanlar (matematika, informatika fizika), ijtimoiy fanlar (tarix, huquq, iqtisodiy bilim asoslari, milliy istiqlol g'oyasi turkumiga kiruvchi fanlar), gumanitar fanlar (ona tili, adabiyot, o'zbek tili, xorijiy tillar) bo'yicha tashkil etiladi. Yana bir jihati, mazkur ta'lim muassasalari tajriba-maydonlari emas, tajriba-tadqiqot maydonlari, deb atalmoqda.

Barchamizga ma'lumki, tadqiqot-juda keng ma'noni o'z ichiga oladi. Tajriba-tadqiqot maydonida faoliyat ko'rsatayotgan har bir fanning tadqiqotchi-o'qituvchisi tomonidan optimallashtirilgan o'quv dasturidagi mavzular sinchiklab ko'zdan kechiriladi va ular orasidan nisbatan murakkabroq bo'lgan mavzular ajratib olinadi. Respublika ta'lim markazi tomonidan ham ana shunday mavzular bo'yicha ishlangan dars ishlanmalari amaliyotda qo'llab ko'rishlari uchun taqdim etiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni quyi boshqichdagi olingan fundamental bilimlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shu jumladan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida biologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda ham fanlararo bog'liqlik, avvalgi bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'zaro mantiqiy tafakkurini boyitish muhim omillardan sanaladi. Ayniqsa bu borada sitologiya, gistologiya va embriologik bilimlarning o'rni beqiyos. Negaki, o'quvchi yoki talaba sitologiyani bilmasdan turib biologik jarayonlarni to'liq tushuna olmaydi. Gistologik bilimlarni egallamasdan turib to'qimalar tarkibi, organlarning tuzilishi pirovardida esa organizm tuzilishini aniq tasavvur eta olmaydi. Embriologiya sohasidagi tushuncha va bilimlar esa individlar, turlar va turli sistematik guruhlariga mansub organizmlarni rivojlanishidagi o'zaro o'xshashlik hamda farqli tomonlarini taqqoslash imkonini



beradi. Embrional taraqqiyotni bilmasdan turib zamon talabidagi biologiya o'qituvchisini tarbiyalashning iloji yo'q. Hulosa qilib aytganda uchta fan modulidan tashkil topgan "Rivojlanish biologiyasi" fani fundamental tadqiqotlar olib boradigan va pedagogik faoliyat yuritadigan biologlarning eng muhim fanlaridan biri hisoblanadi. Rivojlanish biologiyasi fanini o'qitishni esa yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish yanada maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqotchi-o'qituvchi, avvalo, har bir darsning aniq texnologik xaritasini tuzadi. Shu o'rinda darsga yangicha usul va texnologiyalarni tavsiya etishi mumkin. Lekin taklif etilayotgan usul yoki vositalar har doim ham samarali bo'lmاسligi mumkin. Chunki, qaysidir bir yangi pedagogik texnologiya o'qituvchidan juda ko'p vaqt hamda ortiqcha qo'shimcha resurslar talab etsayu, o'zlashtirish samaradorligi shunga yarasha bo'lmasa, tabiiyki, bunday texnologiyadan voz kechiladi. Demak, tadqiqotchi-o'qituvchi muayyan fanga qaysi usul yoki texnologiyani mos kelishini bilishi hamda tavsiya etish salohiyatiga ega bo'lishi lozim.

Biz tadqiqot olib borayotgan izlanishimizda Rivojlanish biologiyasini boshqa fanlar bilan gorizontaal va vertikal aloqadorlikni ta'minlagan holda o'qitishni tashkil etishni maqsad qilganmiz. Rivojlanish biologiyasi tarkibidagi tushuncha va bilimlarni o'zlashtirishda faqatgina biologik bilimlarni o'ziga yetarli bo'lib qolmay balki, o'z navbatida kimyo, fizika, matematika fanlariga oid tushuncha va bilimlarga murojaat qilinadi. Buni shartli ravishda verkital (asinxron) aloqadorlik deyishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda rivojlanish biologiyasida botanika, zoologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, genetika va evolyutsion ta'limot, biotexnologiya hamda genetik injeneriya kabi fanlar bilan muayyan kurs davomida murojaat etiladi, bu holatni fanlar bilan gorizontaal (sinxron) aloqadorlik deb qarashimiz mumkin bo'ladi. Ushbu keltirilayotgan ma'lumotlar shakllanib kelayotgan mutaxassis biolog va biologiya o'qituvchisini mantiqiy tafakkurini boyitish hamda dunyoqarashini kengaytirish bilan birgalikda tirik tabiat haqidagi tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Shuni ham ta'kidlashimiz joizki, metodik xizmat ko'rsatish va zarur tavsiyalarni berish o'quv-tarbiya jarayonida asosiy iste'molchi hisoblangan o'quvchi yoki talabani axborot bazasini boyitishga, muayyan fan yuzasidan ma'lumotni osonroq o'zlashtirishga xizmat qilishi kerak. Ularga amaliy-metodik yordam ko'rsatish, o'quv-tarbiya jarayoniga muammosiz to'laqonli tayyor holda kirishlari uchun qaysi yo'nalishda bilim, yangiliklar va qo'shimcha materiallar zaruriyati haqida tajriba-tadqiqot maydonlarining mas'ul metodistlariga murojaat etishi va hamkorlikni kuchaytirishi lozim. Shunda tajriba-tadqiqot maydonlaridagi ishlar samaradorligini ta'minlash uchun kerakli bo'lgan maqsadli metodik xizmat ko'rsatish imkoniyati vujudga keladi. Eng muhimi, ta'lim tizimi takomillashuvi yo'lida ishonch bildirilgan



tajriba-tadqiqot maydonining tadqiqotchi-o'qituvchilarimiz o'zlarining bugungi xulosalari ertangi ta'lim sifati va samaradorligida muhim ahamiyatga ega ekanligini hech qachon unutmashliklari lozim.

Rivojlanish biologiyasi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning qo'llanishi esa o'quv jarayonini loyihalash orqali o'qituvchi katta pedagogik tajribaga ega bo'lmasa ham, sezilarli samaraga erisha olishi mumkinligi ko'rsatadi. Shuning uchun ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv maqsadlarini aniqlab olish muhim hisoblanadi. Aniq maqsadlarni belgilash nazorat va baholash ishini yengillashtiradi va bu jarayonga oydinlik kiritadi. Darsda talabalarning erkin, ijodiy ishlashlari uchun sharoit yaratish kerak. Buning uchun darslarning har bir qismi aniq loyihalashtirilishi, o'quv materialini bilim egallovchilarning o'zlashtirish darajalariga moslashtirish, bir tushuncha yoki bilimni faqatgina ayni fan yuzasidan tushuntiribgina qolmay bir necha fan nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda izohlash yanada foydali bo'ladi. An'anaviy ta'lim metodlari bilan birga interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol metodlardan foydalanganda asosiy urg'u o'quvchilarni hamkorlikda ishlashlariga imkon berilishi hisoblanadi. Interfaol metodlar o'quvchida erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907 sonli Qarori. - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimiga oid farmon va qarorlari" to'plami. –Samarqand, 2018.

2. 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli Qarori. - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimiga oid farmon va qarorlari" to'plami. –Samarqand, 2018.

3. 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF -5538-sonli farmoni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev huzurida 2019 yil 23 avgust kuni "Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchi mavqeini oshirish" masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselekt majlisi Bayoni. – 2019 yil 27 avgust. № 19750-xh.



ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЁЖИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Х.Н.ХАЙДАРОВА,
Г.Р.КАМАЛОВА,
К.Б.ЭРГАШЕВА,
L.M.QARAXANOVA,**

Зав.отдел.УзНИИПН, (PhD), с.н.с.

В этой статье рассматривается экологическое образование для Устойчивого развития в Узбекистане, который предполагает использование многообразия форм и методов. Решение экологических вопросов тесно связано с проблемами социального развития страны, повышения общего уровня культуры, в том числе и экологической, и правовой грамотности населения.

This article examines environmental education for Sustainable Development in Uzbekistan, which involves the use of a variety of forms and methods. The solution of environmental issues is closely related to the problems of social development of the country, raising the general level of culture, including environmental and legal literacy of the population.

Экологическое образование для Устойчивого развития в Узбекистане предполагает использование многообразие форм и методов. Отрадно, что в последние годы наблюдается процесс экологизации школьных учебных программ. Новые учебники по естественным дисциплинам содержат достаточно много материалов, освещающих экологические проблемы. Но учителя-предметники не всегда уделяют экологическим темам должного внимания, т.к. на их изучение отводится не достаточно часов. Ниши, которые остаются из-за невозможности охватить все экологические вопросы в рамках школьных программ могут и должны быть заполнены во внеурочное время. При этом могут использоваться различные формы и методы работы. Большая роль в этом процессе отводится (ННО) Негосударственная некоммерческая организация, занимающимся экообразованием и просвещением.

Решение экологических вопросов тесно связано с проблемами социального развития страны, повышения общего уровня культуры, в том числе и экологической, и правовой грамотности населения.

Всё это находится в поле зрения ННО «Родничок», основными задачами и видами деятельности которой являются:

- Экообразование и воспитание детей;
- Организация и проведение детских фестивалей, конкурсов, экспедиций семинаров, праздников экологической направленности;
- Организация конференций, семинаров, тренингов, круглых столов.



мероприятий для специалистов в области экообразования и просвещения;

- Пропаганда экологических знаний среди широких слоёв населения;
- Информационная поддержка учебных заведений и ННО путём публикаций соответствующих материалов;
- Содействие экономическому и социальному прогрессу.

Работа ведётся в двух направлениях – это методическая помощь специалистам, занимающимся экообразованием. И, конечно же, это работа с детьми и молодёжью. Организация обеспечивает детей и молодёжь возможностью участия в интересных экологических акциях, конкурсах, проектах, научно- познавательных экспедициях, а взрослых обеспечивает мало оплачиваемой, а чаще всего совсем не оплачиваемой, но любимой и интересной работой, возможностью самореализации, удовлетворения творческих амбиций. Создание методических пособий, рекомендаций, разработки экологических маршрутов, написание сценариев для проведения экологических праздников и мероприятий – задача не лёгкая. Облегчает эту работу тот факт, что всё это создаётся не в комфортных методических кабинетах, а чаще всего в экспедициях, на экскурсиях, в молодёжных лагерях, на занятиях кружка. Чаще всего дети сами являются авторами идей. Задача развивать в них этот творческий потенциал, не убивая своим авторитетом, а напротив, поощряя инициативу и деликатно направляя их мысли и энергию в нужное русло. Нужно кому? Одна из проблем образования, в том числе и экологического, состоит в том, что мы преподносим детям готовые рецепты от всех проблем, не развивая в них стремления к поиску решений. Мы учим их правильно жить, хотя ни один взрослый не может достоверно знать ответ на вопрос «Как правильно жить?». Это взрослые всезнающие привели мир к грозящей экологической катастрофе. Пора взвалить эту проблему на детские плечи и озадачить светлые головы. Ведь это жители XXI века, хозяева планеты. И чем раньше они это поймут, тем лучше. А исправлять ошибки взрослых им придётся долго.

Дети из клуба «Родничок» были участниками многих районных, областных и республиканских экологических мероприятий. Это и акции школьных и молодёжных экологических клубов в рамках Всемирного движения «Clean up the World», Международного движения Марш парков, учебно-познавательные экспедиции в Зеравшанский заповедник, республиканский Экофестиваль «Дети и вода», Международный конкурс «Вода-источник жизни!», эколого-этнографические экспедиции «По следам джейрана» в экоцентр «Джейран» в Бухарскую область, FSC и др.

Мы считаем своим долгом, довести для общественности истинное состояние экологических проблем, углубить знания о состоянии окружающей среды и показать, что актуальным становится понятие «Экологическая



безопасность». Во всём мире растёт понимание того, что, разрушая окружающую среду, мы уничтожаем собственное будущее. И не каждый житель Земли пока осознаёт это, как угрозу всему человечеству.

Как страна-член ООН Узбекистан присоединился ко многим международным конвенциям и соглашениям по окружающей среде и устойчивому развитию. Мы считаем своим долгом, донести до молодых умов значимость этих документов и разделить ответственность, которую приняло наше государство, подписав эти международные соглашения. Молодёжь должна играть важную роль в этом процессе.

Большие планы и надежды связываются с новым партнёром – Национальной Ассоциацией Негосударственных Некоммерческих Организаций и Фондом поддержки ННО Узбекистана, образование которых является закономерным требованием времени. Было радостью узнать, что проект «Развитие молодёжного партнёрства и участие в решении социально значимых проблем» оказался в числе победителей первой грантовой программы, проводимой Фондом поддержки ННО Узбекистана. В рамках проекта предполагается проведение мероприятий:

- Акция в Ташкентском ботаническом саду, посвященная Международному Дню Земли и Международному.

- Эколого-этнографическая экспедиция в Бухарскую область и г. Бухару в Эко Центр «Джейран».

- Организация и проведение детского экологического лагеря.

- Приключенческий молодёжный скаут лагерь «Эколандия».

- Проведение районного конкурса «Мой вклад в достижение целей тысячелетия» с целью создания молодёжной группы лидеров «Экопарламент».

Главной целью проекта является привлечение молодежи к проблемам охраны окружающей среды, развития экотуризма, повышения общего уровня культуры и развитие навыков самоуправления.

Задачи, которые предусматривается решать в ходе реализации проекта это:

- Пропаганда международных экологически-значимых дат.

- Ознакомление молодёжи с международными Конвенциями в области охраны окружающей среды, подписанными РУз и возможности участия молодёжи в их реализации.

- Ознакомление с Программой ООН Цели Развития Тысячелетия и возможности участия молодёжи в реализации Целей, принятых РУз

- Развитие у молодёжи навыков проведения и участия в массовых общественных мероприятиях на высоком культурном уровне.

- Оказание помощи природоохранным организациям.

- Привлечение внимания общественности к проблемам санитарии.



– Выйти с предложением в Министерство Народного образования с предложением включить в курс предмета «Здоровый образ жизни».

– Предоставить возможность участия в мероприятиях проекта детям из малообеспеченных семей.

Кто и какую пользу получит от проекта?

– Члены молодёжной коалиции получают разнообразные знания и большой опыт самоуправления.

– Дети смогут провести летний отдых с пользой для своего здоровья и развития и при этом оказать посильную общественнополезную трудовую помощь.

– Образуется детский «Экопарламент».

– Дети получают навык разработки экотуристических маршрутов.

– Будет разработано предложение для Министерства Народного образования.

– ННО получит материальную поддержку и развитие.

Конечно, нет иллюзий, что проект решит все существующие проблемы экологического образования и просвещения. К сожалению, не очень большая группа молодёжи будет охвачена мероприятиями, и даже не надемся, что каждый участник поймёт всю социальную значимость тех мероприятий, в которые будут вовлечены. Но мы искренне надеемся, что многие умы затронут те проблемы, которые мы попытаемся решать. Верим, что сможем сделать пусть маленький, но уверенный шаг в деле расширения возможностей экологического образования для устойчивого развития и развития гражданского общества.

Использованная литература:

1. Закон от 29.08.1997 № 464-1 (ред. от 18.04.2018г. № 3РУ-476) «Об образовании в Республике Узбекистан».

2. Указ Президента Республики Узбекистан № 4947 от 07.02.2017 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на период от 2017 до 2021 года».

3. Каурцев М.Н. Применение интерактивных технологий в научно-методической работе как ресурс личностно-профессионального роста педагогов : автореф. дис. канд. пед. наук: электронная библиотека диссертаций. – М.:dissercat.com.

4. Даниленкова В.А. Формирование экологической компетенции у студентов технического вуза : автореф. дис. канд. пед. наук: электронная библиотека диссертаций. – М.:dissercat.com, 2005. – Режим доступа : <http://www.dissercat.com>.



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТА ПО ИЗУЧЕНИЮ МИРОВОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

И.Г. ГАЛУЩЕНКО,

профессор Государственной консерватории Узбекистана,
академик Международной академии наук
педагогического образования

Maqolada talabaning mustaqil ishi to 'g' risida fikr yuritilgan va uning sifatini oshirish usullari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ish, talaba, jahon musiqa madaniyati, tushunish, sifat, metod.

The article examines the student's independent work and suggests methods for improving its quality.

Key words: independent work, student, world musical culture, comprehension, quality, method.

В статье рассматривается самостоятельная работа студента и предлагаются методы повышения её качества.

Ключевые слова: самостоятельная работа, студент, мировая музыкальная культура, осмысление, качество, метод.

Современное непрерывное образование характеризуется кардинальными изменениями, обусловленными интенсивным развитием всех сфер общества, расширением информационного пространства, возрастанием роли науки в практической деятельности человека. В соответствии с динамикой жизнедеятельных процессов совершенствуется и методология обучения, применяются различные методологические подходы, направленные на повышение качественного усвоения знаний обучающимися. При этом важную роль играет опора на прогрессивные традиции и преемственность в педагогике как стабильные факторы устойчивости развития общества. В сфере музыкального образования данные факторы особенно значимы.

«В настоящее время, когда радикальные изменения произошли практически на всех фронтах общественной жизни, – отмечает доктор философских наук, профессор, главный научный сотрудник Российского института культурологи К.З. Акопян, – они не могли не затронуть сферу музыки» [1, с. 14].

Мировая музыкальная культура как область социально-гуманитарных знаний, является содержанием музыкально-исторических предметов в обучении музыканта, важной сферой воспитания его личности, формирования креативного мышления. «Овладение человеком богатствами культуры, ко-



торая представлена в форме социального опыта, – подчёркивает доктор педагогических наук, профессор Узбекского научно-исследовательского института педагогических наук имени Т.Н.Кары-Ниязи, академик Академии наук Республики Узбекистан Р.Х.Джураев, – это гарантия устойчивого развития общества» [2, с. 39].

Обращаясь к музыкальной педагогике, следует отметить, что на всех уровнях музыкального образования изучается мировая музыкальная культура, на материале которой формируются и укрепляются идейно-художественные и духовно-нравственные позиции музыкантов как пропагандистов национальной и общечеловеческой культуры. В этом сложном многоплановом процессе большое значение имеет самостоятельная работа студента, организация которой должна быть тщательно продумана и конструктивно построена педагогом. «Существенную, подчас определяющую роль в построении любой научной работы, – утверждают российские учёные доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии образования А.М.Новиков и доктор технических наук, профессор, член-корреспондент Российской академии наук Д.А.Новиков, – играют применяемые методы исследования» [3, с. 76]. В этом смысле роль педагога в выборе, определении и применении методологических подходов к изучению явлений и тенденций развития мировой музыкальной культуры, несомненно, весьма значительна. В процессе чтения лекций педагог концентрирует внимание обучающихся на ценностных аспектах музыкального искусства, ориентирует студентов на поиск методов в осмыслении и анализе музыкально-исторического материала с позиций современного искусствознания.

Результаты самостоятельной работы студента проявляются на практических и семинарских занятиях, отражаются в рефератах, докладах, курсовых проектах. Исходя из этого, педагог применяет наиболее целесообразные методологические подходы к организации самостоятельной работы студентов, качество которой оценивается на основе контроля знаний и рейтинговой системы.

Основными методологическими подходами в этом отношении могут быть следующие:

- составление синхронистической таблицы какого-либо исторического этапа развития мировой музыкальной культуры;
- открытие новой, неизвестной ранее страницы истории музыки;
- эмпирический анализ музыкального произведения на основе научной гипотезы;
- внесение корректив и дополнений в историю мировой музыкальной культуры;



– разработка типологии национальных композиторских школ в мировой музыкальной культуре.

Предлагаемые методологические подходы не являются исчерпывающими и могут быть импульсом к поискам различных конструктивных путей изучения мировой музыкальной культуры, а также стать основой научных исследований студентов, статей и докладов на научно-практических конференциях и семинарах. Они дополняют такие формы организации самостоятельной работы студента как изучение научной, эпистолярной, художественной литературы, слушание музыки, посещение спектаклей и концертов, выставок и презентаций, использование Интернет-ресурсов.

Необходимо отметить, что содержание мировой музыкальной культуры, находящейся в интенсивном развитии на современном этапе постоянно расширяется, обновляется и обогащается, что, естественно, не должно остаться без внимания. Здесь педагогу необходимо использовать ресурсы самостоятельной работы студентов, вовлекать обучающихся в музыкально-общественную жизнь, в разработку проектов, индивидуальных и коллективных исследований актуальных проблем музыкальной культуры мира на основе философских, общенаучных и специальных методов изучения. Творческая инициативность педагога, его профессиональная компетентность, психологическая толерантность в организации самостоятельной работы студентов являются перспективной магистралью к успешной послевузовской деятельности молодых музыкантов в системе непрерывного образования.

Таким образом, методологические подходы к организации самостоятельной работы студента способствуют формированию системного научного мышления, умению логически выстраивать рассуждения о музыкальном искусстве, раскрывать индивидуальные качества личности, стимулировать динамику профессионального роста, и, в итоге, повышать качество музыкального образования.

Литература:

1. Аюбян К.З. Мировая музыкальная культура. – Москва: ЭКСМО, 2012. – 480 с.
2. Джураев Р.Х. Современные вызовы в системе непрерывного образования // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2020. – 2-son. – В. 36-39.
3. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. – Москва: Либроком, 2010. – 280 с.



HUDUDYIY MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI OSHIRISH

N.N.XUDOYBERDIYEV,

Surxondaryo VXTXQT va UMOHM katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada shiddat bilan rivojlanayotgan asrimizda axborot texnologiyalar bilan muloqot qila oladigan raqobat-bardosh bugungi kun o'qituvchilarini tayyorlashda uzluksiz ta'lim platformalari va raqamli texnologiyalar, televideniylardan foydalanish va ularning samaradorligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalar, ta'lim, internet, televideniya, platforma, kompyuter, masofa, texnika-texnologiya, uzluksiz.

В этой статье представлена информация о платформах непрерывного образования и цифровых технологиях, использовании телевидения и их эффективности в подготовке сегодняшних конкурентоспособных учителей, которые могут общаться с информационными технологиями в нашем быстро развивающемся веке.

Ключевые слова: информационные технологии, образование, интернет, телевидение, платформа, компьютер, расстояние, технологии, непрерывный.

This article provides information on lifelong learning platforms and digital technologies, the use of television and their effectiveness in preparing today's competitive teachers who can communicate with information technology in our rapidly evolving century.

Key words: information technology, education, internet, television, platform, computer, distance, technology, continuous.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas degan fikrlarni ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari Mirziyoev, Shavkat Miromonovich [1].

Har bir tarixiy davr turli jihatlari bilan ajralib turishi bizga ma'lum. Shu o'rinda asosiy ko'rsatkich sifatida ilm-fan va texnika-texnologiya sohalaridagi qo'lga kiritilgan yutuqlar, insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkir va allomalarimizning ijod mahsuli namunalari hisoblanib, ishlab chiqarish sohalariga uchun qo'lga kiritilgan moddiy boyliklar kabi qabul qilinib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunning yangi tahririda, mamlakatimizda ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplarning eng muximlaridan biri bu ta'limning uzluksizligi va izchilligi nazarda tutilgan, ya'ni ta'limning uzluksizligini ta'minlashda asosiy bo'g'inlaridan biri sifatida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'limini ko'rishimiz mumkin [3].



Bugungi jamiyat taraqqiyoti uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalarining o'zini juda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, ko'plab olimlarning fikriga ko'ra hozirgi kunda biz global axborot inqilobini boshdan kechirmoqdamiz, bu barcha sohalarida ulkan o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonini yanada jadallashtirmoqda va shu bilan birgilikda jamiyatdagi barcha sohalarini qamrab olmoqda. Masalan, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va boshqa ko'plab sohalarini misol qilib olishimiz mumkin.

Ushbu sohalaridagi eng muhim yutuqlardan biri internet tarmog'ining butun dunyo bo'ylab o'z foydalanuvchilariga bir necha o'n yillar oldin tasavvur qilib bo'lmaydigan imkoniyatlarni taqdim eta olishidir. Ya'ni televideniya, internet, masofadan o'qitish tizimlari ommaviy ravishda foydalanish, yoshi bilan ham, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi masofa bilan ham cheklanmagan ta'limni haqiqatga aylantirib bermoqda.

Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari hamda mamlakatimizda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida o'qituvchilarda elektron materiallar bilan ishlash, o'quv-uslubiy majmualarni yaratish, axborot kompetentligini takomillashtirish, sun'iy intellekt, virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, masofadan o'qitish, uzluksiz ta'lim platformalarida ta'lim olish kabi kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, o'qitishning elektron nazorat dasturini yaratish bo'yicha innovatsion salohiyatini o'stirish texnologiyasini ishlab chiqish bugun dolzarbligicha qolmoqda.

Texnik taraqqiyotni ko'rganda nafaqat istiqbolga ega, balki u xavfli hamdir, chunki u mohiyatan axloqiy printsipdan mahrum. Shuning uchun texnologiya, ilm-fan, axborotlashtirish-bu faqat inson taraqqiyoti uchun vosita bo'lib, uning asosiy maqsadi insonning o'zi, uning madaniyati, ma'rifiy kamoloti bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda yana bir muammo shundaki, umumta'lim maktablardagi o'qituvchilarning aksariyati o'zlarining axborot kompetentligining past darajasiga ega. Ushbu muammoni, juda ko'p hollarda qishloq maktablarida va zamonaviy telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarini joriy etish jadallik bilan o'sib borayotgan hududlarda ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari allaqachon maktabda paydo bo'lganida, bu juda kam uchraydi, ammo u faqat rivojlangan imkoniyatlarga ega bo'lgan yozuv mashinasi sifatida ishlatiladi, chunki o'qituvchilar ushbu texnologiyadan o'quv jarayonida foydalanish uchun yetarli bilim ko'nikmalarga ega emaslar [4].

Hududiy malaka oshirish tizimida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining axborot kompetentligini oshirish jayonlarining ilk bosqichlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risidagi" farmoni asosida amalga oshirildi. Ushbu farmonning asosiy maqsadi, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy



ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehhtiyojlarini yanada to'liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat edi [2].

Shu o'rinda umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, akademik litseylar, professional ta'lim va oliy o'quv yurtlarining ta'lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo'llashga asoslangan ilg'or ta'lim tizimlarini kiritish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va "YUNESKO" tashkiloti tamonidan bir qancha amaliy seminar-treninglar olib borildi. Pedagoglarimizning axborot kompetentligi darajasini aniqlash uchun so'rivnomalar ham o'tkazildi.

Hurmatli hamkasb! Quyidagi fikrlarning qaysilarini ma'qullaysiz?

Fikringizni asoslang.

So'rovnoma

T/r	Fikr	Ha/ yo'q	Izoh
1	Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi		
2	Kompyuter dars ishlanmasini tayyorlash va jarayonni tashkil etishda qulaylik yaratadi		
3	Har bir fan o'qituvchisi kompyuterni ta'lim jarayonida qo'llashi zarur		
4	Kompyuterdan foydalanmaslikka maktab moddiy-texnika bazasining zaifligi sabab bo'lmoqda		
5	O'quvchilarim, farzandlarim kompyuterni mendan yaxshi biladilar		
6	O'zim Internet tarmog'idan kerakli materiallar va axborotni topa olaman		
7	O'quvchilarni Internetning salbiy ta'siridan himoya qilish mumkin		
8	O'quvchilarning kompyuter o'yinlariga qiziqishlaridan qo'rqmayman		
9	Ayrim o'yinlar o'quvchining mantiqiy fikrlash, tezkorlik, to'g'ri qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini, mehnatsevarlik, vazminlik kabi sifatlarini rivojlantiradi		
10	Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining rolini inkor etmaydi va uning obro'sini kamaytirmaydi		

So'rovnoma natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasidagi barcha umumta'lim maktablari pedagoglarining axborot kompetentligini rivojlantirish uchun 36 va 72 soatlik kaskad usulidagi kurslar orqali axborot kompetentlik o'quv kurslari tashkil qilindi va maxsus sertifikatlar berildi.

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini



oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda PF-6108 farmonini keltirishimiz mumkin. Ushbu farmon asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, hududiy malaka oshirish tizimida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining axborot kompetentligini oshirish jarayonlarining keyingi bosqichlarida xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida bir qancha amaliy ishlarni ko'rishimiz mumkin. Xalq ta'limi vazirligining A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti, o'z «Uzluksiz kasbiy ta'lim» elektron platformasini amaliyotga joriy qildi. Ushbu platforma orqali O'zbekiston Respublikasidagi barcha umumta'lim rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarining malakasini oshirish va axborot kompetentligini rivojlantiruvchi kurslar orqali masofaviy tartibda ta'lim olishlari va o'zlarining axborot kompetentligini rivojlantirishi mumkin [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz /Sh. M.Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 592 b.
2. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda PF-6108 farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son]
4. Информология, информатика и образование: Справочное пособие / Под общ. ред В.А. Извозчикова и И.В. Симоновой-СПБ.: КАРО, 2004.-304 с.-(Модернизация общего образования)
5. <http://www.onlinedu.uz>



ELEKTRON TA'LIM VOSITALARI – O'QUVCHILARNING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

I.YU.ABDURAXMANOVA,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch doktoranti

Ushbu maqola elektron ta'lim vositalari, elektron ta'lim vositalarini o'qychilarning iqtidorni rivojlantirishdagi, ta'lim sifatini oshirishdagi, ta'lim jarayoni va ta'lim sifatini tizimli boshqarishdagi, ta'limni jahon ta'limiga integratsiyasini osonlashuvdagi o'rni haqida bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligidan kelib chiqib, elektron ta'lim vositalariga bo'lgan talabning yuqoriligiga asoslangan. Maqolada biologiya fanidan yaratiladigan elektron ta'lim vositalarga qo'yiladigan talablar va elektron ta'lim vositalarining ta'lim tizimidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Elektron ta'lim vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik innovatsiyalar, kompyuter, kreativ, multimedia, interaktiv doska, elektron o'quv resurslari, elektron nashrlar, mustaqil ta'lim

Эта статья посвящена роли электронных книг, электронных учебников в развитии образования, повышении качества образования, а также систематическому управлению учебным процессом и качеством образования, а также роли образования в содействии интеграции образование в мировое образование. Он основан на высоком спросе на электронные учебники из-за актуальности информационных технологий в процессе. В статье описаны требования к электронным учебникам по биологии.

Ключевые слова: Электронные учебники, информационные и коммуникационные технологии, педагогические инновации, компьютер, Интернет, мультимедиа, интерактивные доски, ресурсы электронного обучения, электронные публикации.

This article is devoted to the role of e-books, e-textbooks in the development of education, improving the quality of education, moreover systematic management of the educational process and the quality of education, about the role of education in facilitating the integration of education into world education. It is based on the high demand for electronic textbooks due to the relevance of information technology in the process. The article describes the requirements for e-textbooks in biology.

Keywords: Electronic textbooks, information and communication technologies, pedagogical innovations, computer, internet, multimedia, interactive whiteboards, e-learning resources, electronic publications.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi ilg'or tajribalarini integratsiyalash, xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga joriy etish,



o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini tarkib toptirish zahirida iqtidorini aniqlash va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqardi. Mazkur zarurat iqtisodiy, fan-texnika, innovatsion texnologiyalar, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar asosida uzluksiz ta'lim tizimini muayyan darajada modernizatsiyalashni talab etadi. Bu borada «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi PQ-4306 son Qarori[1] va O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi tomonidan «O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi[2] hujjatlarda alohida e'tibor berilmoqda.

Ayniqsa, «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»[3] gi Prezident qarori (PQ-4996-son, 17.02.2021-y.) ning qabul qilinishi, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligini anglatadi.

Ta'limda yangi o'qitish usullaridan foydalanish zarurati ajoyib imkoniyatlarni taqdim etuvchi pedagogik innovatsiyalar, internet, multimedia, interaktiv doska, elektron o'quv resurslardan foydalanish va elektron nashrlar yaratilishiga sabab bo'ldi. Bu borada elektron o'quv resurslar alohida o'rin egallaydi. Elektron o'quv resurs bu mavjud o'quv qo'llanma yoki darslikni undan foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida ixcham holatga keltirilgan ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'lib, o'zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audiomateriallarini jamlaydi.

Elektron o'quv resurs — bu o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishida, ko'nikma va malakalar orttirishida qulay va qiziqarli bo'lgan bilimlar bayon etilgan o'quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi vosita. Unda o'quv materialni mantiqiy bayon etilishi, yuqori darajada texnik jihozlanishi hamda badiiy jihatdan bezatilganligi bilan o'ziga xosdir. Elektron o'quv resurslar qator afzalliklarga ega: foydalanishda oddiyligi va qulayligi; elektron resursdagi axborotlarning yangilab borish imkoniyatining mavjudligi; ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va ta'lim xizmatlarini taqdim etish tezligi; axborotlarning to'liqligi; ma'lumotlarning o'zlashtirishning osonligi; mustaqil ta'lim olish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Elektron resursda, sarlavha ekrani, o'quv materialining to'liq bayoni, o'quv materialining qisqacha mazmuni, qo'shimcha adabiyotlar, bilimlarni tekshirish uchun tizimli topshiriqlar, nazorat tizimi, bilimlarni birlashtirishga yordam beradigan mashqlar, o'quvchilar bilimini ob'ektiv baholashga imkon beradigan testlar, matn parchalarini qidirish funksiyasi, mualliflar ro'yxati, atamalar lug'ati, ishlash uchun yordam tizimi, elektron resursning boshqaruv elementlari va resurs bilan ishlashni boshqarish tizimi bo'lishi kerak.



Biologiyadan yaratilgan elektron resurslarda ilmiylik (biologiya sohasida fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari)ni hisobga olgan holda o'quv materiali mazmunining to'liqligi, ishonchligi ta'minlangan bo'lishi, o'quv materiali va o'quv materialini o'zlashtirish jarayoni jahon ta'limi talablariga mos kelishi kerak. Bunda o'quvchilarga nafaqat katta ma'lumotlar manbaiga, balki, laboratoriya ishlari va yozma topshiriqlarni ekranda bajarish imkoniga ham ega bo'lishlari kerak. Elektron resurs vositasida biologiyani o'qitishda o'quv materialining murakkablik darajasiga alohida e'tibor qaratish va material o'quvchilarning yoshiga va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Shundagina, o'quvchi o'z imkoniyatlari doirasida, turli xil tezlikda materialni o'zlashtirish tiradi.

Biologiya fanidan yaratilgan elektron resurslar o'qitishning muammolilik tamoyiliga mos kelishi shart. Bunda o'quvchi muammoli vaziyatga duch kelsa, uni mustaqil yechishga harakat qiladi, uning ijodiy qobiliyati va fikrlash faolligi o'sadi. Ushbu didaktik talabni bajarilish darajasi an'anaviy o'quv qo'llanmalardan ko'ra, elektron resurs yordamida sezilarli darajada yuqori bo'ladi. O'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga va iqtidorli o'quvchilarning o'z ustiga ishlashiga imkoniyat yaratiladi.

Biologiya fanini o'qitishda ko'rgazmalilik tamoyili alohida o'rin egallaydi. Shu bois yaratilayotgan elektron resurslar o'rganilayotgan biologik ob'ektlar (virus, bakteriya, o'simlik, hayvonlar), ularning maketlari va modellari, biologik jarayonlarning ketma-ketligini kuzatish imkoniyatini yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, biologik ob'ektlarni 3D modellari o'quvchilarni biologik bilimlarini kengayishiga, iqtidorli o'quvchilarga kreativ fikrlashni ortishiga imkon beradi. O'qitishning onglik tamoyili o'quvchilarning mustaqilligi va faolligini ta'minlash, o'quv materiallarini o'rganish, topshiriqlarni mustaqil bajarishga bo'lgan istaklarini elektron resurslar vositasida ta'minlashni nazarda tutadi. Shuning uchun elektron resurslar biologiyani o'zlashtirishda tizimli faoliyatga yondashuv asosida yaratilishi va o'quv faoliyatining aniq modeli bo'lishi kerak.

O'qitishning tizimligi va ketma-ketligi talablari biologiyadan yaratilgan elektron resurslarda ham o'z aksini topishi juda muhim hisoblanadi. Bunda bilim, ko'nikma va malaka ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: o'quv materialini tizimlashtirilgan va strukturlashtirilgan holda tavsiya qilish; o'quv materialining har bir bo'limida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalarning rivojlanishini ham inobatga olish: o'rganilayotgan o'quv materialining fanlararo bog'liqligini ta'minlash; o'quv materiali va ta'lim beruvchi ta'sirlarining uzatilish ketma-ketligini chuqur o'ylab ko'rish; bilim berish jarayonini o'qitish mantiqi bilan aniqlanadigan ketma-ketlikda qurish; elektron resursda tavsiya qilingan axborotni, o'qitishning mazmuni va uslubi o'quvchining shaxsiy qobiliyatiga bog'liq holda tanlanishi kerak.



Biologiyadan elektron resurs yaratish jarayonida yuqoridagi tamoyillarga amal qilinishi ta'lim jarayonida tabaqalashtirish, individuallashtirish va loyihalashtirish orqali ta'lim sifatini oshishiga, o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish jarayonini va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonini samarali olib borilishiga asos bo'ladi.

Biologiyadan yaratilgan elektron resurslar :

– ta'limda o'qituvchining roli pasayib, o'quvchining mustaqil fikrlashishining ortishiga;

– o'rganilayotgan bilimlarning tezligiga;

– o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi erkinligiga;

– iqtisodiy jihatdan samaradorligiga;

– o'quv jarayonida audio, video, animatsiya, grafikalar asosida ta'lim berish natijasida o'quv materiallari xotirada uzoq muddatga qolishiga;

– olingan bilimlarning holisona baholanishiga imkon beradi.

Elektron vositalarni qo'llash asnosida: ta'lim oluvchilarning axborotlarni qabul qilish va qo'llash malakalari; vizual ko'rinishdagi verbal nusxalarni loyihalash ko'nikmalari; amaliy faoliyatida axborotlarni o'ziga xos tushunish va qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi;

– jahon ommaviy axborot vositalari bilan erkin muloqotini ta'minlaydi.

Ayniqsa, iqtidorli o'quvchilarning elektron resursdan mustaqil foydalanishi yoki ta'lim jarayonida o'quvchilarga axborot muhitini yaratilishi, o'quvchilarni nafaqat mavzuni oson o'zlashtirishini balki, ilmiy dunyoqarashining kengayishiga, muammolar yechimini aniq topishga va nostandart fikrlash ko'nikmalarining ortishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 3 maydagi PQ-4306 son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi tomonidan «O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi hujjatlari.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»¹gi (PQ-4996-son, 17.02.2021-y

4. Abdurahmonova I.Yu. Thy role of eletroni textbooks in teaching biology // Asian Journal of Multidimensional Research (A Double Blind Refereed & Peer Reviewed International Journal) DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00073.



ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Z.N. YULCHIEVA,

I.A.Karimov nomidagi TDTU v.b dotsenti

Mazkur maqolada respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oliy ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar, Internet tizimi, masofaviy o'qitish.

В статье определены приоритеты развития образовательного процесса на основе использования цифровых технологий в системе высшего образования страны, проведен анализ их возможностей. Он также предлагает предложения по социально-педагогическим условиям внедрения цифровых технологий в высшем образовании, а не только о важной роли в сфере образования через изучение, систематизацию и обобщение существующих практик для создания научных выводов.

Ключевые слова: цифровые технологии, информационные и коммуникационные технологии, система высшего образования, современное образование, цифровые знания, интернет-система, дистанционное обучение.

In this article, the higher education system of the republic application of digital technologies, analysis of their capabilities Priorities for the development of the educational process on the basis of detected. It also introduces digital technologies in higher education existing practice in drawing scientifically based conclusions not only in the field of education through study, systematization and generalization proposals on the socio-pedagogical conditions of its important role and in what form it is implemented.

Key words: digital technologies, information and communication technologies, higher education system, modern education, digital knowledge, Internet system, distance learning.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi".



Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir soʻz bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat obʻektlari, sifatli taʼlim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy pedagogik jarayonda axborotlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, maʼlumotlar boʻladi. Ularning tahlilidan soʻng esa toʻgʻri boshqarish boʻyicha yechim ishlab chiqiladi. Turli obʻektiv va subʻektiv sabablarga koʻra insoniyat tarixida ziyolilarning kamayishi, taʼlim darajasining pasayishi, kutubxonalarning berkitilishi jamiyatda turgʻunlik, buzilishni keltirib chiqargan va rivojlanishga salbiy taʼsir koʻrsatgan. Modomiki, shunday ekan, intellektual taraqqiyot tizimining bu komponentlari oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlik sotsiurnning barqaror rivojlanishi, yangi nazariyalar, bilimlar, innovatsiya va texnologiyalar amal qilishi, intellektual tajribalarning oʻzaro almashinuvi uchun oʻta zarurdir. Shubha yoʻqki, bugungi kunda jamiyat intellektual rivojlanishida yangi informatsion texnologiyalar insonning bilish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol oʻynaydi. Yangi shakllanayotgan informatsion kommunikativ muhit sotsial makonda intellektual kapital uchun rangbarang imkoniyatlar yaratadi. Interaktiv informatsion makonning muhim xususiyati shunda koʻrinadiki, elektron vositalar orqali eʼlon qilinayotgan kitob, gazeta va jumallar, ilmiy anjumanlar, maʼlumotlar bazasi va banki tez surʼatlar bilan oʻsib bormoqda. Shunday qilib, elektron asosda bugungi kunda informatsion va intellektual resurslar ishlab chiqarish, qabullash va saqlashda yangi informatsion muhit shakllanmoqda, ularning ayrimlari esa elektron kutubxonalarning raqamli kolleksiyalari, anʼanaviy kutubxona, arxiv, muzeylar bilan bir qatorda jamiyat intellektual madaniyati tarkibidan munosib oʻrin olmoqda. Samarali intellektuallashuvni sotsiurnda amalga oshirish uchun turli xalqaro ilmiy maktablar, umuman fan taraqqiyotini integratsiyalash va differentsiatsiya qilishda erishilgan tajribalardan foydalanish zarur. Jamiyat qurilishida bilimlar uchun fan, biznes va davlat oʻrtasidagi hamkorlikni ham davlat, ham kooperativ boshqarishdagi uygʻunlikni kuchaytirishga intilish muhim rol oʻynaydi. Bugungi zamonaviy ilmiy bilimlar aql bovar qilmas darajada rivoj topib, oʻz imkoniyatlari chegarasini kengaytirib bormoqda. Yangi texnologiyalar ishlab chiqilmoqda, yangi hodisalar kashf etilmoqda, yangi nazariya va bilimlar, yangi fanlar yuzaga kelmoqda. Ularni tadqiq etishning metodologik qurollari yaratilmoqda. Ilmiy potentsialning bunday darajadagi taraqqiyoti jamiyatning intellektual madaniyatiga hal qiluvchi taʼsir koʻrsatmoqdaki, sotsial makonda kashfiyotlar va tadqiqotlar, bilimlarni tarqatish va uzatishning butunlay yangi texnologiyalari yuzaga kelmoqda.



Bugungi kunda dunyo intellektual o'zgarishlar ostonasida turibdi. Chunki aynan intellektual madaniyat shaxs, tashkilot, sotsiумning rivoji va takomilini ta'minlaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun pandemiya sabab ta'lim muassasalarini yopgan mamlakatlarning 60 foizigina to'liq raqamli ta'limga o'tgan. Ba'zi xalqaro ekspertlar onlayn ta'limga to'liq o'tib bo'lmasiligi, bu jarayonga muammoli vaziyatdan chiqish yo'li sifatida qarash lozimligini, aks holda ta'lim sifati tushib ketishini ta'kidlasa, ba'zilar zamonaviy ta'lim uchun yangi davr boshlanganini e'tirof etmoqda. Ayrim davlatlar ziyolilari esa masofaviy ta'limga qamrab olishda ta'minot masalasini ilgari surmoqda. Internet manbalarida xabar berilishicha, bugungi kunda atigi o'nga yaqin davlatdagi talabalarning 95 foizida kompyuter bor. Indoneziyada esa 34 foiz yoshning internetdan foydalanishga sharoiti yetarli. Qolgan davlatlarda bu ko'rsatkich ancha past. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida ham bu ko'rsatkich yuqori darajada emas. Bunga sabab esa chekka hududlarda Internet infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligidir. Bu esa ayrim mutaxassislar taxmin qilayotganidek, ta'lim sifati tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi. Biz raqamlashtirishga tayyormizmi? Xavf-xatarni oldindan ko'ra bilish, uning natija hamda oqibatlarini to'g'ri baholay olish vaziyatdan talafotsiz chiqib ketishni ta'minlaydi. Dunyoda pandemiya tarqalishi ortidan mamlakatimizda iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish sohalariga singari ta'lim jarayoni uzluksizligini ta'minlash uchun ham kerakli choralar ko'rildi. Xususan, shu yilning 17 martida Prezidentimizning "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta'limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida ham MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC kabi masofaviy ta'lim platformalari hamda mobil telefon va planshetlar uchun Google Classroom, Ereader ilovalari ishga tushirilib onlayn darslar tashkil etilishi boshlandi. Bu jarayonning o'zi ham mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Sababi, shu kungacha hali hech bir o'quv markazi bunday tartibga o'ta olmayotgan edi. Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli yemas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta'limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir. Raqamlashtirish yo'nalishi bo'yicha faollashtirish barcha biznes tuzilmalarida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarida "tajovuzkor", ayniqsa iqtisodiy samarasi topilgan joylarda, barcha darajalarda qo'llab-quvvatlanmoqda.

Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas



va bo'lmashligi ham kerak. Bu avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo'lmish markerga o'zgartirish hech narsani o'zgartirmaydi, ya'ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo'la olmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT-kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O'qituvchining obro'si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. - Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 5-сон, 70-модда. // www.lex.uz
2. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1.
3. Abdullayev M., Ayupov R. (2020). Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb iynalishlari. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 1(23). izvlecheno ot <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2702>. 5. URL: <http://science-education.ru/ru/article/view?id=28507>



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA HAYOT XAVFSIZLIGI ASOSLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI

S.I.XUSANOVA,

p.f.n,dotsenti

*O'zbekiston Respublikasi Favqulodda
vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi
Fuqaro muhofazasi instituti*

Ushbu maqolada fanlararo tadqiqotlarning natijalarini jamlaydigan pedagogik konsepsiyaning mazmuni uzluksiz pedagogik ta'limning mohiyatini ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitishning metodlari va shakllari hamda ular tarkibiga kirgan aniq ta'lim texnologiyalari, pedagogning uzluksiz ta'lim jarayonining samaradorligi mezonlari, boshqaruv mexanizmlari kabi kategoriyalar orqali ochishda ko'riladi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining roli, ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, sohaga oid hukumat qarorlarining mazmun-mohiyati, bu boradagi olib borilayotgan izlanishlar; ilmiy-ommabop, o'quv-uslubiy va maxsus adabiyotlarning tahlili yoritilgan hamda ta'lim muassasalarida «Hayot xavfsizligi asoslari» kurslarida intellektual faoliyat mahsuli bo'lgan axborot resurslaridan keng foydalanish yosh avlodni ijodiy va kognitiv faoliyatiga tayyorlashdagi amaliy ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'quvchi, xavfsizlik, uzluksiz, axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, multimedia resurslari, ma'lumot, o'quv-ta'lim jarayonini, bilim, ko'nikma, malaka

В данной статье содержание педагогической концепции, обобщающей результаты научных исследований, рассматривается в раскрытии сущности непрерывного педагогического образования через такие категории, как цель, содержание, методы и формы обучения, а также конкретные образовательные технологии, входящие в них, критерии эффективности процесса непрерывного педагогического образования. Освещаются вопросы правильного и эффективного использования информационно-коммуникационных технологий в системе образования нашей страны, содержание и сущность государственных решений в данной области, проводимые в этой связи исследования, анализ научно-популярной, учебно-методической и специальной литературы, а также широкое использование информационных ресурсов, выделено практическое использование в образовательных учреждениях по курсу «Основы безопасности жизнедеятельности» информационных ресурсов при подготовке учащихся к творческой и познавательной деятельности.

Ключевые слова: образование, учащийся, безопасность, непрерывный, информация, информационно-коммуникационные технологии, интернет, мультимедийные ресурсы, информация, образовательный процесс, знания, умения, навыки.

In this article, the content of the pedagogical concept that summarizes the results of scientific research is considered in revealing the essence of continuing pedagogical education



through such categories as the purpose, content, methods and forms of teaching, as well as specific educational technologies that are included in them, criteria for the effectiveness of the process of continuous pedagogical education. The issues of the correct and effective use of information and communication technologies in the education system of our country, the content and essence of government decisions in this area, the research carried out in this regard, the analysis of popular science, educational and specialized literature, as well as the widespread use of information resources, the practical use of information resources in general education at the course « Bases of life safety» was highlighted in preparing students for creative and cognitive activities.

Key words: education, student, security, continuous, information, information and communication technologies, Internet, multimedia resources, educational process, knowledge, skills.

Uzluksiz ta'lim tizimida har tomonlama yetuk, ijodkor shaxsni tarbiyalash, o'quvchini uzluksiz rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini ta'minlashni taqozo etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida shaxsning rivojlanishi uzluksiz jarayon sifatida qaralib, unda o'quv jarayonining faqat bilish emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy talqin qilishni nazarda tutuvchi rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari bilan uyg'unlashgan. Bu esa ta'lim tizimining axborotli o'qitishdan produktiv ta'limga, xotiraga asoslangan ta'limdan faol o'zlashtirishga asoslangan ta'limga o'tilishini belgilab berdi.

Ta'limning uzviyligi – ta'lim mazmunining tizimliliigi, izchilligi va mantiqan bog'liqligi ta'minlanishi, Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim oluvchilar o'zlashtirgan bilimlarining keyingi bosqichlarda ko'nikma va malakalarga o'tishiga tayyorlashi, ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlashni talab qiluvchi prinsipdir. Uzviylikning mohiyati vaqt bo'yicha individuallashtirilgan, har bir shaxsga o'ziga mos bilim olish sharoitlarini yaratib bera oladigan ta'limga bo'lgan shaxs va jamiyatning ehtiyojlarini qoniqtirish zarurati bilan belgilanadi.

«Hayot xavfsizligi asoslari» kursini ta'lim jarayonida uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash murakkab jarayon bo'lib, ta'lim davlat standartlari mazmunini belgilash, Davlat ta'lim standartlari hamda tayanch o'quv rejalarini tuzish jarayonida ta'limning turli shakllarida fanlararo integratsion jarayonlarni ta'minlashni taqozo etadi.

Zamonaviy shaxs shu qadar ko'p axborotga egaki, u axborotlarni yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz ishlov berishi va ishlatishi mumkin emas. Taraqqiyot mevasi bo'lmish zamonaviy texnologiyalar insoniyatning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish maqsadida yaratilgan. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya



texnologiyalarining jadal rivojlanishi har soha taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Inkori etib bo'lmay bir haqiqat bor, bugungi davr vakilining o'z zamonasi texnologiyalaridan foydalana olmasligi, ularni o'z hayoti, kasbi va hunariga tadbiiq etmasligi nuqson sanaladi. Ta'kidlash joizki, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi-pedagoglarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan turli o'rinlarda unumli foydalanishlari ularning mahoratli mutaxassis ekanligidan dalolat beradi [2].

Zamonaviy texnologiyalar bir joyda to'xtab turmaydi. U muntazam takomillashgani sayin, tabiiyki, sohaning qonunchilik asoslari ham mustahkamlanib boraveradi. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ana shunday shiddatli davr talabiga hamohang ravishda o'z vaqtida qabul qilingan hujjat ekani bilan g'oyat ahamiyatlidir. Agar global nuqtai nazardan qaralsa, bugun bashariyat jahon iqtisodiyoti tarmoqlari, insonlar hayoti, turmush asoslari o'zgarishi bilan bog'liq qiziq davrni boshdan kechirmoqda. Bu barcha texnologiya, kompyuterlar internet orqali bir-biri bilan bog'lanib borayotgani ila izohlanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda qariyb besh milliard qurilma butunjahon "o'rgimchak to'ri"ga ulangan. Yaqin besh yil ichida ularning soni yigirma milliardga yetishi kutilayotir.

Axborot texnologiyalarining maqsadi – inson tomonidan tahlil qilish uchun axborot ishlab chiqarish va shu tahlil asosida biror harakatni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishdir.

Zamonaviy ta'lim muassasalarini uchun o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

- katta hajmdagi ma'lumotlarga kirishni ta'minlash;
- o'rganilayotgan materialni taqdim etishning (tasviriy) obrazli va ko'rgazmali shaklidan foydalanish;
- jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilish.

XX asr oxirida axborot texnologiyalarining rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar – shaxsiy kompyuterlar, Internet, elektron ommaviy axborot vositalari va kutubxonalar, mobil aloqa – ta'lim muassasalaridagi o'quv-ta'lim jarayoniga deyarli barcha fan sohalariga, shu jumladan, Hayot xavfsizligi asoslariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Xavfsiz tipdagi shaxsni shakllantirishda bilim, ko'nikma va malakalarning aniq amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda, «Hayot xavfsizligi asoslari» kursini o'rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir [1 b 162-163; 7 b 182; 8 b 404].

Ta'lim muassasalarida «Hayot xavfsizligi asoslari» kurslarini o'rganishda axborot texnologiyalaridan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin [3 b 9-10; 7 b 183; 8 b 404; 9 b 127]:

- 1) o'qitish jarayonini takomillashtiruvchi, uning samaradorligi va sifatini



oshiruvchi o'qitish vositalari;

2) atrofdagi voqeyelikni bilish va mustaqil o'qib bilim oltirish vositasi;

3) xavfsiz tipdagi shaxsni shakllantirishda ta'lim oluvchining shaxsini rivojlantirish vositalari;

4) o'quv-ta'lim jarayonini, ta'lim muassasalarini, ta'lim muassasalari tizimini axborot-metodik ta'minlash va boshqarish vositalari;

5) hayot xavfsizligi masalalarida ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar o'rtasida axborot almashish, shuningdek, ilg'or pedagogik texnologiyalarni tarqatish maqsadida aloqa vositalari;

6) nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, o'quv faoliyati natijalarini yaxshilash, «Hayot xavfsizligi asoslari» bo'yicha kompyuter testlari va ta'lim oluvchilarning psixodagnostikasi vositalari;

7) tajriba natijalarni (laboratoriya, namoyish) qayta ishlashni avtomatlashtirish jarayoni va o'quv jihozlarini boshqarish vositalari;

8) intellektual dam olishni va ta'limiy o'yinlarni tashkil etish vositalari.

Rossiya Federatsiyasi maktablarda amaliy mashg'ulotlar S. K. Shoygu, Yu.L. Vorobev tomonidan tahrir qilingan «Hayot xavfsizligi asoslari» SD-ROM TeachProTM multimedia darsligi asosida olib boriladi. Ular turli shakllarda (videofilm, matn, grafika, testlar, musiqa), taqdim etilgan audiovizual ma'lumotlarni integratsiyalash imkonini beradi, dinamikada hodisa va ob'ektlarni namoyish etish qobiliyati tufayli beixtiyor diqqatni rag'batlantiradi. Ma'ruza, seminar, laboratoriya ishlari, o'quvchilarning ma'ruzalari ko'rinishidagi mualliflik kompyuter taqdimotlari asosidagi tashkil etiladi.

Hayot xavfsizligi asoslarini o'qitishda zamonaviy multimedia texnologiyalarini joriy etish, turli xil favqulodda vaziyatlarni modellashirish va multimedia vositalarida virtual vaziyatlardan foydalanish orqali, tabiatda va jamiyatda, shu jumladan favqulodda vaziyatlarda, xavfli vaziyatlar yuzaga kelganda xavfsiz harakatlanish bo'yicha ta'lim oluvchi larga kundalik hayotda qo'llash uchun zarur bo'lgan keng qamrovli bilimlarni, ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirishga imkon beradi [3 b 11; 8 b 405].

Ta'limda multimedia imkoniyatlari chindan ham cheksizdir, chunki u ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini (ma'lumot olish, amaliy mashg'ulotlar, bilim va ko'nikmalarni baholash va nazorat qilish) ta'minlash imkonini beradi; yuqori interfaollik va multimedia tufayli o'qitishning faol-faoliyat shakllarini amalga oshiradi; ta'lim oluvchilarning funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish va mustaqil o'quv ishlarining samaradiligini oshiradi [5 b 432; 7 b 183].

Darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, xususan to'garaklarda hayot xavfsizligi asoslarini o'rganish jarayonida turli xil multimedia vositalaridan foydalanish, hayot xavfsizligi asoslari kurslarining asosiy tushunchalarini rivojlantirish va har xil turdagi vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, hozirgi holatni - turli xil oshib borayotgan tahdidlarni hisobga



olgan holda, shakllanayotgan tushunchalarni aniq tasvirlashga imkon beradi.

Ish tajribasi shuni ko'rsatdiki, kompyuter bilan faol ish olib boradigan ta'lim oluvchi larda mustaqil o'qish ko'nikmalari, axborot oqimida tez yo'nalishni aniqlash, eng asosiyini ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish qobiliyatlari yuqori darajada shakllanadi. Shuning uchun yangi kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlarini tushuntirishda o'qituvchining roli ham juda muhimdir. Ta'lim oluvchilar «Hayot xavfsizligi asoslari» kursidan internetdagi ta'lim resurslari saytlaridan faol foydalanadilar.

Y.I.Filimonenkovning «8-sinfda hayot xavfsizligi asoslari kursini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish» va A.A. Andreevaning «8-sinfda Hayot xavfsizligi asoslari darslarida multimedia vositalaridan foydalanish» mavzusidagi pedagogik tadqiqotlarning aniqlashtirish bosqichida 8-sinf «Hayot xavfsizligi asoslari» kursining mazmuniga mos ravishda axborot texnologiyalarini tanlash amalga oshirilgan [1 b 165; 3 b 10; 8 b 406; 10 b 288; 11 b 198-199].

«Hayot xavfsizligi asoslari» kursini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llashning didaktik xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: real global aloqa; madaniyatlararo ta'lim; qidiruv, o'qitishning tadqiqot turi; materiallarning zamonaviyligi; interaktivlik; multimedia; ta'lim oluvchilarning avtonomiyasi; hamkorlikda ishlash [4 b 353-354; 5 b 432; 11 b 200].

Uzluksiz ta'lim jarayonida hayot xavfsizligi asoslarini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llashning shaxsga yo'naltirilgan o'ziga xos xususiyatlari: keng qamrovli axborot resurslariga ochiq bo'lgan ta'limning mustaqilligi; taskari aloqaning mavjudligi, individual xususiyatlar, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda — bularning barchasi o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

Axborot texnologiyalari inson va jamiyatning intellektual, boshqaruv va ishlab chiqarish faoliyatining ko'pgina turlarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitlarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi kompyuter texnologiyalarini va axborot jarayonlarini avtomatlashtirishning unga tegishli usullari va vositalaridan foydalanishga asoslangan.

Uzluksiz ta'lim jarayonida hayot xavfsizligi asoslarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti an'anaviy o'qitish metodlaridan ushbu texnologiya bir qator afzalliklarga ega degan xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Uni qo'llash ta'lim oluvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, ish jarayonida hissiy zo'riqishini kamaytiradi, mustaqil ravishda bilim olish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, mavzu bo'yicha sinfdan tashqari ish shakllarini kengaytiradi, fanlararo aloqalarni amalga oshiradi va bilim sifatini oshirishga yordam beradi.

Demak, ta'lim siyosatining hozirgi asosiy maqsadi ta'lim oluvchi shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlarini qondiruvchi muhim va kelajakdagi rivoji uchun zarur yuqori samaradorlikka ega bo'lgan zamonaviy uzluksiz ta'lim berishga qaratilishi lozim. Ta'lim muassasalarida pedagoglar va rahbarlarining kasbiy omilkorligini rivojlantirish uchun ularni faoliyatini qo'shimcha pedagogik ta'limga jalb qilish, axborot-



kommunikatsiya texnologiyalari uzluksiz ta'limning har bir bosqichda o'qituvchining eng yaqin ko'makchisi, malakali pedagogning darsga tayyorgarlik ko'rishidan tortib, uni sifatli, qiziqarli va natijali o'tkazishgacha bo'lgan barcha jarayonlarda eng qulay vositasiga aylanishi hamda darsga tayyorgarlik ko'rishda kompyuter orqali didaktik, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, slayd va dars ishlanmalarini tayyorlashi, internet yordamida esa ularni turli qo'shimcha ma'lumotlar, qiziqarli surat, audio, video lavhalar bilan boyitishi dardor. Natijada dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llanilishi ta'lim oluvchilar dunyoqarashi, bilim va ko'nikmalarini ko'rish, eshitish va mustaqil bajarish orqali bilimlarini samarali o'zlashtirishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамова, В. Ю. Особенности курса методики обучения и воспитания безопасности жизнедеятельности. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2014. № 3–2. С. 162–165.
2. Алимова Г. Таълим тизимида ахборот-коммуникация технологияларининг ўрни ва қўлланилиши. «Biznes-Эксперт» FF 2015. №1 (85) Б.12-13.
3. Андреева, А. А. Использование средств мультимедиа в образовании школьников по безопасности жизнедеятельности // В сборнике: Современные подходы к работе с высокомотивированными старшеклассниками. Материалы V Всероссийской научно-практической конференции. 2016. С. 7–11.
4. Апатова, Н. В. Информационные технологии в школьном образовании / Н. В. Апатова. — М., 1994. — 354 с.
5. Бешенков, С. А. Информатика. Систематический курс. Учебник для 10 класса / С. А. Бешенков, Е. А. Ракитина — М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2001. — 432 с.
6. Иноят У.И. Заонавий электрон дидактик воситаларни яратиш, таълим жараёнида ахборот-коммуникацион технологияларни қўллаш долзарб ижтимоий-педагогик муаммо//Заонавий узлуksиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлр. ТДПУ.Халқаро илмий конференция материаллари тўплами. 27 апрел, 2018.Б.4.
7. Силакова, О. В., Виноградов, В. С. Использование игровых технологий в обучении школьников в курсе ОБЖ 5 класса как метод формирования навыков безопасного поведения. / В сборнике: Современные проблемы безопасности: направления, подходы и технологии. Сборник материалов XV Всероссийской научно-практической конференции. 2011. С. 181–183.
8. Силакова, О. В. Инновационные методы в профессиональной деятельности педагога-организатора основ безопасности жизнедеятельности. / В сборнике: Непрерывное педагогическое образование в современном мире: от исследовательского поиска к продуктивным решениям. сборник материалов Международной научной конференции: к 20-летию НИИ НПО Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. 2013. С. 401–406.



MULTIMEDIA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDA VIRTUAL BORLIQ TUSHUNCHASI VA UNI O'RGANISH

I.A.OXUNOV,

AnDU katta o'qituvchisi

Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishida virtual tushunchasi keng ma'noda qo'llanilmoqda. Masalan: virtual mashina, virtual xotira, virtual disk, virtual aloqa, virtual sayohat, virtual sinf va x.k. Mazkur maqolada virtual borliq va u bilan bog'liq ma'lumotlar, ulardan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida ilmiy maq'lumotlar aks etgan.

Tayanch so'z va iboralar: informatika, multimedia texnologiyalari, virtual borliq tushunchasi, kompyuter texnikasi, ta'lim tizimi, virtual olam.

The concept of virtual is widely used in the field of computer science and information technology. For example: virtual machine, virtual memory, virtual disk, virtual communication, virtual travel, virtual classroom, etc. This article provides scientific information about virtual beings and related information, and how to use them.

Key words: computer science, multimedia technology, the concept of virtual being, computer technology, education system, virtual world.

Informatika fanlari sohasida ham virtual tushuncha turli shakl va ma'nolarda qo'llanilib kelinmoqda va bir-biridan farqli ma'nolarni anglatadi. Masalan, multimedia tizimlarida virtual tushunchasi virtual borliq ma'nosini beradi. Virtual (lotincha Virtualis — mumkin bo'lgan, ya'ni muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan) tushunchasi narsalar va hodisalarning vaqt va makonda mavjud bo'lmagan, lekin ob'ektiv narsalar yoki sub'ektiv obrazlarning amalga oshirish ehtimoli mavjud bo'lgan jarayonni anglatadi.

«Virtual borliq» atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jaron Lanier tomonidan o'ylab topilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi. «Virtual borliq» atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko'ra tabiiy yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun'iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar. Virtual borliq — inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Bunda ob'ektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'zining maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi.

Virtual borliq amalda yo'q narsa, uni qo'l bilan tutish, uning ta'mi va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni



nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o'zgartira oladi. Virtual olam — inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir. Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta'sirida vujudga keluvchi his-tuyg'ular ko'p jihatdan uning o'zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho'milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo'luvchi histuyg'ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog'liq bo'ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas va h.k.

Virtual borliqni insonlar yaratadi. Shu bois virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig'irig'idan o'tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq ob'ektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat'iy nazar yashashda davom etadi, bu onnga har xil ta'sir ko'rsatadi, mazkur ongning mazmuniga - bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi. Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan sohada, fanda, jumladan fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini 46 modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda.

Muhandislik sohasida, ayniqsa, xavfli sharoitlarda: ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib boshqarishda virtual borliq keng qo'llanilmoqda. Kompyuter dizayni va uning ajralmas hamrohi - kompyuter ishlab chiqarishi raketalar va samolyotlar, avtomobillar katta binolar konstruksiyalarini sinovdan o'tkazishda yagona jarayonga birlashtirildi.

Yaqinda virtual kutubxonalar va muzeylar tashkil etish konsepsiyasi taklif qilindi. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo'ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va olib ko'zdan kechirishi, zarur holda esa ulardan nusxa ko'chirishi mumkin. Virtual muzey konsepsiyasi bir qadar boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan eksponatni uning tabiiy, uch o'lchovli ko'rinishida ko'rish imkonini beradi. Ammo bu tasviriy yechish qobiliyati ancha yuqori bo'lgan displeylarni taqozo etadi. Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo'lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

Virtual borliq – bu sun'iy hosil qilinadigan axborot muhiti bo'lib, u atrof-muhitni odatiy usulda tasavvurni turli texnik vositalar asosida hosil qilinadigan



axborotlar bilan almashtirishga qaratiladi. Ta'limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo'lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq. Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o'zini faraz qilishini tushunish lozim. Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi ob'ektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

Virtual borliq turlari:

- Passiv virtual borliq (passive virtual reality) - inson tomonidan boshqarilmaydigan avtonom grafik tasvirni tovush bilan kuzatilishi;
- Tekshiriluvchi virtual borliq chegaralangan miqdorda foydalanuvchiga taqdim qilinadigan ssenariy, tasvir, tovushni tanlash imkonining borligi;
- Interfaol virtual borliq treking vazifasini bajara oladigan maxsus qurilma yordamida yaratilgan dunyo qonunlari asosida virtual muhitni foydalanuvchi o'zi boshqara olishidir; Treking virtual muhitdagi real ob'ektning joylashishi koordinatalarini (x, y, z) va uni fazoda joylashishi burchaklarini (a, b, g) berishga mo'ljallangan.

Vitual borliqning insoniyat uchun ta'siri: - inson hayotini tashkil qilishda va tartibga solishda; - insonlar o'rtasidagi aloqaning yangi shakli; - hayotning asosiy sohalar siyosat, iqtisod, san'at va turizm sohalariga ijobiy ta'siri borligi; - virtual olam bilan inson o'zining tartib qoidalari va o'z muhitini yaratish mumkinligi; - hayot va virtual borliq o'rtasidagi aldanish mavjudligi.

Vitual borliqning rivojlanishida uch o'lchovli muhit va internet texnologiyalarining imkoniyatlarining rivojlanganligi katta ta'sir 49 o'tkazdi. Natijada, turli sohalarida virtual reallik ishlatila boshladi. Masalan: - kino olamida 1982 yil yaratilgan TRON nomli rasml film, bu sohada katta qadam bo'ldi. Hozirgi vaqtda virtual realliksiz bu sohani tasavvur qilish qiyin. - 2009 yil BBS radiosi tomonidan yaratilgan virtual drama bu sohada ham kelajagi bor ekanligini anglatmoqda; - san'at sohasida 1970 yil David Em o'zining birinchi virtual ko'rgazmasi bilan ushbu atamani imkoniyatlarini ochib bergan; - musiqa sohasida ham elektron musiqa asboblari virtual reallik imkoniyatlarning mahsulidir.

Virtual borliqni hozirda internet texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Internet – XX asr mo'jizasi. Kim orqada qolib ketsa, keyin virtual dunyo taraqqiyotiga yetolmaydi. Internet – insoniyat qabul qilishining yangi o'lchami. Uni egallash bir tomondan oson, ikkinchi tomondan murakkab. Uning osonligi shundaki, dasturlarning eng osoni oddiy brauzerdan (hammma kompyuterda mavjud bo'lgan "Internet Explorer" brauzerdan) foydalanishni bilsangiz kifoya. Internetni barcha xizmatlaridan foydalanish uchun bu dastur yetarli. Buning uchun, 50 birinchidan, Internet xizmatlaridan foydalanish bo'yicha bilim va malaka talab qilinadi,



ikkinchidan, tarmoqdagi xizmat va ma'lumotlar asosan horijiy tillarda berilgan. O'zbek tilida joriy qilingan xizmatlar, nashr qilingan ma'lumotlar hozircha ko'p emas.

Internetda ham hayotdagidek barcha voqea va hodisalarda real va virtual ishtirok etishingiz mumkin. Virtual borliq deb real dunyoni kompyuter simulyatsiyasi orqali yaratilgan muhitiga aytiladi. Virtual borliqning asosiy 3 ta xususiyati mavjud. Ular:

- ta'sir doirasining kengligi;
- yuqori vizuallashtirilganligi;
- uch o'lchovli muhit.

Mavjud hayotdagi bor narsalar Internetda – umumjahon kompyuter tarmog'ida ham mujassam. Uni mukammal egallasangiz: xat yozib, javobini soniyalarda olasiz; tanishib, davra suhbatlar qurasiz, seminar, konferensiyalarda qatnashasiz; sirtqi o'quv yurtlarda ta'lim olasiz; til o'rganib, xorijiy matnlarni tarjima qilasiz, lug'atlardan foydalanasiz; ajoyib umumjahon ensiklopediyalaridan foydalanasiz; kitob, gazeta va boshqalarni o'qiysiz, uyingizda dunyo kutubxonasi bo'ladi; uyingizda o'tirib biznes va ijod bilan shug'ullanasiz; pulli va pulsiz amallar bazarasiz; dunyoga sayohat qilasiz; virtual (xayoliy) hayotga kirasiz va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Литвиненко, М. В. Направления развития системы подготовки специалиста в условиях информатизации образования [Текст] / М. В. Литвиненко, Н. И. Рыжова // Информатика и образование. – 2007. – № 7. – с. 119-121.
2. Каракозов, С. Д. Подготовка системного аналитика информационно-образовательных систем [Текст] / С. Д. Каракозов, Н. И. Рыжова // Успехи современного естествознания. – 2004, -№ 5. – С. 258.
3. Рыжова, Н. И. Направления формирования профессиональной готовности будущего специалиста к информационно-аналитической деятельности [Текст] / Н. И. Рыжова, В. И. Фомин, Е. В. Филимонова // Мир науки, культуры, образования. – 2009. – № 3. – С.247-251.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK VA MA'NAVIY-MA'RIFIY OMILLARI

A.I. SAIDOV,

*Samarqand davlat chet tillar instituti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Maqolada yoshlarda sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik va ma'naviy-ma'rifiy omillari psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada yoshlarning sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish bo'yicha psixologik tavsiyalar o'rta tashlanadi.

Tayanch so'zlar: *Sog'lom turmush tarzi, salomatlik, tasavvurlar, yoshlar ma'naviyati, jismonan sog'lom, aqlan barkamol, axloqiy talab va me'yorlar, ijtimoiy muhit, hayot darajasi.*

В статье анализируются социально-психологические и духовно-просветительские факторы формирования представлений о здоровом образе жизни у молодежи. А также, в статье предлагаются психологические рекомендации по формированию представлений молодежи о здоровом образе жизни.

Ключевые слова: *Здоровый образ жизни, здоровье, воображение, молодежная духовность, физически здоровый, психически здоровый, моральные требования и нормы, социальная среда, уровень жизни.*

The article analyzes the socio-psychological and spiritual-educational factors in the formation of ideas about a healthy lifestyle among young people. And also, the article offers psychological recommendations for the formation of young people's ideas about a healthy lifestyle.

Key words: *Healthy lifestyle, health, imagination, youth spirituality, physically healthy, mentally healthy, moral requirements and norms, social environment, standard of living.*

Sog'lom turmush tarzi insoniyat oldida turgan eng muhim muammo ya'ni, jismonan sog'lom, aqlan barkamol, axloqan yangi avlodni shakllantirish, aholining mehnat qilishi, dam olishi va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishiga yordam beruvchi ijtimoiy jihatdan oqilona bo'lgan turmush tarzidir [2].

Sog'lom turmush tarzi kishilarning hayot darajasi bilan salomatligi, kayfiyati, intilishlari, ishonchi, kundalik o'zgarishlarning qay darajada xalqimizning ehtiyojini qondirishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti darajasi, eng muhimi yosh avlod tarbiyasining yuksak samaradorligini ta'minlaydigan chora-tadbirlar bilan bog'liq.

Sog'lom turmush tarzi aholining farovonlik darajasini oshirish, sog'liqni saqlash va maishiy xizmatni yaxshilash, demografik jarayonlarni maqbul holatga keltirish, oilaning ma'naviy madaniyati, sog'ligi, axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi o'sib borishi



va ijtimoiy mehnatdagi faolligi bilan belgilanadi [3]. Sog'lom turmush tarzi mehnat, turmush va dam olish, shaxslararo munosabatlar madaniyati, ekologik madaniyat, o'z organizmini fiziologik jihatdan maqbul holatda saqlash, shuningdek, atrofda qililgan salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi kompleks omillarni o'z ichiga oladi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda sog'lom turmush tarzining muhim shartlaridan biri bo'sh vaqtni o'tkazishni to'g'ri tashkil etish. Bolalar, ayniqsa o'smirlar bo'sh vaqtini ota-onalari bilan birga kinoteatr, parklarga yoki turli sayilgohlarda o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, har qanday nazoratsiz qoldirilgan farzand albatta zararli odatlarni o'rganadi. Ayniqsa, 11-15 yoshdagi o'smirlarda tamaki chekish, spirtli ichimliklarni tatib ko'rish, narkotik moddalarni "kayf" qilishi haqidagi hikoyalardan keyin ularni o'zida sinab ko'rishga qiziqish kuchayadi. Bundan tashqari bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining tez suratlarda o'sishi, ya'ni kompyuterlar, uyali telefonlar, Internet kabilar ham nazoratsiz qolgan yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi sir emas.

Ma'lumki, yoshlarda sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi va ijtimoiy muhit o'rtasida o'ziga xos ta'sir doirasi mavjuddir. Ushbu o'zaro ta'sir mexanizmi nazarimizda uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, nosog'lom ijtimoiy muhit bilan shaxsning o'zaro aloqalari o'smirlarda ijobiy qarashlarning salbiylashuviga olib kelsa, ikkinchidan, shaxs va nosog'lom ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro aloqa kishiga ijtimoiy me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan muayyan yo'l-yo'riqni, xususan g'ayriinsoniy vazifalarni bajarish bo'yicha rollarni taqsim etadi. Uchinchidan esa, g'ayriinsoniy yo'l-yo'riqlar va rollar taqsimoti yoshlarda asta-sekin ijtimoiy muhit talab va me'yorlariga nisbatan deformatsiyalashuvning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ushbu deformatsiyalashuv shaxs ongida o'ziga xos salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmagan aksariyat yoshlar ijtimoiy muhitga nisbatan deformatsiyalashuv pog'onasida bo'ladilar.

Kuzatishlarimizga qaraganda, sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmagan aksariyat yoshlar ijtimoiy foydali mashg'ulotlarda qatnashmaydiganlar, gazeta, jurnal yoki badiiy adabiyotlar o'qimaydiganlar hissasiga to'g'ri keladi. Demak, yoshlarda sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar va tushunchalarining shakllanishi ularning ilmga, ijtimoiy foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari va eng asosiysi sog'lom turmush tarziga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanishiga ko'p jihatdan yordam beradi.

Qolaversa, ijtimoiy foydali mashg'ulot bilan shug'ullanish, kitob, gazeta o'qish, teatrlarga borish yoshlarda ijtimoiy foydali ijobiy pozitsiyalarning va ustanovkalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Aksincha holatlarda esa yoshlar ongida salbiy pozitsiya va ustanovkalarning shakllanishiga imkoniyat tug'iladi. Bunday qarash va ustanovkalarga ega bo'lgan yoshlarda sog'lom turmush tarziga rioya etish tasavvurlari va ko'nikmalari sust rivojlangan bo'ladi.



Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, hech qaerda o'qimaydigan, ishlaymaydigan yoshlar sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmagan yoshlarning yadrosini tashkil qiladi. Bundaylar qandaydir kasallikka chalinganlaridan so'nggina, "o'zimning bee'tiborsizligim tufayli shunday holatga tushdim", "vaqtida buning oldini olmabman" singari afsus va nadomatli gaplarni ta'kidlashlari, yoshlarda sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarning etarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, shaxs tipi hamda uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi darajasi ham sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishida o'ziga xos tarzda o'rin tutadi. Ma'naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganlik va shaxs tipidagi o'ziga xos xususiyatlar esa (o'zgaruvchan xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va boshqalar) yoshlarda sog'lom turmush tarziga e'tiborsizlikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ehtimolligi sxemasi



Ushbu vaziyatni psixologik jihatdan kengroq tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, shaxsning ma'naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganligi, ma'rifatsizligi hayotda uchraydigan turli xil nizoli vaziyatlarni o'tkir va kuchli boshdan kechirishga olib kelishi hamda uning ma'rifatsizligi tufayli sog'lom turmush tarziga rioya qilmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, yoshlar shaxsidagi ma'naviy-axloqiy sifatlarining sust rivojlanganligi esa o'z salomatliklariga bee'tiborilik, qiziqmaslik holatlariga sabab bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, xalqimiz uzoq yillar mobaynida evropacha turmush tarzini boshidan kechirdi. Bir necha ming yillik urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va milliy tarbiya usullari o'miga evropacha tarbiya madaniyati kirib keldi. Ular ba'zan tazyiq orqali ham kiritildi. Natijada xalqimiz tarixan shakllangan boy madaniy va ma'naviy merosidan, oilaviy tarbiya usullaridan ayrildi.

Nazarimizda bunday holat, bugungi kunda o'zbek oilalaridagi tarbiya samarasiga qaysidir ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmoqda. Natijada oilaviy tarbiyaning ta'sirchanlik roli pasayib, ota-ona va bolalar o'rtasidagi



munosabatlar keskinlashib bormoqda. Oilalarda mehr-oqibat, kichiklarga izzat, kattalarga hurmat kamayib kuzatilmoqda. Bu oxir oqibat atrofga, jamiyatga ham ta'sir eta boshladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, bugun ko'cha-ko'yda yoshlarning o'zini tutushlari, muomala munosabatlari ba'zan kishining g'ashini keltiradi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, oilalarda ota-ona hamda farzand o'rtasidagi munosabatlarda o'ziga xos samarasiz usullardan foydalanilmoqda. Jumladan, ota-onalar ba'zan farzandlariga o'ta-darajada mehr qo'yadilar. Ularni asrab avaylaydilar, e'zozlaydilar. Ularga gard yuqtirmaslikka harakat qiladilar. Aytgan yoki istagan narsalarni muhayyo qilishga intiladilar. Bir qarashda ota-ona shunday qilsa nima qilibdi deysiz. Ammo ota-onalarning bolalarga bunday munosabatlari bolalarda salbiy hislatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ota-onasi tomonidan ko'rsatilayotgan bunday munosabat natijasida bolada manmanlik, birovlarini mensimaslik, tayyorga-ayyorlik, mehnatning qadriga etmaslik, sabr-toqatsizlik kabi salbiy hislatlar paydo bo'lmoqda. Bunday hislatlarga ega bo'lgan bolalarda o'zbek xalqiga xos bo'lgan mehnatsevarlik, olijanoblik, o'zgalarni hurmat va e'zozlash, mehnatning qadriga etish hislatlari shakllanmaydi. SHuningdek, ularda maqtancholik, birovlarining ustidan kulish, nochorligini yuziga solish odatlari ham kuzatiladi. Bunday ruhda tarbiyalangan bolalar muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish, muayyan qarorlarga kelish borasida ham qiyinchiliklarga uchraydilar. Bundaylar o'z tengqurlari bilan kelisha olmasliklari, do'stlari doirasining torligi tufayli ko'pincha tengdoshlaridan yakkalanib qoladilar.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, nosog'lom turmush tarzi asosida yashayotgan yoshlar yashayotgan oilalarda aynan shunday xususiyatlarning mavjudligi kuzatildi. Ammo, bundan tashqari bunday oilalarda nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi, qat'iy hayotiy maqsad va yo'nalishning, oila a'zolari o'rtasida bir-biriga nisbatan izzat-hurmat, mehr-oqibatning yo'qligi, oilaning tarbiyaviy ta'sirchanlik darajasining pasayib ketganligi, oilada ota ta'sirining yo'qligi yoki pasayishi, oilada farzandlarga milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning yo'qligi hamda oilada bolalar tarbiyasiga qariyalarning jalb etilmasligi va shu kabi bir qator nuqsonlarning mavjudligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ананьев В.А. Основы психологии здоровья. Книга 1. Концептуальные основы психологии здоровья. – СПб.: Речь, 2006. – 132 бет.
2. Арзикулов Р.У. Соғлом турмуш тарзи асослари. - Т.: 2005 – 36 бет.
3. Березовская Р.А. Отношение к здоровью // Здоровая личность / Под ред. Г.С. Никифорова. - СПб.: Речь, 2013. – Б. 214-244.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO'NALISHLARI

B. U. MINGBAYEVA,
TShXTXQT MOXM "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrası katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik muayyan prinsiplarga tayanishi lozimligi, o'quvchilarni badiiy adabiyot namunalariga qiziqitirish orqali ularda ideallar, dunyoqarashga asoslangan qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoniyatlari, bu jarayonda o'qituvchining vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, kitobxonlik, badiiy adabiyot namunalari, qiziqish, o'quv predmetlari, pedagogik-psixologik yo'nalishlar, dunyoqarash, kitob bilan muloqot, qadriyatlar tizimi, motivatsiya, hissiy yo'nalganlik.

В данной статье анализируются педагогические и психологические направления формирования интереса к образцам художественной литературы у учащихся младшего школьного возраста. Также в статье высказывается мнение о необходимости индивидуально-ориентированного чтения с опорой на определенные виды печатной продукции, о возможности формирования системы ценностей, основанной на идеалах, мировоззрении, через которое учащиеся интересуются примерами художественной литературы, о задачах учителя в этом процессе.

Ключевые слова: учащиеся младшего школьного возраста, чтение, примеры художественной литературы, интерес, предметы изучения, педагогико-психологические направления, мировоззрение, общение с книгой, система ценностей, мотивация, эмоциональная направленность.

Annotation. In this article, the pedagogical and psychological directions of the formation of interest in samples of art literature in junior school age students are analyzed. Also in the article there is an opinion about the need for individual-oriented reading to rely on certain types of prints, the possibility of forming a system of values based on ideals, worldview, through which students are interested in examples of artistic literature, the tasks of the teacher in this process.

Base words: pupils of small school age, reading, examples of fiction, interest, subjects of study, pedagogical-psychological directions, outlook, communication with the book, system of values, motivation, emotional orientation.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari[2] tizimli-faoliyatli yondashuv asosida tuzilgan bo'lib, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday shaxs axborotlar oqimi jadallashayotgan mikrosotsiumda munosib harakatlanish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Ular istiqboldagi hayotiy faoliyatlari jarayonida konstruktiv



muloqotga kirishish, hamkorlik ko'nikmalarini namoyon etish, o'quv-biluv topshiriqlarini samarali yechish imkoniyatiga ega bo'lishlari nazarda tutiladi. Bunday vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun o'quvchilar boshlang'ich sinflardan boshlab kitoblar yordamida o'qish va badiiy asarlarni tushunish madaniyatiga ega bo'lishlari lozim.

O'qituvchining vazifalaridan biri o'quvchilarning nima uchun kitob o'qishni xohlamasliklarini aniqlashdan iborat. Shundagina pedagoglar o'quvchilarda o'qish motivatsiyasining qachon va qanday hosil bo'lishini aniqlashga erishadilar.

O'quvchilarda badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishini bir qator sabablar bilan izoxlash mumkin:

– Ommaviy axborot vositalari ta'sirining kuchayishi, o'quvchilarning soatlab televizor va kompyuter qarshisida o'tirishlari;

– Farzand tarbiyasiga befarq oilalar sonining ko'payishi, ularda farzandlarning ma'naviy-axloqiy, intellektual rivojlanishiga e'tibor qaratilmasligi;

– Kattalarning bolalar bilan birgalikda kitob o'qishga bo'lgan intilishlarining to'liq namoyon bo'lmashligi, 1-sinfqa qadam qo'ygan o'quvchilarga kattalar tomonidan kitoblarning o'qib berilmasligi, rang-barang badiiy asarlar bilan o'quvchilarni tanishtirish yo'nalishidagi faoliyatning mavjud emasligi, kattalarning o'qishni bilganidan keyin o'zi o'qishi kerak qabilida ish tutishlari va h.k.

Badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishning namoyon bo'lmashligi bolalarning kun bo'yi yolg'iz qolib, ota-onalarini kutishlari, zerikishlari, ular qachon keladi degan xadikda yashashlari bilan ham izoxlanadi. Bunday holat 7-10 yoshli o'quvchilarni befarqlikka olib keladi. Ularda nafaqat badiiy adabiyot namunalari o'qishga balki boshqa faoliyat turlariga nisbatan ham qiziqish susayadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni muayyan faoliyatga qiziqitirish uchun ularning fantaziya qilishlari, muayyan rasmlar chizishlari, ijodiy yondashgan holda turli buyumlarni yasashlari uchun qulay sharoit yaratish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyot namunalari nisbatan qiziqishni shakllantirish uchun dastlab ularda o'qish motivlarini hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki motivlar faoliyat manbai bo'lib, o'quvchilarda muayyan harakatlarni amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltiradi va qiziqishlarning qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Kichik maktab yoshi badiiy asarlarga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarda ularni o'qish istagini vujudga keltirish uchun qulay davr hisoblanadi.

O'qilgan matnni hissiy idrok etish muallifning tuyg'ularini anglashlari uchun o'quvchilarga o'qituvchining xis-tuyg'ulariga boy nutqi ko'maklashadi. O'qituvchining bunday nutqi o'quvchilarda badiiy asarlarni o'qish motivlarini qo'zg'ab, kitobxonlikka undaydi.



S.L.Rubinshteyn[3]ning ta'kidlashicha, matnni yaxlit tarzda anglash fikriy faoliyat maxsulidir. Matnda ob'ektiv tarzda aks etgan holatlar o'quvchi ongida sub'ektiv tarzda o'z ifodasini topadi. Bu o'quvchining shaxsiy-fikriy faoliyati mahsuli hisoblanadi.

A.P.Kashkarov[4] esa o'quvchilar kitobxonligini tavsiflab, uni shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik tarzida rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. U shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik quyidagi prinsiplarga tayanishi lozimligini ko'rsatib o'tgan:

1. Har bir kitobxonning betakrorligini tan olish. Barcha kitobxonlar yoshi, hayotiy tajribasi va ko'plab omillarga ko'ra kitobxonlikka turlicha yondashadi. U kitobga va mazkur faoliyat natijasiga nisbatan individual munosabatni ifodalaydi.

2. Har bir kitobxon boshqa shaxslarning ham betakrorligini tan oladi. Kitob muallifi, atrofdegilar va kutubxonasining betakror qadriyat ekanligini tushunib yetadi.

3. O'quvchi kitob vositasida badiiy asar qahramonlarining harakatlarini tahlil qiladi. Ularning nuqtai nazarlari va faoliyat motivlarini o'zini kabi qabul qiladi. Shu orqali o'quvchi o'zining ijtimoiy rolini namoyon etadi. Kitobxon va muallif orasidagi munosabat o'quvchida nuqtai nazarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

4. O'quvchi badiiy asarni o'qishi, insoniyat erishgan yutuqlar bilan tanishishi natijasidagina, o'zi o'rganayotgan hodisalar, jarayonlar, narsalarning mohiyatini anglab yetadi. Natijada o'quvchi tarixiy-madaniy boyliklar bilan munosabat o'rnatadi, ularni o'zlashtiradi. Atrofdegilar va asar qahramonlari bilan aloqaga kirishish jarayoni amalga oshadi. Shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik natijasida o'quvchida madaniy boyliklarga egalik, tolerantlik, pozitiv xulq-atvor ko'rinishlari shakllanadi.

5. Shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik g'oyasi barcha yosh davrlarda vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar kitobxonligi, ijodiy kitobxonlik, rivojlantiruvchi kitobxonlik va bilishga asoslangan kitobxonlik o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday kitobxonlik natijasida o'quvchilarda shaxsiy sifatlar tizimi shakllanadi, badiiy adabiyot namunalariga nisbatan kuchli qiziqish vujudga keladi[4; 26-29-b.].

Shu tariqa shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik haqida ushbu maqsadga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyatni diagnostika qilish natijasida fikr yuritish mumkin. Bunda o'quvchi shaxsining individual, tabiiy, shaxsiy sifatlariga e'tibor qaratiladi. O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro hamkorligi natijasida ushbu prinsiplarni amalga oshirish va insonparvarlikka asoslangan yondashuv doirasida o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga nisbatan qiziqishni shakllantirish mumkin.

Motivatsiyaga to'g'ridan-to'g'ri ichki ziddiyatlar orasidagi aloqadorlik ta'sir ko'rsatadi. Bunday aloqadorlik sirasiga kitobxon ongidagi qarama-qarshiliklar, faoliyatidagi qarama-qarshiliklar, kitobxon muloqotidagi qarama-qarshiliklar kiradi. Kitobxonlik darajasining rivojlanishi orasida zaruriylik va erkinlik, ehtiyojlar dinamikasi



va qonuniyatlari orasida qiziqishlarning rang-barangligi, ustanovkalarning izchilligi kuzatiladi. Shaxs kitobxonligini rivojlanish aspektlari quyidagilardan iborat: stereotiplik-tabiyylik, reproduktivlik-ijodiy maxsuldorlik, evolyusion-involuyusion, jo'shqin-dinamik, qulay-noqulay. U 3 soxada amalga oshadi: kitobxonlik ongi, kitobxonlik faoliyati, kitob bilan muloqot. Kitobxonlik uch darajada namoyon bo'ladi: dolzarb, dolzarblashuvchi va potentsial. U uch yo'nalishda amalga oshiriladi: stixiyali, maqsadga yo'naltirilgan, mustaqil boshqariladigan.

Kitobxon shaxs jamiyatda muayyan mavqega ega bo'ladi. Kitobxonlikning rivojlanishi bilan bog'liq holda shaxs ijtimoiy-psixologik rollarni bajaradi. U o'zining rang-barang ehtiyojlarini ongli tarzda turli badiiy asarlarni o'qish orqali qondiradi.

L.V.Nitalimova[5]ning fikricha, kitobxonning shaxsiy qiziqishlari tarkibida bir qancha boshlang'ich darajalar mavjud:

- sotsiologik: shaxsning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari, ijtimoiy mavqei va ijtimoiy nuqtai nazarlari.

- Ijtimoiy-psixologik tarkibiy yo'nalishlari: shaxsning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, qadriyatli yo'nalishlari, ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari, ustanovkalari.

- Tajribaning ijtimoiy-psixologik-pedagogik tarkibi: shaxsning hayotiy, kitobxonlik tajribasi, umumiy kasbiy bilimlari, umumiy intellektual va nutqiy ko'nikmalari, malakalari, odatlari, kitobxonlik mazmuni va madaniyati, kommunikativ mahorati.

O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqishning barqarorligi ularda kitobxonlik faoliyatining muntazam rivojlanishiga asos bo'ladi. O'quvchilarning badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqishlari ularda kitobxonlik faoliyatining kuchli tarzda namoyon bo'lishi, chuqur anglangan holda amalga oshirilishi, muntazam davom etishi, barqaror shakllanishi, fikrlarning boyishiga ko'maklashishini ta'minlaydi.

Badiiy adabiyot namunalarini o'qishga nisbatan qiziqishning barqaror bo'lmashligi tashqi omillarning ta'siri bilan bog'liq.

O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Ijobiy va salbiy;
- Tashqi va ichki;
- Barqaror va nobarqaror.

Kitobxonlik mayllari ijtimoiy, tor shaxsiy va bilishga asoslangan bo'ladi. Ijtimoiy mayllar burch hissi, boshqadan orqada qolmaslikka intilishda ko'rinadi. Tor shaxsiy xarakterga ega bo'lgan mayllar esa atrofdagilarning e'tirofi, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish yo'li, o'z-o'zini takomillashtirishga intilishida o'z aksini topadi. Bilish mayllari esa yangi bilimlarni o'zlashtirish istagi, o'z dunyoqarashini



kengaytirish ehtiyoji bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- Kitobxonlikka nisbatan ijobiy xis-tuyg'ularga boy munosabat;
- O'quvchilarni faol tarzda bilish va shaxsiy faoliyatga yo'naltirishga asoslangan kitobxonlik faoliyati;

- Mazkur yo'nalishlarning barqaror xarakterga egaligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy adabiyot namunalariga qiziqishlarining yuqori darajasiga erishish quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Kitobxonlik faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat;
- Muayyan badiiy asarlarga qiziqish;
- Kitobxonlik jarayonini kengaytirish va unga o'quvchilarni jalb etish;
- Kitob bilan muloqot jarayonidagi qoniqish xissini sinfdoshlari, o'qituvchilari va ota-onalari bilan bo'lishish kabilar.

Foydalanilgan manbalar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 январдаги Китоб махсулотларини chop этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш буйича комиссия тузиш тўғрисида”ги Фармойиши / “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 13 январь.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли Қарори // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 14-сон, 230-модда.

3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2010. - 713 с.

4. Книга о детском чтении, в которой затрагиваются не детские темы. На страницах книга с двух углов зрения (родителя и ... Автор: Кашкаров Андрей Петрович Издательство: Феникс Год издания: 2013.

5. Ниталимова Л.В. Развитие читательского интереса младших школьников / Л.В. Ниталимова, С.Н. Семенова. – М.: Ментор, 2007.

6. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. - Тошкент: Фан, 2006. - 112 б.



PEDAGOGIK JAMOANING INNOVATSION IMKONIYATLARINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

G.K. JOBBOROVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrası katta o'qituvchisi

O'qituvchi avvalo bola qalbiga yo'l topa oladigan, uning individual psixik rivojlanishi qonuniyatlari biladigan tarbiyachidir. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi, o'z vazifasining mohiyatiga chuqur tushungan, davlatimizning maktab, maorif haqidagi qonun va ko'rsatmalarini yaxshi bilgan, har jihatdan yetuk shaxs bo'lmog'i lozim.

Kalit so'zlar: *pedagogik jamoa, ta'lim tizimi, uzluksiz ta'lim, o'qituvchi shaxsi, innovatsiya, innovatsion muhit, pedagogik va psixologik omillari.*

Zamon ruhiga mos, har tomonlama yetuk, faol yoshlarni tarbiyalash davr talabidir. Bunday ulkan mas'uliyatli vazifani bajarish ota-ona, jamoatchilik, bog'cha, maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlari xodimlarining muqaddas burchidir.

Buyuk davlatga buyuk mutaxassislar kerak. Unga zamin maktab partasida tayyorlanadi. Demak, iste'dodning ko'zini ochmoq kerak. Shundagina bola o'z qiziqishi va qobiliyatiga mos kasb tanlaydi, o'z faoliyatiga ijodiy yondoshadi, bahtli xayot kechiradi, jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Odamni mustaqil mutoalaga, mustaqil mushoxada yuritishga, fikirlashga, o'qishga o'rgatuvchi ham, oddiy va elementar tushunchaga ega bo'lgan bolada ilmiy tushunchalarni shakillantiruvchi ham – o'qituvchidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, obro', shon – shuhrat o'z – o'zidan kelmaydi. Pedagogik jamoaning, o'qituvchining chinakkam obro' – e'tibor qozonilishi uchun eng avvalo kasbga chuqur mehr va muhabbat, zarur e'tiqod, har tomonlama puxta bilim, pedagogik va metodik mahorat, tinmay izlanish va ijodiy mehnat talab etiladi.

Mustaqil Respublikamiz kelajagi, ravnaqi talim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlar, uni davr talablari darajasiga ko'tarishga yo'nalgan ishlarning qay tarzda olib borilishiga bog'lik. Shu bois ham mamlakatimizning istiqbol yillaridagi dastlabki qadamlaridanoq talim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uni tubdan isloh qilish masalalariga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Ta'lim-tarbiya tizimini milliy xususiyatlarimiz va zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarish ilg'or o'qitish uslublarini, vositalarini, yangi pedagogik innovatsiyalarni, bir so'z bilan aytganda, yangiliklarni samarali joriy qilishni taqozo qiladi.

Keyingi yillarda ishlab chiqarish, talim va ijtimoiy sohalariga yangilik kiritish jarayoni fanda innovatsiya atamasi bilan ifodalanmoqda. Innovatsiya tushunchasi keng va tor manoda ishlatiladi. Birinchi manoda innovatsiya – biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, yani yangilikni



yaratish, tarqatish va qo'llashni o'z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi. Innovatsiya ikkinchi manoda biror bir jamoa faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va innovatsiya subekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yangi vosita, uslub yoki yondoshuvlar tizimiga nisbatan ishlatiladi.

Hozirgi kunda talim tizimiga ko'plab ilg'or, zamonaviy yangiliklar kiritilmoqda, lekin barcha yangiliklar ham kutilgandagidek samara bermoqdami? Afsuski, bu savolga javob berishga ko'pincha qiynalib qolamiz. Buning sabablaridan biri odatda yangilikni qarsaklar bilan kutib olishimizdir (ba'zan rasman yoki yuzaki bo'lsa ham). Ammo bu «joriy qilingan yangilik» kutilganidek samara berishiga kelganda yetarlicha etibor berilmaydi. Nazarimizda, ikkinchi muhim sabab talim sohasiga yangilik kiritishga ilmiy-amaliy yondashuvning ishlab chiqilmaganligi, yangilik kiritishning tashkiliy, boshqaruv va ijtimoiy-psixologik jihatlarini yetarlicha ilmiy o'rganilmaganligidir. Shu bois innovatsiya jarayonining boshqaruv va ijtimoiy-psixologik muammolarini o'rganish juda dolzarb masaladir.

Pedagogik innovatsiyaning jamoada muvaffaqiyatli joriy qilinishi va ko'zda tutilgan samara berishi bir qator omillarga bog'liq. Ularni 3 ta katta guruhga ajratish mumkin.

1. Taklif qilinayotgan yangilikning xususiyatlari bilan bog'liq omillar (mukamalligi, ilmiy-amaliy asoslanganligi, tajribada sinab ko'rilganligi va boshqalar).

2. Yangilikni kiritishga yondashuv bilan bog'liq omillar (yangilikning yaratilishi, kim tomonidan taklif etilganligi, kiritilishda bosqichma-bosqichlikka amal qilinganligi, yangilik haqida yetarli malumot berilganligi, moddiy va moliyaviy taminlanganligi kabilar).

3. Yangilik kiritilishida qatnashayotgan kishilarning va pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq omillar. Bu guruhga pedagogik jamoa rahbarlarining yangilik kiritishga munosabati, ularning tashkilotchiligi va boshqaruv qobiliyatlarining darajasi, boshqaruv uslubi, rahbar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kabi xususiyatlar kiradi. Bu omillar to'plamini pedagogik jamoaning innovatsion potentsiali, ya'ni yangilikni samarali qabul qilish, joriy qilish imkoniyati deb atash ham mumkin.

Pedagogik innovatsiya samaradorligi qay darajada uning kiritilishini tashkil qilishga oqilona yondashish va pedagogik jamoaning innovatsion potentsialiga bog'liq ekanligini tadqiq qilish uchun Samarqand shahri va viloyatidagi bir qator litseyda pedagogik innovatsiyalar (noan'anaviy dars shakllari, o'quv dasturiga o'zgarishlar kiritish, reyting tizimi kabilar) jarayonini, innovatsion jarayonda jamoa rahbarlari faoliyati, jamoa xodimlarining bu yangilikka munosabati o'rganildi.

Pedagogik jamoa innovatsion potentsialining empirik ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar olindi:



1. Pedagogik jamoa a'zolarining yuqoridagi pedagogik texnologiyalarni qabul qilishga tayyorligi (yangilikka munosabati, pedagogik innovatsiya maqsadi va mazmuni haqida ma'lumotga egaligi, yangilik ahamiyatini tushunishi).

2. Pedagogik jamoaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari (jamoada gorizontali va vertikal munosabatlar, jamoa jipsligi, jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlim, ijodiy faollik va boshqalar).

3. Pedagogik jamoa rahbarining shaxs va faoliyat xususiyatlari (rahbarning yangilikka munosabati, o'z-o'ziga ishonchi innovatsion yunalganligi, rahbarlik uslubi, kommunikativ bilimdonligi va boshqalar).

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, innovatsion quvvati yuqori jamoalarda pedagogik innovatsiyalar joriy qilinishining samarasi yuqori ekanligi aniqlandi. Demak, pedagogik innovatsiyani samarali joriy etish uchun pedagogik jamoa a'zolarini bu yangilik haqida to'liq zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlash hamda ularning innovatsiyaga nisbatan munosabatni yaxshilashga yo'nalgan tadbirlar olib borish zarur. Pedagogik innovatsiya jarayonida rahbarlar faoliyatining ahamiyati juda ortadi. Innovatsiyani kiritishga mas'ul kishilar va ularning guruhini tashkil qilish, ular faoliyatini doimiy qo'llab-quvvatlash va nazorat qilish hamda pedagogik innovatsiya natijalarini monitoring qilib borish (doimiy baholab borish) bu yangilikning samarali joriy qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 104 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped. fanlari dokt. ilmiy dar. uchun diss. – T., 2007. 305 b.

4. Ziyomhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. –T.:Turon-Iqbol, 2006. 299 b.

5. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonbayeva M. Inog'omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob // Uslubiy qo'llanma –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. 193 b.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI-YOSHLARNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI YOSH XUSUSIYATLARI

D.I.XODJAKULOVA,

TTESI dotsenti, p.f.n

J.XOLMURATOVA,

TTESI katta o'qituvchisi

D.B.MIRXODJAYEVA,

TTESI katta o'qituvchisi

Ma'lumki, inson shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, uning ruhiyati, yoshining rivojlanishi bosqichlariga ko'ra qonuniy ravishda o'zgarib boradi. Yosh xususiyatlarining tasnifi shaxsning bilishga doir qobiliyatlari va shaxs ontogenezining yosh bosqichlarida shakllanishining psixologik mazmuni jarayonini aniqlashga asoslanadi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, o'quvchi, talabalar, uzluksiz ta'lim tizimi, o'quv jarayoni, yosh xususiyatlari, bolalarning yoshiga ko'ra munosabat, zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar, qadriyatlar.

It is well-known that a person's personality, his psyche, and his age change according to the law. The classification of age characteristics is based on determining the process of cognitive abilities of a person and the psychological content of the formation of the ontology of the person at an early age.

Key words: teacher, student, students, lifelong learning system, learning process, age characteristics, age-appropriate attitudes of children, required knowledge, skills, abilities, values.

Har bir yosh davrini vazifasiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: tabiiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik. Tabiiy-madaniy vazifalarga biologik jihatdan balog'atga etish, jismoniy va jinsiy rivojlanishida hududiy-madaniy va ob'ektiv me'yorlar farqini belgilash kiradi. Bu borada ovqatlanishning qulay sharoitlari, bolani parvarish qilish, jismoniy va sensor-motor rivojlanishi tizimi, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni korrektsiyalash tadbirlarini amalga oshirish, salomatligi qadrini anglash ko'nikmalarini egallash, sog'lom turmush tarzini tashkil etish ishlab chiqiladi; insonning jismiga ijobiy munosabatda bo'lishi; ayollik va erkaklik xususiyatlari qonuniyatlarini madaniy munosabatlar an'analari asosida idrok etish shakllantiriladi.

Ijtimoiy-madaniy vazifalar (bilishga doir ma'naviy-axloqiy, maqsad-mazmuniga ko'ra) bir tomondan tarbiya institutlari tomonidan shaxsga yo'naltirilgan tarbiya, boshqa tomondan ijtimoiy amaliyotda ma'lum me'yorlar va qadriyatlar sifatida mavjud bo'ladi. Bolalarning yoshiga ko'ra munosabat bu vazifalarni hal etishda zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar, qadriyatlar va me'yorlarni aniqlaydi hamda haqiqiy fuqaro, oilaparvar, mehnatkash insonni



shakllantirish bo'yicha ijtimoiy buyurtma sanaladi.

Ma'lumki, inson shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, uning ruhiyati, yoshining rivojlanishi bosqichlariga ko'ra qonuniy ravishda o'zgarib boradi. Yosh xususiyatlarining tasnifi shaxsning bilishga doir qobiliyatlari va shaxs ontogenezining yosh bosqichlarida shakllanishining psixologik mazmuni jarayonini aniqlashga asoslanadi.

Yosh xususiyatlari tasnifi shaxsning bilishga doir, emotsional va boshqa juda ko'p xislatlari majmuini o'z ichiga oladi. Insonning yoshiga ko'ra o'zgarishlar uning individual xususiyatlaridan farqli o'laroq, bir xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi odamlar ruhiyatida turlicha o'zgarishlar bo'lishiga ta'sir etadi.

Hozirgi davrda pedagogika va psixologiya fanlarida bolalar yosh davrlarini quyidagicha bo'lish qabul qilingan:

Psixologik yosh davrlari:

1. Chaqoloqlik davri (1 yosh).
2. Ilk bolalik davri (1-3 yosh).
3. Maktabgacha yosh davri (3-6 yosh).
4. O'smirlik davri (6-11 yosh).
5. O'spirinlik davri (11-15 yosh).
6. Yoshlik davri (15-29 yosh) va hokazo.

Pedagogik yosh davrlari:

1. Go'daklik davri (1 yoshgacha).
2. Maktabgacha yosh davri:
Kichik maktabgacha yosh davri (3-4);
Maktabgacha o'rta yosh davri (4-5);
Katta maktabgacha yosh davri (5-6).
3. Kichik maktab yoshi (6-10);
4. O'rta maktab yoshi (10-15);
5. Katta maktab yoshi (15-18);
6. Yoshlik davri (18-25 va hokazo).

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimida yosh davrlari maktabgacha yosh davri, kichik maktab yoshi, o'smirlik hamda o'spirinlik davrlarini nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim davrida 1-3 yosh bolaning asosiy individual-psixologik xususiyatlari shakllanadi.

Bolalarning madaniy-axloqiy tasavvurlari u yoki bu xatti-harakatlarning yaxshi yoki yomonligi uchun emas, balki ularning qanday yondashishlari bilan, masalan, rahm qilish, yordam berish, sovg'a qilish, hamdardlik bildirish kabi xatti-harakatlari, intizomi, insoniyligi, madaniyatligi kabi malakaga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Buning uchun ma'lum vaziyatlar hosil qilinib, (bu o'yin tarzidami yoki real hayotiy



vaziyatlardami) bolaning xulq-odob qoidalariga qay darajada rioya etishida namoyon bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi shaxsining tarkib topishi katta yoshlilar va tengdoshlari bilan muomala-munosabatlar, faoliyatning yangi turlari va turli tadbirlar vositasida amalga oshadi. Ularda ijtimoiy his-tuyg'u elementlari rivojlanadi, jamoaviylik xislatlari, o'z xatti-harakatiga mas'uliyat hissi, do'stlik va o'rtoqlik hamda boshqa ijtimoiy xulqiga doir malakalar tarkib topadi. Kichik maktab yoshida tarkib topgan shaxsning axloqiy xislatlari yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga shart-sharoitlar yaratadi. Pedagogik faoliyatda bolalarning dastlabki axloqiy e'tiqodini shakllantirish muhim yo'nalish sanaladi.

Afsuski, o'smirlik davrida axloqiy nomutanosiblik ham paydo bo'lishi mumkin. Ana shunda ota-ona, maktab o'qituvchilari, aka-opalari ularni har xil nopok kishilardan saqlashlari lozim.

Hozirgi davrda internet kafelari yoki boshqa joylarda o'smirlar yoshiga to'g'ri kelmaydigan filmlar namoyishi; atrofdagi odamlarning nojo'ya xatti-harakatlari, o'quv fanlarini o'rganishda jinsiy tarbiyaga doir bilimlarning berilmasligi; ota-onalarning bolalarning yosh xususiyatlari, jinsiy tarbiyasi haqida bilimlarga ega emasligi o'smirlarda yaramas odatlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Inson shaxsining kamol topishida o'smirlik davri muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda o'smirning mehnat faoliyati alohida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lsa, o'yin faoliyati ham o'z mavqesini saqlab qoladi.

O'smirlik yoshida bola shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Uning e'tiqodi, dunyoqarashi, o'z nuqtai nazari shakllana boradi va axloqiylikning tarkib topishida o'qituvchi, ota-onalar to'g'ri yo'l tutishlari muhim sanaladi. Chunki o'smir o'z atrofidagi voqea-hodisalar, narsalarga e'tibor bilan qarab, ularga nisbatan munosabatini bildiradi, ularda tanqidiy fikrlash xususiyati paydo bo'la boshlaydi. Ular qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylilik, mehrlilik, ayniqsa, adolatlilik xislatlarini qadrlaydilar. O'smirlarda kelajak rejalari paydo bo'la boshlaydi. Lekin bu rejalari o'zgarib ham turadi. Hatto ularda salbiy xatti-harakatlarga moyillik ham sezila boshlaydi. Shuning uchun ham ularni o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan tarbiya muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'spirinlik yosh davri esa ma'naviy etuklikka erishish davri sanaladi. Uning bu yosh davrida fuqarolik maqomi, saylash huquqiga egaligi ularning o'zligini anglashiga shart-sharoit yaratadi. Bu davrda (15-18 yosh) litsey yoki kollejlardagi o'qish ilmiy dunyoqarashning tarkib topishi va ma'naviy-axloqiy shakllanishga olib keladi. hayotda o'z o'rmini topishga, kasb-hunarni egallashga, istiqboldagi rejalarni tuzishga intilish kuchayadi. Lekin o'spirin hayotida ziddiyatlar ham uchrab turadi, salbiy xatti-harakatlar uning axloqiy, aqliy, jismoniy, ruhiy jihatdan yuksala borishi orqali bartaraf etiladi.



Yoshlik davri (17-22-25) talabalarning oliy o'quv yurtida o'qishi yoki ko'pchilik yoshlarning mehnat faoliyati bilan kechadi (psixologlar bu yosh davrini ham o'spirinlik davrining ikkinchi bosqichi deb ko'rsatadilar).

Oliy o'quv yurtida shaxsning etuklik davri shakllanadi. Chunki mazkur davrda yoshlarning faoliyati zarur aqliy qobiliyat va ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan belgilanadi. Talabalarning ma'lum qismi oila quradi, farzand tarbiyalaydi, mehnat faoliyatiga tayyorlanadi, ijtimoiy hamda kasbiy mavqei ang'ay boshlaydi. Lekin hozirgi davrda kompyuter, displey, internet, ya'ni axborot texnologiyalari yoshlardan katta kuch-quvvat talab etmoqda. Ularda o'smirlik, o'spirinlikda tarkib topgan shaxslik xislatlari endi takomillashish davriga kirayotgan bir paytda o'qishga ong'li munosabat, xulqidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga rioya etish ular mohiyatini ang'lashga qiziqishni orttiradi. Chunki yoshlik davri hissiyotlarga beriluvchan davr bo'lib, voqelikka yondashishda ba'zi xatoliklarga yo'l qo'yish mumkin. Chunki yoshlarning xohish va intilishlari uning iroda va xarakteridan ancha ilgari ketgan bo'ladi (V.T.Listavskiy, E.G'oziev). Ularda o'z-o'zini boshqarishning asosiy tarkibiy qismlari – o'z-o'zini tahlil qilish, nazorat, baholash, tekshirish kabilarni shakllantirish muhimdir. Shunga ko'ra tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda talabalarning ana shu holatlarini hisobga olish, ularda o'z qobiliyati, imkoniyatlariga ishonch hosil qilishiga erishish uchun shart-sharoit yaratishni hisobga olish zarurdir.

Mazkur davrda shaxs madaniyatining rivojlanishi uchun avvalo bilimlarni chuqur egallash va axloq me'yorlariga rioya etish, uning g'oyaviy-siyosiy, kasbiy, fuqarolik, estetik, huquqiy va jinsiy, ekologik madaniyatga egaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xislatlar ham o'quv jarayoni, ham auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda barkamol shaxs madaniyatini shakllantirishda har bir yosh davrida quyidagi xislatlarni tarkib top'tirish muhimligi aniqlandi.

Quyida har bir yosh davrida tarkib top'ishi zarur bo'lgan eng muhim xususiyatlar va unga mos xislatlarni yoritishga harakat qildik:

Uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida shaxs madaniyatining shakllanishi.

1. Maktabgacha ta'lim davri – kattalardan hayotiy ehtiyojlarini qondirishga maksimal talablar; moddiy, ma'naviy, bilishga oid talablarini qondirishda oilaga tayanishning ustuvorligi; muhitning noqulay ta'sirlardan o'zini himoya qilishda imkoniyatning kamligi.

2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar – o'quvchining moddiy, kommunikativ, hissiy talablarini bajarishda oilaning ustuvorligi; ijtimoiy bilishga doir qiziqishlarning shakllanishi rivojlanishida maktabning o'rni; maktab va oilaning himoyasida muhitning salbiy ta'siriga qarshi tura olish qobiliyatining o'sishi.

3. Umumiy o'rta ta'lim davri (V-IX sinf - o'smirlik) – bolaning moddiy, hissiy



ehtiyojlarini bajarishda oilaning ustuvorligi; bolaning bilishga oid, ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondirishda maktabning roli; muhitning salbiy ta'sirlariga qarshi tura olish qobiliyatining o'sishi; o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini anglashning rivojlanishida kattalar ta'siriga tayanish.

4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davri (ilk o'spirinlik) – hayotda o'z o'zini topishga, o'z taqdirini o'zi hal etishga intilishi; mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishi; ijtimoiy hayotda faol qatnashish; ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqod, his-tuyg'ularning rivojlanishi, bilimlarni egallashga ijodiy yondashish, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka ishonch; jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo'lish va hokazo.

5. Oliy ta'lim davri (yoshlik) – ijtimoiy etuklikning jadal suratda ro'yobga chiqishi; mehnatda faollik, qonunlar oldida javobgarlik, mutaxassis bo'lish imkoniyati va unga intilish, irodaviy zo'r berish, oila qurishda otalik va onalik burchi, bo'sh vaqtni tashkil etish, ijtimoiy va kasbiy mavqeini anglash.

Xulosa qilib aytganda yosh pedagogikasi shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uzluksiz ta'limning har bir bosqichida o'ziga xos dinamik rivojlanishga egadir. Zero, har bir yosh davrining xususiyatlarini uning o'z qonuniyatlari, psixofiziologik rivojlanishining o'ziga xosligi, psixologik o'zgarishlari, ehtiyojlari tizimi, faoliyati muomalasining asosiy motivlarini aniqlamay turib, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishish mushkul. Shunga ko'ra shaxs madaniyatini shakllantirishda unga shaxs sifatida yondashish va ularni faqat turli faoliyat turlariga, muomala-munosabatga kiritish bilangina cheklanmay, balki o'z-o'zini bilish, fikr yuritish ham zarur bo'lib, bularsiz ziyolilik va madaniyatlikni tarbiyalab bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 29 dekabr

2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. 176 – bet.

4. O'zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 58 – bet.



BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

Z.SH. QARSHIYEVA,

Samarqand viloyati XTXQTMOHM

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayoni tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyaga doir va refleksiv yondashuvlar tahlil qilingan. Tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari tizim, aloqa, munosabat, struktura, yaxlitlik, "tizim" va "tuzilma" tushunchalari kasbiy tayyorgarligi amalga oshirilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Refleksiv, pozitsiya, model, modellashtirish, yondashuv, loyixalashtirish, uygunlashtirish, aksiologik, natija, komponent, tamoyil.*

В данной статье анализируются системный, аксиологический, личностно-деятельностный и рефлексивный подходы к процессу профессиональной подготовки будущих педагогов. Основными понятиями системного подхода являются система, связь, отношение, структура, целостность, понятия "система" и "структура" обосновываются реализацией профессиональной подготовки.

Ключевые слова: *Рефлексивный, позиционный, модельный, моделирующий, подход, проектирующий, гармонизирующий, аксиологический, результат, компонент, принцип.*

In this article, systematic, axiological, personal-active and reflexive approaches to the process of vocational training of future teachers are analyzed. The basic concepts of the systematic approach are based on the implementation of the system, communication, attitude, structure, integrity, professional preparation of the concepts "system" and "structure".

Key words: *Reflexive, position, model, modeling, approach, design, adaptation, axiological, result, component, principle.*

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida refleksiv, tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli yondashuvlardan foydalanishni eng muhim, deb hisoblaymiz, chunki ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari yig'indisi bo'lajak pedagogning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarning har birini tanlash sababini ularning mohiyati va xususiyatlarini tahlil qilish orqali asoslab beramiz.

Refleksiv yondashuv quyidagi xususiyatlari bilan tadqiqot maqsadiga erishish uchun juda muhimdir: refleksiv yondashuv, bir tomondan, o'rganilayotgan voqelikning predmetli ko'rilishini ta'minlasi, boshqa tomondan, uni muayyan maqsadlarga erishish va amaliy vazifalarni hal qilish uchun texnologik jihatdan o'zlashtirishga hamda ma'lum bir faoliyat orqali o'zgartirishga imkon beradi; refleksiv yondashuv refleksiya kabi voqelikni o'rganishni ta'minlaydi va bu borada olingan bilimlarni kasbiy tayyorgarlik amaliyotida ishlatish uchun qulay



imkoniyatlar yaratadi; refleksiv yondashuv – bu refleksiyaga va amalga oshirilgan jihatlar tahliliga asoslangan, ya’ni nimaga ega bo’lganligi (bilim, tajriba), va qanday natijaga erishilganligini taqqoslash, shuningdek, ushbu natijaning shaxs uchun ahamiyatini hisobga oladigan yondashuvdir; refleksiya haqidagi falsafiy, psixologik, pedagogik tasavvurlarni fundamental kategoriya sifatida o’zida mujassam etgan zamonaviy ilm-fanning metodologik yo’nalishlaridan biri bo’lib, refleksiv yondashuv insonning o’zini, uning ichki dunyosini va boshqalar bilan munosabatlarda o’z o’mini bilish kabi tug’ma qobiliyatiga yo’naltirilgandir; faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun individual ongning mavjudligi va uni shaxs tomonidan faol ravishda qayta ko’rib chiqish; bajarayotgan faoliyatiga nisbatan “tashqi” pozitsiyani egallash va kelgusi faoliyat rejasini keyinchalik loyihalashtirish orqali natijani tahlil qilish imkoniyati; boshqa odamning fikrlari, hissiyotlari va harakatlarini o’rganish va tushunish; refleksiv jarayonlarni faoliyatdan ajralmagan holda ko’rib chiqish; sodir etilayotgan voqeikka insonning shaxsiy baholovchi munosabatini rivojlantirish; individning axloqiy sifatlarini rivojlantirish, boyitish va mustahkamlash, uning qadriyatlarga ongli munosabati; barcha komponentlarni belgilaydigan va uning barcha natijalari uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga oladigan faoliyat markazi sifatida o’ziga nisbatan ichki motivatsion ongli munosabati; umuman shaxsning rivojlanishiga va uning olam bilan munosabatlariga ta’sir ko’rsatishi orqali o’z-o’zini rivojlantirish, o’z-o’zini tarbiyalash uchun sharoitlarni ta’minlash; sabab-natija aloqasining o’rnatilishi bilan chuqur va to’laqonli tahlilni o’tkazish uchun ortga nazar solish va turli xil pozitsiyalarni egallashga imkon beradigan o’z-o’zini anglash mexanizmining mavjudligi.

Tizimli yondashuv ham bizning tadqiqotimiz uchun dolzarbdir, chunki u o’zaro teng o’rinni egallagan holda boshqa yondashuvlarning amalga oshirishini belgilab beradi.

Tizimli yondashuv – bu ob’ektni tizim sifatida namoyish etish, o’rganish va qurish bilan bog’liq zamonaviy ilm-fanning uslubiy yo’nalishidir.

Tizimli yondashuv tadqiqot ob’ektini ma’lum bir yaxlitlik, barqarorlik va uning ichki tashkil etilishini belgilaydigan tuzilmaviy komponentlar, funktsional aloqalar va munosabatlar yig’indisi sifatida ko’rib chiqishga imkon beradi. Tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari tizim, aloqa, munosabat, struktura, yaxlitlikdir. “Tizim” va “tuzilma” tushunchalari haqida to’xtalib, ularning tadqiqotimiz uchun o’ziga xos metodologik ahamiyatini ta’kidlab o’tish lozim. Chunki bo’lajak o’qituvchining refleksiv pozitsiyasi – bu ma’lum bir tuzilishga ega bo’lgan tizimdir. Tadqiqotimizda biz quyidagi ta’rifga amal qildik: “Tizim1 – bu ma’lum xususiyatlar asosida tanlangan, umumiy faoliyat maqsadi, boshqaruv birligi bilan birlashtirilgan va atrof-muhit bilan



ajralmas birlik sifatida o'zaro aloqaga kirishadigan o'zaro bog'liq elementlarning tartiblangan yig'indisidir".

Biz o'rganayotgan hodisani rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tizimli yondashuvning yana bir tushunchasi – bu "tuzilma" tushunchasi bo'lib, u olimlar tomonidan ma'lum tartiblilik, elementlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni tashkil etish sifatida izohlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, agar tizim o'zaro bog'liq elementlarning majmui bo'lsa, unda tuzilma elementlarning o'zaro aloqalari va munosabatlari yig'indisi bo'lib, u biz shakllantirayotgan hodisaning, ya'ni bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasi ta'rifida o'z aksini topadi. Tuzilmaning ta'rifi tizim elementlari o'rtasidagi aloqa va munosabatlarning iyerarxik yig'indisi sifatida biz uchun eng dolzarbdir.

Tizimli yondashuv bo'lajak o'qituvchi shaxsini o'zini o'zi anglashi va o'zini o'zi namoyon qilish shartlarini maxsus modellashtirishga imkon beradi, bu esa tadqiqotimizning maqsad va vazifalariga mos keladi.

Tadqiqotimiz uchun aksiologik yondashuv fundamental ahamiyatga ega, chunki u bo'lajak o'qituvchini shaxs sifatida rivojlantirishga imkon berib, pedagogika faniga, pedagogik fanlarni o'rganish jarayoniga, boshqa pedagogik mahorat va texnologiyaga qiziqish va ijobiy munosabatni rivojlantirish imkoniyatlarini izlab topishni ustuvor maqsad sifatida belgilaydi.

Aksiologik yondashuvning asosini o'zaro hamkorlik qiluvchi dunyoning insonparvarlik tushunchasi tashkil etadi. V.A.Slasteninning fikriga ko'ra, ushbu kontseptsiyaga binoan bizning ichki olamimiz bir butun insoniyot dunyosi bo'lib, u jamiyatning eng yuqori qadriyati, uning rivojlanish mazmuni va maqsadi hisoblanadi.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuvga bag'ishlangan asarlarni tahlil qilish kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchi refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning samarali jarayoni uchun eng muhim ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuv biz o'rganayotgan hodisa uchun muhimdir, chunki bu birinchi navbatda, harakat usullarini samarali rivojlantirishga, bo'lajak o'qituvchining shaxsini maqsadli rivojlantirishga yordam beradi: refleksiya va o'z-o'zini boshqarishni rivojlantiradi, o'ziga va atrofdagilarga bo'lgan munosabat hamda o'zi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarni shakllantiradi, shu bilan birga shaxsning pozitsiyasini ham rivojlanishiga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchining o'quv-kasbiy faoliyati sharoitida refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni ham tashqi (o'qituvchining boshqaruv ta'siri), ham ichki (faoliyatni o'zi mustaqil tashkil etishi) xarakterga ega bo'lishi mumkin. Biz ikki faoliyat – o'quv va kasbga yo'naltirilgan faoliyatga e'tibor qaratish mantiqan to'g'ri deb hisoblaymiz, ularning o'zaro hamkorlik mexanizmi boshqaruvdir, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar hamda aloqalarning murakkab yig'indisi vositalar, metodlar va o'qitishning tashkiliy shakllari tizimi orqali amalga oshiriladi.



Shaxsiy-faoliyatli yondashuv shaxslararo o'zaro munosabatni refleksiv boshqarishni talab qiladi. O'zaro hamkorlikning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatining o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini idora qilish, o'zini o'zi tartibga olish, talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish ehtiyoj va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuv kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchining shaxsiy xususiyatlariga e'tiborni qaratishni nazarda tutadi hamda uni amalga oshirish o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqalar tuzilmasi sifatida tushuniladi, uning asosini sub'ekt-sub'ektlilik munosabatlari tashkil qilib, ular kasbga yo'naltirilgan o'quv faoliyati sharoitida muammolar yechimini birgalikda izlash bilan bog'liqdir.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagogik faoliyatning maqsadi sifatida shaxsga bo'lgan munosabatni shakllantiradi, tashqi pedagogik ta'sir harakatlarining bilvositaligini hisobga oladi, uning faolligiga (o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tashkil etish, mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini idora qilish, o'z-o'zini boshqarish) tayanib, insonning shaxsiy ichki shartlari va individualligi orqali yangi ma'no kasb etadi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonini bo'lajak o'qituvchilar tomonidan ushbu mexanizmlarni o'zlashtirishga yo'naltirilganligi uni shaxsni rivojlantirish, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan jarayon sifatida tavsiflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рефлексивный подход: от методологии к практике: коллект. Монография. / под ред. В.Е. Лепского. – М.: «Когито-Центр», 2009. – 447 с.
2. Вербицкий, А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход: метод. пособие / А.А.Вербицкий. – М.: Высшая школа, 1991. – 204 с.



10-11 SINF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA QIZIQTIRISHNI ANIQLASHDA DIDAKTIK-TA'MINOTINI TAMOYILLARI VA OMILLARI

T.X.AVLIYAQULOV,

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Bu maqolada 10-11 sinf o'quvchilarini kasb-hunarga qiziqtirishning nazariy va amaliy asoslari shakllantirilgan. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirishning ta'minoti va sifatleri to'g'risida fikrlar berilgan. Kasb-hunarga qiziqishning tamoyillari, omillari va vositalari ilmiy-uslubiy aniqlangan.

Tayanch so'zlar: *sifatlar, nazariy, ta'minotlar, omillar.*

Данная статья составляет теоретическую и практическую основу интереса учащихся 10-11 классов к профессии. Даются заключения об обеспечении и качестве интереса студентов к профессии. Научно и методологически определены принципы, факторы и средства интереса к профессии.

Ключевые слова: *прилагательные, теория, принадлежности, факторы.*

This article forms the theoretical and practical basis of interest of students in grades 10-11 in the profession. Opinions are given on the provision and quality of interest of students in the profession. The principles, factors and means of interest in the profession are scientifically and methodologically defined.

Key words: *adjectives, theory, supplies, factors.*

Umumta'lim maktablarining kasb-hunarga yo'naltirish ishining maqsad va vazifasi shu hudud ehtiyoji uchun zarur kasblarga kasb-hunar kollejarining mavjud soha yo'nalishlariga, o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tavsiya berishdan iborat. Buni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa kasb-hunarga yo'naltirish tizimidagi turli yo'nalish bo'yicha olib borilgan ishlarning sifatiga bog'liq.

Kasbga yo'naltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari: kasblar to'g'risida nazorat, dastlabki kasbiy tashhis, kasb tanlashga oid maslahatlar, kasb-hunarni saralab olish, ijtimoiy-kasbiy muvofiqlik, kasbiy tarbiya kabilardan iborat.

Kasblar to'g'risida axborot berish o'quvchilarni turli xil mehnat turlari, kasblar shajarasi, kasblarning o'ziga xos xususiyatlari, xalq xo'jaligi jumladan, ular yashayotgan hududning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari, eng yaqin joylashgan kasb-hunar kollejlari va ularda tayyorlanayotgan mutaxassisliklar tavsifi bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. Kasblar haqida tartibsiz ma'lumot bermaslik uchun o'quvchilar oladigan didaktik ta'minot orqali bilimlarini ma'lum bir tizimga solish lozim. Kasblar haqida axborot berish o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.

Kasbga oid maslahatlarning maqsadi o'quvchilarga o'rta maxsus kasb-hunar



ta'limi muassasalari yo'nalishlari bo'yicha ta'lim turini tanlashlariga yordam berishdan iborat bo'lib, ularning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va boshqa xususiyatlarini o'rganishga tayanadi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Dastlabki kasb-hunarga oid maslahatni sinf rahbari, o'qituvchilar, psixolog-pedagoglar, boshlang'ich ta'limi o'qituvchilari amalga oshiradilar;

- Ular o'quvchilarning kasb-hunar tanlashga oid dastlabki mulohazalari bilan tanishadilar;

- Bu boradagi niyatlar o'quvchilarning shaxsiy layoqatlari, qobiliyatlari, sog'liqlariga qay darajada mos kelish-kelmasligini muhokama qiladilar;

- Muhokama mazmuni yakka-yakka suhbat paytida o'quvchilarga ma'lum qilindi. Niyatning to'g'riligi ma'qullanadi yoki kasblarga oid axborot-ma'lumot natijalarini o'rganish haqida maslahat beriladi.

Kasblarga oid axborot-ma'lumot maslahat dastlabki ta'minot natijalariga qarab beriladi. Mazkur ma'lumotlar quyidagi yo'nalishlarni o'zida jamlaydi: kasblar tasnifi, kasblar professiogrammalari, psixogrammalar, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to'g'risidagi axborotlar. O'quvchi ushbu ma'lumotlar asosida o'zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo'lgan kasbni tanlaydi.

Kasbga oid boshlang'ich shakllantiruvchi maslahatda o'quvchining bundan oldingi bosqichlarga oid didaktik ta'minot orqali olgan bilimlari, texnologiya (mehnat) va kasb ta'limiga doir dastlabki ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi va zarur maslahatlar beriladi.

Kasbga oid muvofiqlashtiruvchi maslahatda oldingi bosqichlarda o'tkazilgan tadqiqot, tashhis natijalari va individual psixofiziologik xususiyatlariga qarab o'quvchi tomonidan noto'g'ri tanlangan kasbiy ta'lim turidan uning shaxsiy ko'rsatkichlari, kasb-hunarga yaroqliligi, layoqatiga mos kasb ta'limiga muvofiqlashtirish maslahatlari beriladi.

Kasbga oid shakllantiruvchi maslahat shaxsning kasb ta'limi turidan olayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni davom ettirish, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishini tanlash va ma'lum bir mutaxassislikni egallash mazmuniga ega bo'ladi.

Kasbga oid nazorat maslahatida yuqorida keltirilgan maslahat bosqichlari to'g'ri amalga oshirilgan-oshirilmaganligi, asosiy konsultatsiyada shakllantirilgan ko'nikma va malakalar ixtiyoriy va majburiy ta'limda (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida) davom etayotganligi, ya'ni shu soha bo'yicha ta'lim olayotganligi nazorat qilinadi. Agar soha bo'yicha ixtiyoriy-majburiy ta'lim davom etmayotgan bo'lsa, sabablari o'rganilib, tahlil qilinadi va amaliy xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, maktab o'quvchilarning 50 foizi yakka tartibdagi kasb maslahatiga muhtoj bo'ladilar. Bizni olib borayotgan ilmiy tadqiqotimiz



natijasida ko'pgina o'quvchilar hozirgi o'zlari yashab turgan hududda zarur bo'lgan kasblarni tanlash, unga nisbatan munosabat bildirish orqali shu kasblarni tanlashga oid fikrlarni bildirdilar. Bunday fikrlarda o'quvchilar quyidagilarni tashkil qiladi:

- u yoki bu sabab bilan mustaqil kasb tanlay olmagan o'quvchilar;
- ota-onalar bilan ziddiyat paydo bo'lgan o'quvchilar;
- o'zi tanlagan kasb yo'lining to'g'riligini isbot qilish istagida bo'lgan o'quvchilar ;
- O'sib-ulg'ayish va xulq-atvori murakkab tavsifiy xarakterga ega bo'lgan o'quvchilar.

Shu sababli ham maktabda kasb-hunarga yo'naltirishga jixozlangan xonaning tumandagi kasb-hunarga yo'naltirishga moslashtirilganligi va psixologik-pedagogik tashhis markazi bilan birgalikda kasb-hunarga oid maslahat ishlariga alohida e'tibor bilan yondoshishlari talab etiladi. Kasbga yo'naltirishning tarkibiy qismlaridan biri kasb-hunarga tanlab olish, ya'ni biror kasbni nisbatan yaxshi o'zlashtiradigan va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajaradigan shaxsni saralab olishdir.

Kasbga yaroqlilik shaxsning jismoniy sifatleri va psixofiziologik xususiyatlari bilan kasb talablarining mos kelishi darajasidir. Agar bu sifat va xususiyatlar zarur talablar darajasida bo'lmasa, zo'riqish hosil bo'ladi, natijada kasbiy yaroqsizlik vujudga keladi, bundan shaxs ham, jamiyat ham zarar ko'radi.

Kasbga saralab olish qiyin kechadi. Shu bois oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari abituriyentlari bilan pedagogik testdan tashqari kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik markazlarning ilmiy asoslangan tavsifnoma-tavsiyasi asosida suhbat o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli boshlang'ich ta'lim mazmuni tubdan o'zgardi. Milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida yangi dasturlar, darsliklar, o'quv metodik tavsiyalar, ilmiy-metodik qo'llanmalar yaratildi. Mustaqil respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarni yangi talab asosida o'qitish va tarbiyalashga alohida e'tibor berildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning konseptual g'oyasini ochib beruvchi "Umumiy qoidalar"da:

Kasbga yo'naltirish umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, shaxsiy iste'dodini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, insonga uning kasbiy o'zligini anglatish, uning o'z ehtiyojini, imkoniyatini hamda turli kasblar va turli malakalarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda eng maqbul bandlik turini tanlashda yordam beruvchi maxsus tadbirlar majmuasini o'tkazishdir.

Kasb-hunarga yo'naltirish amaliy faoliyat yo'nalishi sifatida quyidagi ikki asosiy maqsadga xizmat qiladi:



- Shaxsni ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash.

- Kasbni o'zining qiziqishlari, ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatiga mos ravishda tanlagan kasb insonni samaraliroq o'zlashtirishiga, ham kasbiy, ham moddiy tomonidan sezilarli natijalarga erishishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi tizimidagi kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlari vazifalari doirasidagi 2 asosiy yo'nalish quyidagilardan iborat:

- Kasbiy axborot-maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblar, mehnat bozorining holati, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari;

- Kasblar bozori rivojlanishining mazmuni va kelajagi, kasblarning shakllari va ularni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida egallashning shart-sharoitlari, kasb egasiga qo'yiladigan talablar, mehnat faoliyati jarayonida kasbiy-malakaviy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan (yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda) tanishtirishdan iborat.

Kasbiy maslahat-umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga, shaxsning psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini, hamda jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'zining kasbiy yo'lini va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini (kasb-hunar maktabi va kolleji yoki akademik litsey) tanlash bo'yicha ongli qaror qabul qilishga yordam berishdir.

Bu yo'nalishlar doirasida quyidagi omillarni hal qilish lozim.

- maktabgacha ta'lim muassasalarida:

- bolalarni tanlashning boshlang'ich psixologik-ijtimoiy yo'nalishini amalga oshirish;

- bolalarni mehnat dunyosi bilan boshlang'ich tanishtirish;

- o'yin jarayonida bolalarning mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish;

- bolalarning yosh xususiyatlari va salomatligini hisobga olgan holda ularni motivatsiya va qiziqishlarni shakllantirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tamoyillarini ta'minlaydi:

- O'quv dasturlari, qo'llanmalar va umuman o'quv tarbiya jarayonining kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilganligini, bu ishda pedagogik jamoalar, ota-onalar, tegishli tashkilot va muassasalarning ishtirokini ta'minlash;

- uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunarga yo'naltiruvchi ta'sir ko'rsatishning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash;

- o'quvchilarda ularning qiziqishlari, salomatligining holatiga mos ravishda kasb tanlashga bo'lgan ongli yondashuvni shakllantirish;

- o'quvchilarni o'qishdan tashqari vaqtlarida texnik va badiiy ijodiyotiga jalb qilish;



- demografik xususiyatlar, davlat va hududning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari, tuman (shahar) xalq xo'jaligi majmuasining kelajak rivojlanishini hisobga olgan holda kasbiy ma'rifat ishlarini olib borish;

- o'quvchilarga, ularning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini to'la ochib berish maqsadida, kasbiy maslahat berish.

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashhis Markazi muvofiqlashtiradi. Uning faoliyat mazmuni, maqsad vositalariga quyidagilar kiradi:

- xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tashkiliy, ilmiy, metodik, axborot-didaktik va dasturiy ta'minotni amalga oshirish;

- kasb-hunarga yo'naltirish asoslari bo'yicha ilmiy-amaliy, nazariy va tashkiliy-metodik materiallar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

- zamonaviy ishlab chiqarish turlari, mehnat bozorining holati, kasblar bozorining taraqqiyoti, u yoki bu kasblarning insonga qo'yadigan talablari to'g'risida ma'lumotlar tayyorlash, ko'paytirish va tadbiq qilish;

- hududiy mehnat bozori hamda o'quvchilarning qiziqish, moyillik, layoqat va istaklaridan kelib chiqqan holda, shaxsiy kasbiy maslahatlarni tashkil qilish va o'tkazishning mazmuniy, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqish. Demak 10-11 sinflarda o'quvchilarni yillar davomida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarini kasb-hunarga nisbatan didaktik ta'minotlar orqali amalga oshirish ilmiy uslubiy jihatdan ma'lum miqdorda asoslangan yo'nalishlari muhim ahamiyatga ega ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov, Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

2. S.Xasanov, "Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida". Toshkent. "O'zbekiston". 1993 yil 136 b.

3. Z.Ochilov, "Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda kasbga tanlashni shakllantirish". Toshkent. "O'qituvchi". 1996, 120 b.

5. Markova A.K. "Pedagogika professionalizma", - M:Znanie, 1996

6. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish", (Monografiya).T. "Fan"2004 y.



O'QUVCHILARDA IJTIMOY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA MAZMUNI

M.A.RAXIMOVA,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichlari va mazmuni yoritib berilgan. Muallif ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish darajalari va hamkorlik sohalarini aniqlashtirgan.

Tayanch so'zlar: ko'nikma, malaka, ijtimoiy ko'nikma, xulq-atvor, rivojlantirish, bosqich, mazmun, daraja

В статье описаны этапы и содержание развития социальных навыков у младших школьников. Автор выделяет уровни развития социальных навыков и направления сотрудничества.

Ключевые слова: умение, квалификация, социальный навык, поведение, развитие, этап, содержание, степень.

The article describes the stages and content of the development of social skills in primary school children. The author identifies the levels of development of social skills and areas of cooperation.

Key words: ability, skills, social skills, behavior, development stage, the content of the degree.

Milliy psixologiya va pedagogikada bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va uning ta'lim-tarbiyasi o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishning o'tmishdan saqlanib kelayotgan katta tajribasi mavjud. Ammo bunda ijtimoiylashuv, qoida tariqasida keng ma'noda, ya'ni o'sib kelayotgan avlodning an'ana va qadriyatlarini o'zlashtirishi hamda ijtimoiy tajribani faol qayta qo'llash tufayli jamiyat hayotida ishtirok etish jarayoni va natijasi sifatida tushuniladi. Mazkur holat:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini maqsadli yo'lga qo'yishga doir pedagogik ta'minotga bo'lgan zarurat va ushbu muammo bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor bermaslik o'rtasida;

- zamonaviy ta'lim jarayonining kommunikativ va ijtimoiy yo'nalishini amalga oshirishga bo'lgan zarurat bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga nazariy yondashuvlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rtasida;

- faoliyat sub'ekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchisini rivojlantirishga zamonaviy boshlang'ich ta'limning umumiy ko'rsatmasi va an'anaviy tarzda ijro etuvchi komponentini amalga oshirishga yo'naltirilgan bolalar faoliyatini tashkil etish shakllari o'rtasida qator qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Shu sababli, jamiyatda o'sib kelayotgan avlodni faol ijtimoiylashuviga



bo'lgan zarurat va o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratmaslik, shuningdek, maktab amaliyotiga bo'lgan ehtiyoj va ushbu muammoni amalga oshirish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi o'rtasidagi qarama-qarshilik ko'zga tashlaadi. Reglamentli yondashuv asosan faqat bir bo'g'inda: yoki sinfdan tashqari faoliyat yoki katta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda qo'llaniladi. Bu bizning fikrimizcha, yuqori natijadorlikka erishish imkoniyatini pasaytiradi.

Ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvor shakllarini shakllantirish va mustahkamlash hamda ulardan yangi munosabatlar tizimida foydalanishni amalga oshirish imkoni bor, deb hisoblaymiz. Xulq-atvorga oid vazifalarni hal qilishning tez-tez takrorlanadigan usullari odatlarga aylanib qoladi. Buni L.I.Bojovichning fikrlari ham tasdiqlaydi. Unga ko'ra, muayyan shaxsiy fazilatlar asosida bola xulq-atvorining belgilangan va odatiy shakllari yotadi. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish haqida gapirganda, o'zingiz yoki boshqa birovga sust taqlid qilishga emas, balki ijodiy o'zgarishlarga imkon beradigan samarali ta'sir ko'rsatish me'yor va vositalariga muvofiq taqdim etilgan vaziyatda faol va ongli xatti-harakatlarga urg'u berish kerak. Aynan shu turdagi xatti-harakatlar ijtimoiylashuvning yuqori darajasiga to'g'ri keladi va unda o'z shaxsiyati, atrof-muhit va o'z faoliyatini baholash bilan bog'liq bo'lgan anglash elementi mavjud.

Ijtimoiy qulay sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchisi atrofdegan dunyo bilan o'z munosabatlarining yuqori darajasiga erishishi mumkin. U faqat mazmun-mohiyatni o'zida ifoda etishi yoki umuman o'zini ijtimoiy hayotdagi salbiy tendensiyalarning tashuvchisi sifatida ko'rsatishi, o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatini faol ravishda amalga oshirishi yoki ijobiy ijtimoiy mazmunni o'z-o'zidan va qisman namoyon etishi mumkin. Aynan o'qituvchi mazkur yosh davrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum sharoitlarni yaratib, o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga doir bilan tabiiy ravishda shug'ullanishi mumkin. Zamonaviy boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning yetakchi tendensiyasi nafaqat o'quvchilarning boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, eng muhim intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bola shaxsining umumiy rivojlanishi ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ko'nikmalar deganda biz ijtimoiy xulq-atvorning barqaror shakllarini tushunamiz. Ko'nikma – bu faoliyatning barqaror elementi, ijtimoiy harakat.

Ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari haqida gapirganda, biz nafaqat mazkur yo'nalishga doir bilimlar, balki ularni qo'llash, rolli xatti-harakat me'yor va qoidalari, ijtimoiy funksiyalar, urf-odatlariga qadriyatli munosabatni ham nazarda tutamiz. Amaliyotda ijobiy tasdig'ini topib, samarali natijaga erishish imkonini beradigan atrofdegilar bilan o'zaro aloqalar tizimida to'plangan eng ahamiyatli shaxsiy tajribani qayd etish muhimdir.



Ko'nikmalar – bu nafaqat yaxshi mashq qilingan va o'zlashtirilgan, balki eng avvalo, muayyan xatti-harakatlar modelini qabul qilish hamda anglashga asoslangan harakatlardir. "Ijtimoiy ko'nikma" tushunchasida, bizning holatda, bu qisman inson faol foydalanadigan ba'zi bir amalga oshirilgan malakalar ekanligiga urg'u beriladi. Ijtimoiy malakalar – bu bir nechta ijtimoiy ko'nikmalarning elementlarini o'z ichiga olgan xulq-atvorning yuqori darajasi. Ular orasida xatti-harakatlar, o'z ichki dunyosi bilan muomala usullari ham mavjud. Ya'ni ijtimoiy malakalarni shaxsга oid harakatlar deb hisoblash mumkin bo'lib, ularning predmetli mazmunini shaxslararo va shaxsга oid ichki ta'sir usullari tashkil qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy ko'nikma va malakalar – bu ijtimoiy xulq-atvorning o'zlashtirilgan elementlari bo'lib, ular ijtimoiy olam, o'zi va bu yorug' dunyodagi o'rni haqidagi bilimlarga, ijtimoiy o'zaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda o'rnatishga, o'z o'rni belgilab olishga va o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman ijtimoiylashishga yordam beradi.

Ijtimoiy ko'nikmalarning o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-madaniy me'yorlarni bilish, ulardan tolerant xulq-atvor modelining namunaviy asosi sifatida foydalanish qobiliyati;

- atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarda o'z his-tuyg'ulari, emotsiyalarini tushunish, ularni ijtimoiy maqbul hamda mos shaklda ifoda etish qobiliyati;

- o'zining individualligi va qadr-qimmatini, shuningdek, boshqa insonlar shaxsining qadr-qimmatini anglash;

- atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan odatiy muammoli vaziyatlarni anglay olish qobiliyati, konstruktiv yechimlarni izlashga intilish;

- umumijtimoiy va shaxsiy tajribani umumlashtirish qobiliyati.

Bolalarda ko'nikmalarni shakllantirishni rivojlanishning faoliyatli modeli sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Bunda muayyan vaziyatda ongli va mohirona xatti-harakatlarni namoyon etgan bolalarning bilim va tajribalariga urg'u beriladi, bu esa uning atrof-muhit bilan munosabatlar tizimiga qanday ta'sir qilishini aniqlashga imkon beradi. Ijtimoiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish shuni nazarda tutadiki, insonning o'zi va boshqalar (o'zi, boshqalar, ijtimoiy-tarixiy) haqidagi umumlashtirilgan psixologik bilimlar tajribasi asosida har qanday muammoni samarali hal etishi mumkin. Ijtimoiy ko'nikmalarning yuqori darajasi nafaqat boshqa kishining tajribasini ko'chirish, ma'lum qoidalar, stereotiplar, munosabatlarga rioya qilish, balki turli vaziyat va sharoitlarda bilim va malakalardan yetarli darajada foydalanishni anglatadi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonining muhim bug'ini – bu faoliyat va xulq-atvorning bir qismi bo'lgan murakkab ruhiy harakatlarni shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishidir. Ijtimoiy xulq-atvorni boshqarish o'zini o'zi anglash va o'ziga nisbatan emotsional-qadriyatli munosabat tarkib toptirishni nazarda



tutadi. Ushbu jarayon xulq-atvor harakatini amalga oshirishning barcha bosqichlarida – uning motivatsion tarkibiy asosdan faoliyatga doir komponentgacha faollikni ta'minlashni taqozo etadi.

Maktab ijtimoiy muassasa sifatida quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim: atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarning me'yorlari, tamoyillari va usullari to'g'risida ma'lumot berish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish; mavjud tajriba, bilim, qadriyatli yo'nalishlar, shuningdek, shaxsga oid sifatlar va kommunikativ malakalarini rivojlantirishga asoslangan holda, shaxsning muammolarni hal qilishga qaratilgan tashqi va ichki faoliyati samaradorligini ta'minlash; hayotda o'z o'rmini topish, uni ongli tarzda loyihalashtirish – mustaqil hayotga tayyorlashda aniq mo'ljalni olishga o'rgatish.

Bilim anglash jarayonining natijasi sifatida tasavvurlar, mulohazalar, tushunchalarda ifodalanadi. Qadriyatlar inson faoliyatiga tushunish, baholash jihatlarini olib kiradi va xulq-atvor motivlariga aylangan holda, shaxsning qadriyatli yo'nalganligini aylanadi. Ta'lim tashkilotining vazifalaridan biri o'quvchilarga qadriyatlar tizimini ishlab chiqishga yordam berishdan iborat. Qadriyatlar tizimi o'zini va boshqalarni baholash, o'z munosabatini ifoda etish, o'z tanlovini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan koordinatalar tizimi vazifasini bajaradi. Qadriyat me'yordan farqli o'laroq, tanlash imkoniyatini beradi va shuning uchun aynan tanlov vaziyatida qadriyatli-mazmunli komponentga tegishli xususiyatlar yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunday holda qadriyat motiv sifatida namoyon bo'lishi mumkin, ya'ni insonning real harakatlarga undashi va yo'naltirishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish komponentlari ularning ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqilishi kerak:

- o'zini ijtimoiy individ sifatida qabul qilish maktabda o'qishga bo'lgan kuchli motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi va bu yangi shaxsiy ta'lim “o'quvchining ichki pozitsiyasi” deb ta'riflanadi;

- erkinlikni rivojlantirish, bu xatti-harakatlarda ongli ravishda maqsadlarni qo'yish, ularga erishish vositalarini izlash va topish, qiyinchiliklar va to'siqlarni yengib o'tish, shuningdek, ichki rejada harakatlarni rejalashtirish va bajarish qobiliyatini shakllantirishda namoyon bo'ladi;

- refleksiyaning shakllantirish, bu o'z mulohaza va harakatlarini o'ylab qo'yilgan rejaga muvofiqligi nuqtai nazaridan ongli va ob'ektiv ravishda tahlil qilish va baholashga imkon beradi.

Ijtimoiy ko'nikmaning tuzilmasini biz kognitiv-motivatsion, faoliyatli, refleksiv-baholovchi va xulq-atvor komponentlari yig'indisi sifatida talqin qildik va ularni ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning bosqichlari sifatida qabul qildik. Taklif etilayotgan bosqichlarning har biri avvalgi darajaning yangilanishlarini hisobga oladi va yanada boyitib boradi.



Kognitiv-motivatsion komponent *o'quvchilar tomonidan shaxsning huquq va majburiyatlarini bilishga bo'lgan ehtiyojning anglanganligi, ushbu bilimlarning ahamiyatini tushunish, ularga o'z munosabatini ifoda etish, xulq-atvor me'yorlarini bilish va o'zaro munosabatlarning muayyan usullarini o'zlashtirishning muhimligini anglab yetishni nazarda tutadi.*

Faoliyatli komponent *maqsad qo'yish, harakatlarni rejalashtirish, konstruktiv o'zaro munosabatlarning me'yorlari va usullarini o'zlashtirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.*

Refleksiv-baholovchi komponent *bizning fikrimizcha, o'z xatti-harakatlarini, ishlarini, ichki holatini, his-tuyg'ularini, mulohazalarini anglash va baholash qobiliyatini, o'z bilimlari doirasini anglash, o'z yutug'ini ko'ra olishni nazarda tutadi.*

Xulq-atvor komponenti *turli shakl va vaziyatlarda o'zaro hamkorlik usullarini bilish va mavjud tajribadan foydalanishni nazarda tutadi.*

Ijtimoiy xulq-atvor quyidagi asosda qurilishi mumkin:

- o'z niyat va istaklari orasida “Men”ni anglab olish orqali;
- insonlar orasida “Men”ni anglab olish;
- jamiyatdagi qadriyatlar, axloq va madaniyat me'yorlari orasida “Men”ni anglab olish.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchunu ularning o'zaro hamkorlik usullari, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatli yo'nalganlik to'g'risidagi bilim darajasini aniqlash, boshqalar bilan samarali muloqotda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish darajasini o'rganish, muayyan vaziyatga muvofiq ma'lum bir xulq-atvor yo'nalishini oqilona tanlash qobiliyati, shuningdek erkin fikr bildirish imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatini o'rganish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blake PR, Rand DG, Tingley D, Warneken F. 2015. The shadow of the future promotes cooperation in a repeated prisoner's dilemma for children. *Sci Rep.* 5:14559.
2. Block K, Gibbs L, Staiger PK, Gold L, Johnson B, Macfarlane S, Long C, Townsend M. 2012. Growing community: the impact of the Stephanie Alexander Kitchen Garden Program on the social and learning environment in primary schools. *Health Educ Behav.* 39(4):419-32.
3. Cortes Barragan R and Dweck CS. 2014. Rethinking natural altruism: simple reciprocal interactions trigger children's benevolence. *Proc Natl Acad Sci USA.* 111(48):17071-4.
4. Domberg A, Koymen B, Tomasello M. 2018. Children's reasoning with peers in cooperative and competitive contexts. *Br J Dev Psychol.* 36(1):64-77.



O'QUVCHI-YOSHLARNING KASB TANLASHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

N.K.ERMETOVA,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Maqolada umumta'lim maktab bitiruvchilarining bo'lajak kasbni tanlashga ta'sir etuvchi omillar va ularni yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim muassasa, o'quvchi, bitiruvchi, ta'lim, sifat, kasb.

В статье представлены факторы, влияющие на выбор будущей профессии выпускников общеобразовательных школ, и научно обоснованные предложения по их решению.

Ключевые слова: образовательное учреждение, ученик, выпускник, образование, качество, профессия.

The article presents the factors influencing the choice of future profession of secondary school graduates and scientifically based proposals for their solution.

Key words: educational institution, student, graduate, education, quality, profession.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining hoxish-istaklari, qiziqishlari, hayotiy maqsad va rejalari yetarli darajada o'rganilmagan. Zero, xorijiy mutaxassislar fikriga ko'ra Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga qilinadigan sarmoya kelajakda bir necha marotaba ko'proq natija va samara beradi. Shunday ekan, o'quvchi-yoshlarning hayotiy maqsadlarini, ta'lim sifati va darajasidan qoniqishlari, bo'lajak kasbini va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish bugungi kunda xalq ta'limi tizimining o'ta dolzarb masalasi hisoblanadi.


So'rovnoma ishlari uchun, hududiy-geografik zonalaridan kelib chiqqan holda, Toshkent shahri, Andijon va Toshkent viloyatlarining umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlab olindi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilari tajriba-sinov davomida maktabida olayotgan ta'lim sifatiga baho berish imkoniyatiga ega bo'ldilar. "Sizni maktabingizda olayotgan ta'lim sifati qoniqtiradimi?" – degan savolga "qoniqaman" – degan javobni eng ko'p (80%) Andijon viloyati va eng kam (52%) Toshkent shahar bitiruvchilari, "qoniqmayman" – degan javobni eng ko'pini (13%) Toshkent shahar bitiruvchilari bergan.

Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilari ta'limi sifatidan qoniqmasliklarining sabablari o'rganilganda quyidagilar: birinchidan, moddiy-texnik vositalar (44,1%) hamda Toshkent shahar maktablarida ayrim fan o'qituvchilarining yetishmasligi (46,2%), ikkinchidan – amaliy

mashg'ulotlarning deyarli o'tilmasligi yoki kamligi (40,7%) hamda o'qituvchilarning bilim saviyasi pastligi (42,3%) aniqlandi.

Olingan natijalar asosida umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining ta'lim va o'qishiga e'tibor va qiziqishlarini uyg'otish, kasb tanlashga yo'naltirish va mustaqil hayotda o'z o'rnini topish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta'lim xizmatlari marketingini tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.



1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining kasb tanlashdagi ustuvor omillar, %

Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining kasb tanlashdagi ustuvor omil sifatida ishning ommabop, hozirgi davrda talab yuqori bo'lgan kasb bo'lishi (66,3%), ikkinchi o'rinda maoshi yuqori bo'lishi (48,4%) hamda keyingi o'rinlarda ish joyidagi qulay shart-sharoitlari (38,2%) va yuqori lavozimga ko'tarilishi (28,0%) deb belgilangan (1-rasm). Shahar va qishloq joylaridagi maktab bitiruvchilarning kasb tanlashdagi asosiy omillari birmuncha farqlanadi: shahar yoshlari (39,6%) yuqori maosh olishni kasb tanlashdagi asosiy omil deb ko'rsatishgan bo'lsa, qishloq maktab bitiruvchilari (34,5%) ish joyidagi qulay shart-sharoit tanlaganlar. Bunday natijani shaharlarda aholi ko'p qavatli uylarda istiqomat qilishi va uy-joy kommunal to'lovlar yuqoriligi, hamda qishloq joylarning o'zida dehqonchilik va chorva maxsulotlari yetishtirilganligi uchun narxlar birmuncha pastligi, oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyatini sotib olishga ehtiyojlari yo'qligi bilan izohlash mumkin.

Yuqoridagi jadval asosida maktab bitiruvchilarining aksariyati (69,7%) davlat korxonalarida ishlashni afzal deb bilishlarini ko'rish mumkin. Shahar va qishloq maktab bitiruvchilarining davlat sektorida ishlashni hojlaganlar mos holda 57,8% va 81,6%ni tashkil qildi. Hududlar kesimida ko'rilganda, davlat korxonalarida



ishlash istagini eng ko'pi (75,4%) Andijon viloyati va eng kami Toshkent shahar maktab bitiruvchilari bildirganlar.

Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilari iqtisodiyot tarmoqlari kesimida quyidagi ustuvor sohalarni tanlashdi: ta'lim sohasi (16,8%), sog'likni saqlash (13,6%), moliya, bank, kredit, sug'urta (10,1%), savdo va oziq-ovqat (9,4%), tadbirkorlik, biznes (8,3%), aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari (5,8%), huquqni muhofaza qilish organlari (4,9%).

Umuman olganda, maktab bitiruvchilarining tadbirkorlik, sanoat, va aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, turizm sohasida ishlash niyatlari davlatimizning iqtisodiy dasturining ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Tadbirkorlik, sanoat, va aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, turizm sohaslarida ishlashning nufuzli ekanligi borasida bitiruvchilarning ehtiyojini o'rganish ta'lim xizmatlari marketingining vazifasi bo'lib, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq. Bitiruvchilar kasb tanlashlari, mehnatga munosabatlari ularning ijtimoiy barkamolligi va javobgarlik darajasini aniqlab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchi-yoshlarning mehnatga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar asosida bugungi kun yoshlari kelajak hayotining muhim tanlovi bo'lgan mehnat foliyatini yo'nalishlarini ko'rsatadi.

So'rovnomada qatnashgan o'quvchilarning aksariyati mustaqil ravishda ish qidirishlarini bildirishgan, xususan: ish qidirishni "mustaqil ravishda tashkilot, korxona, firmalardan" – 38,4%, "internet, gazeta, jumallardagi e'lonlardan" – 14,9%; "bandlikka ko'maklashish markazlari"dan – 12,5% bitiruvchilar tashkil qilgan. Shu bilan birga, bitiruvchilar nafaqat internet, gazeta, jurnal - ommaviy axborot vositalaridan ma'lumot olishlari kerak, balki maktabda har bir fan kesimida fan o'qituvchilari kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishlari, ta'lim muassasada o'quvchilar to'g'ri kasb tanlashlari va shu kasbni egallashlarida professional, amaliy yordamni olishlari maqsadga muvofiqligini ta'kidlash joiz. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlarining marketing xizmatlarini to'g'ri tashkil etishlari bugungi kunning muhim masalaridan biri ekanligin ta'kidlash joiz. Ushbu olingan ma'lumotlar ishga joylashishda bitiruvchilarning huquqiy savodxonligini oshirishni taqozo etadi.

So'rovnoma natijasida olingan ma'lumotlarni tahlili shuni ko'rsatadi:

– maktab bitiruvchilarining uchdan ikki qismi olayotgan ta'lim sifatidan qoniqadi. Qoniqmaslikning asosiy sabablari moddiy-texnik vositalar hamda ayrim fan o'qituvchilarining yetishmasligi, amaliy mashg'ulotlarning deyarli o'tilmasligi, o'qituvchilarning bilim saviyasi pastligi bilan bog'liq;



– maktab bitiruvchilarining deyarli hammasi o‘qishni tugatgandan keyingi aniq rejalarga ega bo‘lib, ular kasb tanlashda hozirgi davrda talab yuqori bo‘lgan kasb bo‘lishi, maoshi yuqori bo‘lishi hamda ish joyidagi qulay shart-sharoitlari va yuqori lavozimga ko‘tarilishi deb belgilangan;

– maktab bitiruvchilarining tadbirkorlik, sanoat va aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, turizm sohasida ishlash niyatlari mamlakatimiz iqtisodiy dasturining ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi;

– maktab bitiruvchilarining aksariyati davlat korxonalarida ishlashni afzal biladilar.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

– maktab bitiruvchilari xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda o‘quvchi egallashi mumkin kasbga qarab guruhlariga bo‘lib o‘qitish;

– ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqish;

– umumta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazani mustahkamlash;

– kadrlar muammosini hal etish, bunda pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida kirish kvotalarini oshirish hamda OTM bitiruvchilarini yo‘llanma asosida ehtiyoj mavjud bo‘lgan maktablarga yubrish;

– dars jarayonida amaliy mashg‘ulotlar hajmini oshirish, o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

– bitiruvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirishda ularning istaklarini inobatga olish, sanoat sohasida ishlashning afzalliklari tg‘risida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish.

Xulosa qilib aytganda, maktab bitiruvchilarining kelajak maqsadlari, rejalari, kasb tanlashi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, ta‘lim imkoniyatlarini doimiy oshirishga doir masalalar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning davlat dasturlarini tayyorlash va amalga oshirishda, yoshlar siyosatini olib borishda hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabridagi “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.



BIOLOGIYA DARSLARIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHNING TASHKILY ASOSLARI

M.B. YULDASHEVA,

*Tomsk davlat universiteti aspiranti,
NavDPI, Biologiya o'qitish metodikasi kafedrası*

Ushbu maqola maktab biologiya darslarida laboratoriya mashg'ulotlari (9-sinf biologiya darsligining 8- laboratoriya ishi) ni tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilar uchun bajarilishi zarur bo'lgan ishlar ketma-ketligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: modifikatsion o'zgaruvchanlik, reaksiya normasi, genotip, modifikatsion o'zgaruvchanlikning variatsion egri chizig'i va qatori.

В статье описана последовательность работ, которые необходимо выполнять учителям и учащимся при организации лабораторных занятий на школьных уроках биологии (8-лабораторное занятие учебника биологии 9 класса).

Ключевые слова: модификационная изменчивость, норма реакции, генотип, вариационная кривая и вариационный ряд модификационной изменчивости.

This article describes the sequence of work that needs to be done for teachers and students in the organization of laboratory classes in school biology classes (laboratory work 8 of the 9th grade biology textbook).

Key words: modification variability, reaction rate, variation curve and variation series of modification variability.

Zamonaviy biologik ta'limni amalga oshirishda ta'lim jarayoni ishtirokchilari duch kelayotgan muammolardan biri laboratoriya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etilishda yetarlicha metodik asosning yo'qligi sanaladi. Fikrimizning dalili sifatida ko'plab biologlar-oqituvchilar o'rtasida 9 - sinf Biologiya darsligining 162- betida berilgan "Modifikatsion o'zgaruvchanlikning statistik qonuniyatlarini o'rganish" mavzusidagi laboratoriya ishini bajarish bo'yicha yetarlicha BKM ning yetishmasligi aniqlandi. Shuni hisobga olgan holda, maqolada mavzuni keng yoritish, har bir tushunchaga izoh berish va bajariladigan amallarning ketma-ketligi asosida laboratoriya mavzusi bayon etilgan.

8- laboratoriya mashg'uloti. Modifikatsion o'zgaruvchanlikning statistik qonuniyatlarini o'rganish

Mavzuning maqsadi: reaksiya normasi, organizmlarning moslanuvchanlik chegarasi haqidagi o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish. Modifikatsion o'zgaruvchanlikning statistik qonuniyatlari to'g'risida bilimlarni shakllantirish, belgilarning o'zgaruvchanligini variatsion qatori, tajriba yo'li bilan variatsion qator olish va reaksiya normasining egri chizig'ini yaratish. Laboratoriya mashg'ulotining asosiy qoidalarini mustahkamlash. Modifikatsion o'zgaruvchanlikning statistik qonuniyatlari. organizmda o'rtacha belgilarning ko'p uchrashi sabablarini o'rganish.

Jihozlar (har bir stolga): biologik obyektlar yig'indisi: loviya urug'i, dukkak,

bug'doy boshqolari, olma barglari, akatsiya barglari va boshqalar. Har biri 100 donadan kam bo'lmashligi kerak, ruletka yoki chizg'ich, qalam.

Modifikatsion o'zgaruvchanlik - organizmning sifat xususiyatlarining atrof-muhitning turli omillari ta'sirida yuzaga keladigan va genotipning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan o'zgarishidir.

Modifikatsiyalangan belgining namoyon bo'lish darajasiga tashqi va ichki muhit omillari ta'sir qiladi (masalan, boshqa genlar, shu jumladan regulyator – genlar ham). Muayyan belgining o'zgaruvchanligini o'rganish uchun variatsion qator tuziladi.


Variatsion qator – bu ma'lum bir belgi-xususiyat (variant)ni namoyon bo'lishining son ko'rsatkichlari ketma-ketligi, ularning oshib yoki kamayib borish tartibida joylashtirilgan holati (1- rasm).

Variatsion qatorning uzunligi modifikatsiyaning o'zgaruvchanligi amplitudasi haqida fikr beradi. U genotip bilan belgilanadi va atrof-muhit sharoitlariga bog'liq. Atrof muhit sharoitlari qanchalik barqaror bo'lsa, qator shuncha kalta bo'ladi. Agar ma'lum bir qatorda turli xil variantlar sonini kuzatib borsangiz, ularning aksariyati o'rta qismda ekanligini sezasiz. Ushbu statistik qonuniyatning grafik ifodasi – bu o'zgaruvchanlik egri chizig'idir.



Mashg'ulotning borishi.

a) o'rganilayotgan biologik obyekt (bitta o'simlik (1- rasm) bargi, urug'i, dukkagi va boshqolarni)ni uzunligiga qarab ketma-ket terib chiqing;



1- rasm. Biologik obyekt va uning reaksiya normasi



b) Biologik obyektning uzunligini o'lchang, olingan ma'lumotlarni daftaringizga yozing. Obyektlarni esa ularning uzunligi ortib boorish ketma ketligida joylashtiring va variatsion qator ma'lumotlarini jadvalga yozing.

O'rganilayotgan belgining har bir o'ziga xos qiymati V variant deb nomlanadi.

1- jadval

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29
Variant (uzunlik, sm)																													

d) Olingan o'lchamlarni yaxlitlang, bir-biridan kamroq sm farq qiladiganlarni guruhlariga ajrating..

e) har bir guruhga kiruvchi obyektlar sonini sanang.

Alohida har bir guruh variantlarining uchrash tezligi –R harfi bilan belgilanadi.

2- jadval

V variant uzunlik (sm)																													
R- uchrash tezligi																													

f) variatsion qatorni tuzing.

Bunda:

absissa o'qiga biologik obyektlar sonini;

ordinate o'qiga esa obyektlar uzunligini sm lardagi qiymatini joylashtiring.

g) belgining variatsion egri chizig'ini chizing.

h) Belgining o'rtacha qiymatini hisoblang (obyektlarni o'rtacha uzunligi).

Belgining o'rtacha qiymati boshqalariga nisbatan tez-tez uchraydi va undan sezilarli farq qiladigan variantlar juda kam uchraydi. Bunga odatiy taqsimot deyiladi.

$$M = \frac{\Sigma(V \times R)}{n}$$

Bu yerda:

M – belgining o'rtacha qiymati;


V – variant;

P – variantning uchrash tezligi;

n – variatsion qatordagi jami abyektlar soni;

? — jamlash belgisi.

i) Norma reaksiyasi va uning kengligini aniqlang. Buning uchun variatsion egri chiziqni eng minimal va maksimal qiymatlari oralig'ini belgilab olish zarur (2- rasm).



Reaksiya normasi (diagrammadagi qiymatlarga ko'ra 150 sm dan 185 sm gachani tashkil etadi).

Reaksiya normasining kengligini anqlang. Buning uchun maksimal qiymat va minimal qiymat o'rtasidagi farq aniqlanadi.

max-min = (yuqoridagi qiymatlar olinsa, unda $185 - 150 = 35$ ga teng bo'ladi)

Xulosa

1. Variatsion qatorning uzunligi ... bilan belgilanadi.
2. Modifikatsion o'zgaruvchanlikning grafik tarzidagi ifodasi bu ...?
3. Variatsion o'zgaruvchanlikning chegarasi ... bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov I. va boshqalar Biologiya (9-sinf) metodik qo'llanma T.; Abu ali ibn Sino tibbiyot nashriyoti, 2002-yil.

2. Zikiryayev A., To'xtayev A., Azimov I., Sonin N. Biologiya. Sitologiya va genetika asoslari: 9-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. 5- nashri. T.: "Yangiyul Poligraph Service", 2019- y. -192 b.

4. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi (akademik litsey va kasb - hunar kolleji biologiya o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) T.; Bilim. 2004-y.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 20.04.2021 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.